

MARDONQUL BOLTAYEV



# LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI VA IMLOSI



Aa Bb

Kk

Ch ch



81,633,1

B74

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

85,1  
9,1

*Boltayev Mardonqul*

# LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI VA IMLOSI

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun  
o'quv qo'llanma*



Y-6052 -



Мазкур ўқув қўлланма орқали талабалар янги алифбодаги ҳарфларнинг босма ва ёзма шакллари, уларнинг ўқилиши, кирилл алифбосидаги ҳарфларга ўхшаш ва улардан фарқли томонлари, янги имло қоидалари билан танишадилар, тегишли машқулар орқали олган билимларини мустаҳкамлайдилар. Китоб сўнгидаги берилган матнлар талабаларнинг халқимиз тарихи, маданияти, адабиёти, илм-фани бўйича билимларини янада бойитиш учун хизмат қиласди.

„Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбоси ва имлоси“ курсидан тайёрланган бу ўқув қўлланма олий ўқув юргарининг битирувчи курс талабалари учун мўлжалланган бўлиб, у Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрга маҳсус таълим вазирлиги томонидан белгиланган 60 соатлик амалий ўқув машғулотлари учун режалаштирилган назарий ҳамда амалий материалларни қамраб олган.

**МАСЪУЛ МУҲАРРИР:** филология фанлари доктори,  
профессор **МИРЗАЕВ И. К.**

**ТАҚРИЗЧИЛАР:** филология фанлари доктори,  
профессор **ТУРНИЁЗОВ Н. К.**,  
филология фанлари номзоди,  
ЎзМУ доценти **ҚОДИРОВ М.**

Б 4306020200—130 Қатъий буюртма — 2003  
353(04)—2003

ISBN 5-645-04118-6

© „Ўқитувчи“ нашриёти, 2003

## КИРИШ

Ўзбекистон Республикасининг мустақилликка эришуви билан бутун жамиятимизда тубдан янгиланиш бошланди. Бундай янгиланишлар фақат сиёсий-иктисодий тузумимиздагина юз бериб қолмасдан, маданий-маърифий соҳаларда ҳам ўз аксини топа бошлади.

1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган „Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида“ги қонун турмуши тарзимизни мустақиллик шароитига мослаб ривожлантириш учун қаратилган муҳим тадбир сифатида кутиб олинди. Дарҳақиқат, қонуннинг кириш қисмидаёқ: „Ушбу қонун Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосланиб ва ўзбек ёзувининг лотин алифбосига ўтилган 1929—1940 йиллардаги ижобий тажрибасидан келиб чиқиб, кенг жамоатчилик вакиллари билдирган истак-хоҳишларни инобатга олган ҳолда республиканинг ҳар тарафлама камол топишини ва жаҳон коммуникация тизимига киришни жадаллаштирувчи кулай шароит яратишга хизмат қиласди“, — дейилган.

Маълумки, қадимги Римда пайдо бўлиб, милоддан олдин ўз такомилига эришган лотин алифбосидан ҳозирги пайтда кенг фойдаланаётган мамлакатлар сони етмишдан ошади. Шу мамлакатларнинг ўтиздан ортифи Европада, йигирмадан зиёди Осиёда, қолган йигирмадан ортифи Африка ҳамда Америка қитъаларида жойлашгандир. Янги алифбомиздаги ҳарфларнинг ўзбек тили товушлар тизими билан ўзаро мутаносиблиги умумий саводхонлигимизнинг ошишига, имло қоидалари билан талаффуз меъёрлари ўртасида жиддий фарқлар бўлмаслигига кўмаклашади, Ўзбекистонда ва хорижда ўзбек тилини ўрганаётган чет эл фуқароларига шаклий яқинлиги билан қўл келади, замонавий фан ва ҳисоблаш техникаси ютуқларидан баҳраманд бўлишимизга ёрдам беради. Ўзбек халқининг дунё ҳамжамиятига, жаҳон коммуникация тизимига дадил кириб боришига, ягона ёзув тизимига ўтаётган қардош халқлар билан янада яқинлашувига ҳамда иқтисодий, маданий ва бошқа соҳаларда олиб борилаётган алоқаларнинг янада

мустаҳкамлана боришига хизмат қиласи. Шунинг учун лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбоси ва унинг имло қоидаларини жадал ўрганиб, бошқаларга ҳам ўргатиш ҳар бир зиёлиниг асосий вазифаси бўлмоғи лозим. Шу мақсадда мактаб ўқувчилари учун чиқарилган алифбе, ўқиш китоблари ва бошқалардан ташқари, Й. Абдуллаевнинг „Совға“, „Ҳамроҳим“, Ш. Раҳматуллаевнинг „Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси“, Р. Жўракуловнинг „Истиқъол алифбоси“ каби китоблари ҳам нашр этилди. Бироқ бу ишлар айнан талабаларга янги алифбо ва имлони ўргатишга мўлжалланмаган эди.

Шунга кўра, мазкур ўқув қўлланма олий ўқув юрти талабаларининг лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосини ҳамда имло қоидаларини ўрганишларига яқиндан кўмаклашишни кўзда тутади. Қўлланма фақатгина талабалар ёки ўқувчиларгагина эмас, балки ишлаб чиқариш билан банд бўлган ва янги алифбо ҳамда имло қоидаларини ўрганишга киришган барча кишиларга ҳам қўл келиши мумкин.

Қўлланмада ёзувлар тарихи, унли товушлар ва ҳарфлар тўғрисида маълумот берилгач, ҳар бир машгулотда иккитадан ундош товуш ва уларни ёзувда ифодаловчи ҳарфлар ҳақида, уларнинг босма ҳамда ёзма шаклларини хотирада мустаҳкамлаш ва ёзиб ўрганиш учун бир нечта машқлар ҳавола этилган. Дастлабки машгулотлардаги машқларга ўрганилмаган ҳарфлар иштирок этган сўзлар киритилмади. Мисоллар ва машқлар ўрганилган ҳарфлар иштирокида машгулотлардан машгулотларга кўпайиб бораверади.

Ўқув қўлланма юзасидан билдириладиган ҳар қандай танқидий фикрлар, уни такомиллаштиришга қаратилган таклиф ва мулоҳазалар қўйидаги манзилга юборилса, мамнуният билан қабул қиласи:

Самарқанд шаҳри, Университет хиёбони, 15- уй, СамДУ, ўзбек филологияси факультети, амалий тилшунослик, ўзбек тили ва адабиёти ўқитиш методикаси кафедраси.

---

## **I- МАШГУЛОТ**

### **ЛОТИН ЁЗУВИГА АСОСЛАНГАН ЎЗБЕК АЛИФБОСИГА ЎТИШ ҲАҚИДАГИ ҚОНУН**

Марказий Осиёнинг Россия томонидан босиб олиниши натижасида йирик империянинг вужудга келиши, октябрь тұнтаришининг юз бериши ҳамда ҳаммани тенглаштириш дейилса-да, тенгсизликнинг үрнатилиши чекка-чеккадаги миллий республикаларда яшовчи халқларнинг бир қанча маҳаллий-миллий хусусиятларидан мажбуран воз кечишлирига олиб келди. Халқимиз ҳам үзининг бой тарихини, урф-одатларини, анъаналарини, маданиятини, адабиётини, тириклик манбай — ўз тилини чуқур үрганиш, ҳар тарафлама ривожлантириш имконияти чеклаб қўйилганлигидан қарийб бир ярим аср азоб чекди.

Ўзбек халқи фойдаланиб келган араб графикаси асосидаги эски ўзбек ёзувида оламшумул аҳамиятга молик мумтоз адабиётимизнинг нодир намуналари, минг-минглаб тарихий, илмий асарлар яратилиб, бу ёзув халқимиз турмушига чуқур сингиб кетган эди. Аммо мамлакатни бошқаришда, ҳужжат юритишда араб ва кирилл алифболарининг қўлланиши маълум қийинчиликлар тугдирар эди. Шунинг учун 1929 йилга келиб, шошилинч равишида лотин ёзувига асосланган алифбога ўтилди. Янги алифбога мослаб имло қоидалари ишлаб чиқилди. Афсуски, лотин алифбосига асосланган бу ёзувдан узоқ фойдаланилмади. 1940 йил май ойида яна тезкорлик билан кирилл алифбосига асосланган янги ёзувга ўтилди. Янги алифбога мослаб яна имло қоидалари ишлаб чиқилди. Қисқа муддат ичидә ўтказилган ҳар иккала маданиятини янада тезроқ юксалтиришга равнақ топтиришга хизмат қиласи деб ҳисобланган эди. Бироқ бу тадбирлар тилимиз равнақига, имло равонлигига, саводхонлигимизнинг ошишига ёрдамлашиш ўрнига тўсқинлик қилиб келди.

Кирилл ёзувига асосланган ўзбек алифбоси ва жорий имло қоидаларига ўзгартишлар киритиш тўғрисидаги таклиф

ва мuloҳазалар инобатга олинмасдан, асоссиз равишида орқага суриб келинди. 1991 йил 31 августда Ўзбекистон Республикасининг мустақил давлат деб эълон қилинганидан сўнгтина ўзбек тилининг товушлар тизими, оҳангдорлиги ва имлосини ўзида тўла ифодалай оладиган ёзувга — алифбога ўтиш имконияти туғилди. Тез орада — 1993 йил 2 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши „Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўгрисида“ Қонун қабул қилди. Бу алифбо 31 ҳарф ва тутуқ белгиси (апостроф)дан иборат этиб белгиланди. Янги алифбодаги баъзи ҳарфларнинг жаҳон алоқа-аралашув тизимига киришимизга маълум қийинчиликлар туғдириши мумкинлигини ҳисобга олиб, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1995 йил 6 майда „Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўгрисида“ ги Қонунга баъзи ўзгартишлар киритиш ҳақида Қарор қабул қилди. Мазкур Қарорга биноан, лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбоси 26 ҳарф ва 3 ҳарфлар бирикмасидан иборат тарзда тасдиқланди. Бу алифбо 1940 йилгача қўлланишда бўлган алифбодан таркиб ва тартиб жихатдан ҳам фарқ қиласди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси „Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўгрисида“ ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш тартиби ҳақида“ ги Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Қарорига ўзгартишлар киритиш тўгрисида қабул қилган қарорини талabalар ўрганишлари зарур бўлганлиги учун киритилган ўзгартишлар билан қўйида келтирамиз.

### ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ МАЖЛИСИННИГ ҚАРОРИ

„Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўгрисида“ ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш тартиби ҳақида.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қарор қиласди:

1. „Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўгрисида“ ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни эълон қилинган кундан эътиборан амалга киритилсин (1993 йил 2 сентябрь — *Б.М.*).

2. Янги алифбога босқичма-босқич ўтилиб, бу иш 2005 йил 1 сентябрига қадар тўлиқ тугаллансин.

3. Республика давлат комиссияси:

уч ойлик муддат ичидаги мактабгача тарбия болалар муассасаларида, мактаблар, ўрта ва олий ўқув юртларида, корхоналар, ташкилотлар, муассасалар ва жамоат бирлашмаларида янги алифбога босқичма-босқич ўтишнинг давлат дастури ва тартибини ишлаб чиқсин ва уни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасдиғига тақдим этсин;

1995 йил давомида ўзбек орфографиясининг янги қоидаларини ишлаб чиқсин ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси муҳокамасига тақдим этсин;

„Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида“ти Ўзбекистон Республикаси Қонуни ва Олий Мажлиснинг ушбу Қарорини рўёбга чиқаришда давлат ҳокимияти ва бошқарувнинг республика ҳамда маҳаллий органларига услубият ва ахборот бобида мунтазам равишда ёрдам кўрсатиб борсин;

республика ва маҳаллий бошқарув органларининг янги алифбони жорий этиш юзасидан қилинаётган ишлар тўғрисидаги ахборотларини мунтазам тинглаб борсин.

4. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги янги алифбога босқичма-босқич ўтишнинг давлат дастури ва тартиби асосида:

лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини амалда жорий этишга доир аниқ чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқсин ва тасдиқласин;

1996 йил 1 сентябрдан эътиборан мактабгача тарбия болалар муассасаларида умумтаълим мактабларининг биринчи синфларида янги алифбо бўйича машғулотлар ўтказиши, қолган синфларда эса факультатив машғулотлар ташкил этишни таъминласин.

5. Ўзбекистон Республикаси Давлат матбуот қўмитаси 1996 йил 1 августга қадар лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини ўрганиш учун керакли дарсликлар ва бошқа кўлланмалар нашр этилишини таъминласин.

6. Вилоятлар, туманлар ва шаҳарларнинг ҳокимлари республика давлат комиссияси билан келишилган ҳолда лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини босқичма-босқич жорий этишга доир дастурни амалга ошириш бўйича комиссиялар тузсинилар.

7. Вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар, давлат ва хўжалик бошқарувининг бошқа органлари, жамоат бирлашмаларининг республика органлари, шу жумладан, тасарруфларида корхоналарда, муассасаларда, ташкилот-

ларда ҳам ҳодимларги янги алифбони ўргатишни ташкил этиши ҳамда бунинг учун керакли дарсликлар, ўқув қўлланмалари ва техника воситалари билан таъминлаш юзасидан маҳсус ишчи турӯлдари тузсинлар.

Белгилаб қўйилсинки, янги алифбони жорий этишга доир бирча хирижатлар мулкчилик шаклидан қатъи назар, корхоналар, ташкилотларнинг ўз маблағлари ҳисобидан (бюджет ташкилотлари бундан мустасно) амалга оширилади.

#### 8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

1994 йилги ҳамда ундан кейинги йилларга мўлжалланган давлат бюджетини шакллантириш чоғида янги алифбони жорий этиш мақсадида зарур бўладиган маблағларни бюджетдаги ташкилотлар учун — Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрига ажратилишини наширда тутгени;

1995—96 йиллар давомида лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш билан боғлиқ тадбирларни моддий-техника жиҳатидан таъминлашнинг ҳамда корхоналар, ташкилотлар, хўжаликлар ва ўқув юртларида янги алифбони факултатив тарзда ўрганишни ташкил этишнинг биринчи галдаги масалаларини ҳал этсин;

ушбу Қарор бажарилишининг бориши тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисими мунтазам хабардор ёилиб турсан.

9. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги амалдаги қонун ҳужжатларини „Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида“ги қонунга мувофиқлантириши юзасидан таклифлар тайёрласин ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига тақдим этсин.

10. Янги алифбога тўлиқ ўтилган пайтдан, яъни 2005 йилнинг 1 сентябридан эътоборан 1940 йил 8 майда қабул қилинган „Ўзбек ёзувини лотинлаштирилган алифбедан рус графикаси асосидаги янги ўзбек алифбесига кўчириш тўғрисида“ги (Ўзбекистон ССР Олий Советининг Ведомостлари, 1940 йил, № 4) Ўзбекистон Республикасининг қонуни ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

Карорда белгиланган тадбирлардан ҳам кўриниб турибдикни, янги алифбога ўтиш катта куч ва маълум муддатни талаб этиди. 2003—2004 ўқув йилида ўрта мактабларнинг 1—10-синифларида машғулотлар тўлиқ равишда лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосида олиб борилмоқда. Олий ўкуви юртларида татълим олаётган талабаларимиз ҳам

янги алифбо ва имло қоидаларини пухта ўрганишга киришилар. Чунки улар ишлаб чиқаришга йўл олгунларича барча иш қоғозлари давлат тилида, энг муҳими, лотин алифбосида юритила бошлайди. Шунинг учун ҳам талабаларимиз янги алифбода савод чиқаришга, янги имло қоидаларини яхши ўрганиш ҳамда ҳаётга бекаму кўст тадбиқ эта олиш ишига жиддий қарашлари лозим.

## 2- МАШФУЛОТ

### ТИЛ ВА ЁЗУВ. ЎЗБЕК ХАЛҚИ ФОЙДАЛАНГАН ЁЗУВЛАР

Улуғ мутафаккир шоир, ғазал мулкининг султони ҳазрат Мир Алишер Навоий тилнинг, сўзнинг жамиятда, инсон ҳаётида тутган ўрнини қўйидаги мисраларида жуда гўзал ва маромига етказиб тасвирлай олган:

Сўздурки, нишон берур ўлукка жондин,  
Сўздурки, берур жонга хабар жонондин,  
Инсонни сўз айлади жудо ҳайвондин,  
Билким, гуҳари шарифроқ йўқ ондин.

Тил зукко аждодларимиз томонидан яратилиб, асрлардан асрларга сайқал топиб, ривожланиб келаётган энг муҳим алоқа воситаси эканлиги ҳаммамизга маълум. Тилсиз на жамиятни, на шахслараро маданий муносабатларни тасаввур эта оламиз. Тил — инсонга инъом этилган энг буюк неъматdir. Бироқ тил, яъни сўзлар воситасида воқе бўлувчи нутқ орқали оғзаки фикр алмашиш айрим чекланишларга ҳам эга. Чунончи, ҳозирги техника тараққиётини мустасно этганда, узоқ масофадан ёки вақт нуқтаи назаридан олиб қараганда, тил орқали бевосита фикр алмашиш мушкул. Мана шу чекланганлик инсоният тарихида ёзувнинг — билвосита алоқа қуролининг кашф этилишига олиб келди.

Ёзув жамият тараққиётининг муҳим белгиларидан биридир. Инсоният томонидан яратилган буюк кашфиётлардан ҳисобланмиш ёзув ўзининг бугунги тараққиёт даражасига ёришгунча печа минг йиллар ўтган. Ёзув орқали инсон ўзининг макон ва замонда чекланганлик ҳолатига барҳам берди. Ёзув орқали биз буюк аждодларимизнинг орзуармонларидан огоҳ бўлиб, ақл-заковатлари маҳсули бўлган бебаҳо маънавий-маърифий дурдоналаридан баҳраманд бўлиши, замондошлиаримиз яратаетган бадиий, илмий, тари-

хий-маданий бойликлардан келажак авлодларимизни ҳам баҳраманд эта олиш имкониятига эга бўламиз. Шунинг учун ҳам ёзувнинг жамият тараққиётида, инсон ҳаётида тутган ўрни бекиёсдир.

Ҳар бир нарсанинг ривожланиш, тараққиёт босқичлари бўлгани каби, ёзув ҳам бир исча тараққиёт босқичларини босиб ўтган. Дастребки ёзув шартли равишда буюм **ёзуви** деб номланган. Профессор А. Абдуазизов ўзининг „Тиллар оламига саёҳат“ номли китобида бу ёзувга қуйидаги қизиқарли мисолни келтиради: „Ўрта Осиёда бир қиз ўзи ошиқ бўлган йигитга севги мактуби ўрнига турли буюмлар солинган қопчани жўнатган. Қопчанинг ичидағи қуруқ чой — „мен энди сенсиз ҳатто чой ҳам ичолмайман“, сомон — „чунки менинг рангим сенинг ишқингда сомондек саргайиб кетди“, қизил бүёқ — „сени ўйлаганимда рангим ўзгаради“, туршак — „мен қуриб боряпман“, писта кўмир бўлаги — „юрагим ишқ ўтида ёнмоқда“, гул — „сен гўзалсан“, қанд — „сен ширинсан“, тош — „юрагинг тошми?“, бургутнинг қаноти — „қанотим бўлса, сен томонга учган бўлардим“, ёнғоқ мағзи — „мен сенинг шайдойингман“, — деган маъноларни ифодалаган<sup>1</sup>. Ёки „Герадотнинг ҳикоя қилишича, скифлар форсларга қурбақа, сичқон, қуш ва бешта камон жўнатганлар. Бу „буюм“ мактуби қуйидагича ўқилган: „Агар сизлар, форслар, қуш каби осмонга уча олмасангиз, қурбақа каби ботқоқликда сакраб юролмасангиз, сичқон каби ерга яширина олмасангиз, бизнинг камонларимиздан отилган ўқлар зарбидан йўқ бўлиб кетасизлар“<sup>2</sup>.

Буюм ёзуви вақт ўтиши билан пиктографик — **расм ёзуви** билан алмашган. Бундай ёзувда ҳар бир расм маълум маъно ифодалаган. Масалан, оёғи осмондан қилиб тескари чизилган кийик сурати ўлимни, тошбақа сурати бахтни, ўқланган камон урушни, трубка чекаётган киши — тинчлик битими тузишни, қўл ушлашиб турган икки киши дўстликни, иккита туташ юрак сурати муҳаббатни, кесишган илон сурати хавф маъносини англатган. Аммо бу ёзув ҳам буюм ёзуви каби барча учун қулай ва тушунарли эмас эди. Буюм ёки унинг суратини ҳар ким ҳил

<sup>1</sup> Абдуазизов А. Тиллар оламига саёҳат. — Т., „Ёш гвардия“, 1988, 54—55- б.

<sup>2</sup> Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов И. Тилшуносликка кириш. — Т., „Ўқитувчи“, 1981, 68—91- б.

тушунар эди. Бундан ташқари, буюмни ўзига ўхшатиб чизиш ҳам ҳар кимнинг қўлидан келавермайдиган ишдир.

Неча асрлар ўтиб, расм ёзуви ўз ўрнини **идеографик** — тушунча ёзувига бўшатиб берди. Бундай ёзувда ҳар бир ёки бир турдаги тушунчаларга маълум рамзий шакллар танланган. Бундай белгилар **логограммалар** деб ҳам аталади. Логограмманинг пиктограммадан фарқи шундаки, у сўзнинг маъносини изоҳлади, пиктограмма эса буюмнинг ўзини акс эттиради. Шунга кўра, логограмма буюм шакли бўлмай, у сўз маъносини акс эттирувчи шартли белгидир.

Логографик ёзувнинг анчайин мукаммаллашган шакли **иероглифик ёзувдир**. У муқаддас ёзув маъносини англатади. Иероглифларда оз бўлса ҳам ифодаланувчи буюм билан боғланган бирор бир хусусият сақланиб қолган бўлади. Ҳозирги Хитой ёзуви (шунингдек, япон, кореес ва бошқ.) иероглифик ёзув ҳисобланади. Хитой лугатларида 41 мингга яқин иероглифлар қайд этилганлигини ҳисобга оладиган бўлсан, бу тилда ёзиб-ӯқиши учун шунча миқдордаги иероглифларни ёд билиш шарт эканлигини тасаввур этиш қийин эмас.

Юқорида қайд этиб ўтилган барча ёзув турлари ўқиши ва ўқитиш ишларини фоят даражада қийинлаштиради. Савод ўргатиш, ўқиши-ўқитиш ишини яхшилаш учун эса ёзувни осонлаштириш, соддалаштириш, қулайлаштириш лозим эди. Шунингдек, жамиятнинг тараққиёт жараёни ҳам ёзувни қулайлаштиришни талаб этади. Мана шундай эҳтиёж натижасида фонографик товуш ёзувининг дастлабки кўринишлари — бўғинлаб ўқилувчи ёзув пайдо бўлди ва бу ёзув товуш ёзувининг келиб чиқиши учун асос бўлди. Фонографик ёзувда ҳар бир товуш бир ҳарф билан ифодаланади.

Ҳарф-товуш ёзуви ҳозирги вақтда бутун дунёда фойдаланилаётган тўрт хил ёзув тизимидан иборат бўлиб, улар лотии ёзуви, араб ёзуви, ҳинд ёзуви ва кирилл ёзувларидир. Ҳарф-товуш ёзувининг келиб чиқиши Миер, Финикия ва Грекиянинг узоқ ўтмишига бориб тақалади.

Финикий ёзуви билан милоддан олдинги XII-X асрларга онд маъбалар ёзиб қолдирилган. Кейинчалик оромий ёзуви пайдо бўлган ва унинг асосида яхудий, сурия, эрон, араб ёзувлари юзага келди. Эрон ёзуви уйфур, мўғул, бурят ёзувларининг пайдо бўлиши учун асос бўлган.

Милоддан олдинги 403 йилдан бошлаб грек алфавити қўллана бошлаган. Грек ёзуви асосида лотин, кирилл, грузин, арман ва бошқа алифболар яратилган.

Ўрта Осиё халқлари, шу жумладан, ўзбек халқи ўзининг кўп асрлик тарихи давомида оромий, юонон (грек), карошта, сүғд, хоразм, кушон, эфугалит, паҳлавий, сурия, ҳинд, туркрун (дулбаржин), моний, брахма, уйғур, араб, лотин ва кирилл ёзувларида иш юритиб келди.

Турк-рун ёки дулбаржин ҳамда уйғур ёзувлари туркий халқлар ижод қилган алифболар ҳисобланади. Дулбаржин ёзуви 41 ҳарфдан иборат бўлиб, улардан бештаси унли товушларни, қолганлари ундош товушларни ифодалаш учун хизмат қилган. Бу ёзувда битилган ёдгорликлар Энасой (Россия) ва Ўрхун (Мўгулистан) дарёлари бўйларидан топилганлиги учун илмий адабиётларда „Ўрхун-Энасой ёдгорликлари ёзуви“ номи билан ҳам машҳурdir. Бу алифбодаги матнлар юқоридан пастга ёки ўнгдан чапга қараб ёзилган ва шундай ўқилган. Юқоридан пастга қараб ёзилганда ҳарфлар чап ёнига ётқизилган ҳолда ёзилган ва сатрлар ҳам ўнгдан бошланган.

Уйғур ёзувида товушларни ифодаловчи 18 ҳарф мавжуд бўлиб, улардан учтаси унлиларни ифодалаш учун, қолганлари ундошларни ифодалаш учун хизмат қилган. Уйғур ёзуви қадимги турк даврида пайдо бўлганлиги билан аҳамиятли бўлиб қолмасдан, XVIII асргача қўлланишда бўлганлиги билан ҳам мутахассислар эътиборини жалб этиб келмоқда.

Араб алифбосига асосланган эски ўзбек ёзувида 32 та ҳарф бор. Шулардан тўртта ҳарф унли товушларни ифодалаш учун, қолган ҳарфлар эса ундош товушларни ифодалаш учун хизмат қиласди. Бу ёзувдаги матн ўнгдан чапга қараб ўқиласди ва ёзиласди, бош ҳарфлар қўлланилмайди, тиниш белгилари ишлатилмайди, сўзлар бўғинлаб сатрдан сатрга кўчирилмайди.

1940 йилгача қўлланишда бўлган лотин ёзувига асосланган алифбода 30 та ҳарф бўлиб, уларнинг 6 таси унли товушларни, 24 таси ундош товушларни ифодалаш учун хизмат қилган. Бу алифбога товуш ифодаламайдиган белгилар киритилмаган. 1940 йил 8 майда кирилл алифбосига ўтиш ҳақида қонун қабул қилиниб, жуда тез фурсатда янги алифбо жорий этилган. Кирилл ёзувига асосланган алифбода 33 ҳарф ва 2 та белги мавжуд. Улардан 10 таси унли товуш ва товуш бирикмаларини ифодалаш учун хизмат қилиб келди.

Кирилл ёзувига асосланган алифбомизда 6 унли товушни ифодаловчи „а“, „о“, „у“, „ү“, „и“, „э“ ҳарфлари билан бир қаторда товуш бирикмаларини ифодаловчи „е“, „ё“, „ю“, „я“ ҳарфлари ҳам киритилган эди. Шунингдек, ўзбек тилида учрамайдиган қоришиқ ундош товушни ифодаловчи „ц“ ҳарфи, юмшатиш (ъ) белгиси кабиларнинг киритилиши ҳамда шакл жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган „ў-у“, „ҳ-ҳ“, „к-қ“, „ғ-ғ“ каби ҳарфлар ҳам саводхонликни кўтариш учун, айниқса, ўзбек тилини ўрганувчи чет элликлар учун бир мунча қийинчиликлар туғдирди.

Дастлабки машғулотларимизда айтиб ўтилганидек, лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосига ўтилиши ҳар томонлама қулай ҳамда уни ўзбек тилининг кейинги тараққиёти учун қўйилган тамал тоши деб қараш мумкин.

### 3- МАШГУЛОТ

#### ЯНГИ ЎЗБЕК АЛИФБОСИДАГИ ҲАРФЛАРНИНГ ЖОЙЛАШИШ ТАРТИБИ ВА ТАРКИБИ

Лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосида унли ва ундош товушларни ифодалаш учун 26 та ҳарф ҳамда 3 та ҳарфлар бирикмаси берилган. Янги алифбо тартиби қуйидагича: Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'о', G'г', Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Қўринадики, янги алифбомиз кирилл ёзувига асосланган алифбодан тартиб жиҳатдан ҳам, таркиб жиҳатдан ҳам, сифат жиҳатдан ҳам анча фарқ қиласи. Янги алифбодаги „а“, „к“, „о“, „ҳ“ каби ҳарфлар кирилл алифбосидаги шу товушларни ифодаловчи ҳарфларга ўхшашиб, „б“, „е“, „р“ ҳарфлари эса кирилл алифбосидаги „в“, „е“, „р“ ҳарфларига ўхшайди. „м“, „т“ ҳарфларининг катта босма шакли ҳам ҳар икки алифбода бир-бирига ўхшашиб бўлса, „д“ ҳарфининг ёзма шаклида ҳам ҳар иккала алифбода фарқ йўқ. Булардан ташқари, „ғ“, „г“, „ҳ“, „п“, „т“, „и“, „у“, „ѓ“ каби ҳарфларнинг ёзма шакли ёки ёзма шаклида ўхшашликлар мавжуд. Амалдаги ва янги алифбомиздаги бундай ўхшашликларнинг савод ўрганувчилар учун қулайлик ва бир оз қийинчилик туғдирувчи икки жиҳати бор. Қулайлик жиҳати шундаки, янги алифбода савод чиқарувчига аввалдан таниш бўлган ҳарфларни ўрганиш анча осон кечади. Савод чиқарувчига

покудайлик тұғдирувчи жиҳати шундаки, шакл ва товуш инфодаланыңда тұлық үхшаш бўлган ҳарфлардан фарқли ўлароқ, шаклан үхшаш бўлиб, талаффуз қилинишида аввалги алифболини фирқ қылувчи ҳарфларни ўрганиб, тўғри талаффуз қилиш учун маълум малака ҳамда қўнікма ҳосил қилиш талиб этилади. Янги алифбомиздаги „i“, „j“, „l“, „q“, „s“, „v“, „z“ ҳарфлари ҳамда ҳарф бирикмалари ҳам бирор бир фарб тилидан хабардор бўлган кишига уларни ўрганиш учун ортиқча қийинчилик туғдирмайди.

Янги алифбомизга кирилл ёзувидаги „е“, „ё“, „ю“, „я“, „и“ каби ҳарфларнинг киритилмаганлиги үқувчиларнинг, ҳатто талабаларнинг ҳам мазкур ҳарфлар орқали инфодаланиб келинган товушлар бирикмаси билан бошлануви ёки таркибида шундай товушлар мавжуд бўлган сўзларни турлича ёзишларига барҳам берадиган бўлди. Чунки, *майор*, *мөъёр*, *раёсат* каби икки хил ёзиладиган сўзларни фарқлашгина эмас, *яна*—*йана*, *ёруғ*—*йоруғ*, *емиши*—*йемиши*, *юлдуз*—*йулдуз*, *юган*—*йуган* каби сўзларни хатто ёзиш ҳолатларини бартараф этиш ҳам қийинчилик билан амалга оширилар эди. Булардан ташқари, янги алифбомизга юмшатиш (ъ), айириш (ъ) белгиларининг киритилмаганлиги ҳам мақбул ҳолдир. Чунки үзбек тилида юмшатиш белгиси билан ёзиладиган бирорта ҳам сўз йўқ. Мавжуд сўзлар эса рус тилидан ўзлаштирилган сўзлардир. Барча тилларда бошқа тиллардан ўзлашган сўзлар шу тилининг қонун-қоидаларига бўйсундирилади. Шунга кўра, үзбек тилига ўзлашган чет тил сўзлари ҳам унинг қонун-қоидаларига бўйсундирилиши, талаффуз мөъёрларимизга мослантирилиши табиий ҳолдир.

Тилимизга араб тилидан ўзлаштирилган айириш (ъ) белгили сўзларни ёзиш учун эса имло қоидаларида берилган тутук („“) белгисидан фойдаланаверамиз. Тутук белгиси *санат*—*санъат*, *қала*—*қалъа*, *шер*—*шебр*, *алам*—*аълам*, *даво*—*даъво*, *зафарон*—*зәфарон*, *матал*—*маътал*, *наша*—*нашъа*, *сурат*—*суръат*, *тана*—*таъна* каби үзбекча ва ўзлашма сўзларнинг маъносидаги фарқларни англаб этишимиз учун ширурдир.

**Топшириқ.** Кирилл ва лотин ёзувига асосланган алифболарнинг босма ҳамда ёзма шаклини тартиб билан дафтариштага кўчириб ёзинг, улар орасидаги үхшаш ва фарқли томонларни солишишинг.

## 4- МАШИУЛОТ

### УНЛИ ТОВУШЛАР ВА УЛАРНИНГ ЁЗУВДАГИ ИФОДАСИ

Ўзбек адабий тилидаги 6 унли товуш лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосида олтита алоҳида ҳарф билан берилади.

„Aa“ ҳарфи. Бу ҳарф тил олди, лаблашмаган, кенг унли товушни ифодалайди. Кирилл ва лотин ёзувига асосланган алифболаримизда шаклан бир хил қўринишга эга. Катта „A“ ҳарфи кейинги ҳарфга белбоги орқали, кичик „a“ эса пастки илмоғи орқали туташтирилади.

Aa  
A A A A A A A A A A  
a a a a a a a a a a

„Oo“ ҳарфи. Бу ҳарф тил орқа, лаблашган, кенг унли товушни ифодалайди. У ҳам кирилл ва лотин ёзувига асосланган алифболаримизда бир хил қўринишга эгадир. „O“ ҳарфининг катта шакли кейинги ҳарфга ўзининг пастки қисмидан, кичик „o“ ҳарфи эса юқори қисмидан туташтирилади.

Oo Oo Oo Oo Oo Oo Oo Oo Oo  
O O O O O O O O O O  
o o o o o o o o o o

„Uu“ ҳарфи. Бу ҳарф лаблашган, тил орқа, тор унли товушни ифодалайди. Унинг ёзма шакли кирилл алифбосидаги „и“ ҳарфи билан шаклдошидир. Бу товуш кирилл алифбосида „у“ шаклида берилар эди. Мазкур ҳарфнинг катта ва кичик шаклларининг ҳар иккаласи ҳам пастки тугаш қисмидан туташтирилади.

Uu Uu Uu Uu Uu Uu Uu Uu Uu  
И И И И И И И И И И  
и и и и и и и и и и

**„О’о“ ҳарфи.** Бу ҳарф лаблашган, тил орқа, ўрта-кенг унли товушни ифодалайди. Кирилл алифбосида „ў“ кўришинида оли. Унинг янги алифбомиздаги шакли „о“ ҳарфи кўринишига эга бўлиб унинг юқори ўнг томонига ўтиш белгиси тескари ҳолатдаги вергул (‘) шаклида қўйилади. Бу ҳарфнинг катта ва кичик шакллари худди „о“ ҳарфи сингари туташтирилайди. Ёзма шакли устига чизиқча қўйилиши билан „о“ ҳарфидан фарқ қиласди.

О’о’ О’о’ О’о’ О’о’ О’о’ О’о’ О’о’ О’о’ О’о’  
о’ о’

**„И“ ҳарфи.** Бу ҳарф тил олди, лаблашмаган, тор унли товушни ифодалаш учун хизмат қиласди. Бу ҳарф кирилл алифбосида „и“ шаклида берилган. Шакл жиҳатдан кирилл алифбосидаги ҳарфларга ўхшамайди. Янги алифбога кўра, унинг катта шакли ҳам, кичик шакли ҳам пастки тугалланиш қисмидан туташтирилади.

И’и’ И’и’ И’и’ И’и’ И’и’ И’и’ И’и’ И’и’ И’и’  
и’ и’

**„Ее“ ҳарфи.** Бу ҳарф тил олди, лаблашмаган, ўрта-кенг унли товушни ифодалайди. Кирилл алифбосида [й+э] товуш биримасини ифодаловчи „е“ ҳарфи билан шаклдош бўлиб, тилаффуз жиҳатидан эса фарқ қиласди. Кирилл алифбосидаги „ё“ ҳарфининг вазифасини бажаради. Бу ҳарфнинг каттаси ҳам, кичиги ҳам пастки тугаш қисмидан туташтирилади.

Ее’  
е’ е’

**Топшириқ.** Янги алифбодаги унли товушларни ифодаловчи ҳарфларнинг босма, ёзма шаклида катта ва кичик кўринишларини дафтарингизга бир неча қатор қилиб ёзинг. Катта ва кичик унли ҳарфларнинг туташтирилувчи қисмларига ўтиббор беринг. Унли ҳарфларни ўзаро туташтириб ёзишини машқ қилинг.

## 5- МАШФУЛОТ

### Вв [вэ], Нн[ен] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Вв“ ҳарфи. Бу ҳарф лаб-лаб, портловчى, жарангли ундош товушни ифодалаش учун хизмат қилади. Унинг катта босма ва ёзма шакллари кирилл алифбосидаги в ундош ҳарфига ўхшаши. Унинг катта шакли пастки қисмидан, кичиги эса ўрта қисмидан туташтирилади. Сўз охирида келгандан талаффузда жаранглизаниш хусусиятига эга.

Bb Bb Bb Bb Bb Bb Bb Bb Bb  
В В В В В В В В В В  
ғ ғ ғ ғ ғ ғ ғ ғ ғ ғ

**Топширик.** 1. „В“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини ёзиб машқ қилинг.

2. Қўйида берилган сўзларни ҳарфларнинг туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтaringизга кўчириб ёзинг.

*Bob, bobo, bu, bibi, ibo, u-bu, obbo, abo, Bu bobo.*

„Нн“ ҳарфи. Бу ҳарфнинг кичик шакли кирилл алифбосидаги „п“ ҳарфининг кичик ёзма шаклига ўхшайди. У тил олди, портловчى, бурун, жарангли ундош товушни ифодалаш учун хизмат қилади. Бу ҳарфнинг ҳар иккала — катта ва кичик шакли ҳам пастдан туташтирилади.

Nn Nn Nn Nn Nn Nn Nn Nn  
Н Н Н Н Н Н Н Н Н Н  
n n n n n n n n n n

**Топширик.** 1. „Н“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини ёзиб машқ қилинг.

2. Қўйида берилган сўзлар, сўз биримлари ва гапларни ҳарфларнинг туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтaringизга кўчириб ёзинг.

*Ona, non, ana, boni, nina, in, un, o'n, en, bino, ena, ini, obina, unab, b'non, ana fu, noib, nabi, ton, obinon, neon,*

*banan, bein, beon, innana, nin, babuin, ne-ne, Bonn, Anna, Nonna, ana un, ana bini, bu obinonni; Ona ana. Ana Boni. Ana u bobo. Ana u nina, Ana Onabibi. Ana bino. Ana u unabi. Ana bu banan. Bu Nabl.*

3. Юқорида берилган сўзлар иштирокида оғзаки гаплар туниш.

## 6- МАШФУЛОТ

### Dd[de], Ll[eI] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Dd“ ҳарфи. Бу ҳарфнинг босма шакли кирилл алиф-босидаги ҳарфларга ўхшамайди. Катта ёзма шакли ҳар икки алифбода бир-бирига ўхшаёт. Бу ҳарф тил олди, портловчи, жараптли ундош товушни ифодалайди. Унинг ҳар иккала — катта ва кичик ёзма шакллари пастки қисмидан туташтирилади.

Dd  
D D D D D D D D D D D D  
d d d d d d d d d d d

**Топшириқ.** 1. „D“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини алоҳида ҳолда ҳамда унли ҳарфлар билан туташтирилган ҳолда ёзиб машқ қилинг.

2. Қуйида берилган сўз ва гапларни дафтарингизга ҳарфларнинг туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда кўчириб ёзинг.

*Adab, odob, adad, adib, adiba, adi-badi, adibona, ado, anda, andi, andin, anod, badan, badbin, band, banda, bandi, bandibon, beadab, beadad, beda, bedin, bedana, bedon, bedod, boadab, bidi-bidi, bobida, bad, bod, boda, bodi, bud, budda, dabdaba, dada, dedi-dedi, did, dod, don, dona, don-dun, dono, dud, duo, idda, idao, inda, indin, unda, nido, nodon, obdan, obid, obida, obod, obodon, odina, ud, udda, undan-bundan, badia, do‘non, endi, abad, Abdunabi, Doni. Bu do‘non. Adiba dada dedi. Bu Badibibi edi. Ana u bedana. Bu bino band.*

3. Янги сўзлар топинг ва улар иштирокида оғзаки гаплар туниш.

„L“ ҳарфи. Бу ҳарфнинг на босма, на ёзма шаклига ўхшаш ҳарф кирилл алифбосида йўқ. У тил олди, сиргагувчи, жарангли ундош товушни ифодалайди. Катта ва кичик шакллари пастки тугалланма қисмидан туташтирилади.

L L L L L L L L L L L L  
L L L L L L L L L L L L  
l l l l l l l l l l l l

**Топшириқ.** 1. „L“ ҳарфининг босма, ёзма ва кичик шаклларини алоҳида ҳамда сўзлар таркибида тӯғри ёзишни машқ қилинг.

2. Қуйида берилган сўз ва гапларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Adabli, adl, alban, alda, aldan, alla, badal, baland, balli, balo, bel, bilan, bil, bol, bo'l, ball, ballada, bola, bo'la, dabdala, dala, dalda, dadil, dalla, dallol, dilband, dolon, duldu, do'l, do'lana, il, ilon, lab, labolab, lol, lola, lo'la, lo'li, lo'nda, noil, nola, nolegal, nolon, nol, odil, odilona, ola, ola-bula, oldin, onali, el, ela, elan, enli, ula, ulan, o'lan, , bulbul, dil, ol, old, unli, andalib, oila, illo-billo, Abdol, Abduali, Abdulla, Ali, Nabibulla, Badalbibi, Bibidono, London, Bilol.*

*Bola lolani oldi. Bu bino baland. Ali, dadil bo'l. Odil o'n ball oldi. Bola allani biladi. Ilon inida bo'ladi. Bu bino oldin baland edi. Abdulla dono bola. Bedana donladi. Ali, nondan ol. Lo'li bolani aldadi. Ilon ini dabdala bo'ldi. Noila ona bo'ldi, Abdunabi dada bo'ldi. Bibidono Londonda bo'ldi. Abdulla bobo balli, dedi. Odina Noiladan do'lana oldi. Bilol oilali bo'ldi. Adiba, unni ela.*

3. Янги сўзлар топинг ва улар иштирокида мустақил гаплар тузинг.

## 7- МАШФУЛОТ

### Кк|ка], Мм|ем] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Kk“ ҳарфи. Бу ҳарф икки алифбода ҳам бир-бирига ўхшаш. Фақаттана кичик шакли босма ва ёзма ҳолда озгина фарқли, холос. Бу ҳарф яқин тил орқа, портловчи, жарангсиз

ундош товушни ифодалаш учун хизмат қиласи. Катта ва кичик шакллари настки тугалланиш қисмидан кейинги ҳарфларга туаштирилади.

Кк Кк Кк Кк Кк Кк Кк Кк  
Қ Қ Қ Қ Қ Қ Қ Қ Қ  
қ қ қ қ қ қ қ қ қ

**Топшириқ.** 1. „К“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шакларини алоҳида ҳамда сўзлар таркибида тўғри туаштириб ёзишни машқ қилинг.

2. Кўйида берилган сўз ва гапларни ҳарфларнинг ўзаро туаштирилиш қoidalарига риоя қилган ҳолда дафтарингизга кўчириб ёзинг.

Aka, aka-uka, alik, balki, bek, beka, bekin, bilak, bolalik, doka, bukuk, bo'nak, bo'k, buk, bo'lak, dakan, dakki, dekan, danak, dik, ek, dukkak, do'kon, ekin, el, elak, ellik, ikki, ikkala, ilk, ilik, kabi, kabob, kakku, kaklik, kalla, kal, kalaka, kallak, kek, keli, kelin, kindik, kinna, kokil, kukun, kul, ko'l, kulba, kulol, kuldon, kun, kunda, ko'k, ko'lanka, ko'lob, ko'n, kin, kon, lekin, lo'kidon, lo'kki, neki, nekbin, nok, obaki, obakidandon, onalik, ukki, ulkan, o'lik, o'lka, andak, kakao.

Odila unni elakda eladi. Adiba kelin bo'ldi. Nabi danakni ekdi. Bolibek alik oldi. Bu aka-uka kulol edi. Bu kulba aka-uka kulolniki. Alibek do'konda bo'ldi. Kakku ukkidan bekindi. Lola Bo'kadan indin keladi. Alibobo obikidandon olib keldi. Obid kundani bo'ldi. Adiba lola ekdi. Donobibi kundalikni oldi. Abdunabi bilan Onabibi Bokuda o'n kun bo'ldi. U do'kondan ikki kilo kakao, ikki dona non oldi.

3. Ўтилган ҳарфлар иштироқида гаплар тузинг.

**„Мм“ ҳарфи.** „М“ ҳарфи лаб-лаб, бурун, сонор, портлович, жарангли ундош товушни ифодалайди. Катта босма ва ёзма шакллари кирилл алифбосидагидек кўринишга эга. Кичик босма ва ёзма шакли кирилл алифбосидаги „т“ ҳарфининг ёзма шаклига ўхшайди. „М“ ҳарфининг катта ва кичик шакли настки тугалланиш қисми орқали кейинги ҳарфга туаштирилади.

Мм Мм Мм Мм Мм Мм Мм Мм  
*М* *М* *М* *М* *М* *М* *М* *М*  
 $m$   $m$   $m$   $m$   $m$   $m$   $m$   $m$

**Топшириқ.** 1. „М“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Қыйда берилган сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда кўчиринг.

*Amaki, amma, alloma, amal, amin, alam, allakim, allanima, bilim, bomdod, bemakon, benom, beomon, bodom, damba, damlam, dumba, demak, dim, dom, dum, dam, domla, dudama, dudmol, dumbul, do'lma, em, elma-el, eman, enma, emi-dimi, imlo, imon, imom, ildam, kamina, kalima, kalom, kalomullo, kam, kamalak, kamon, kamnamo, komil, kema, kim, kimki, kamol, ko'klam, ko'lam, ko'lmak, ko'mak, ko'm-ko'k, lalmi, limon, limmo-lim, lomakon, mabodo, madad, modda, makon, malik, malaka, molik, malika, malla, malol, mammun, mana, manaman, manba, manman, mil, milk, milod, mol, mo'l, men, mola, mol-mulk, monand, mone, muallim, muammo, muddao, mudom, mulk, mulla, tum, tumkin, tuomala, mo'l-ko'l, mo'min, mo'ndi, nam, namakob, namlik, namuna, nom, nima, nimayiki, nomta, nomtanom, odam, odim, odmi, olam, olomon, omini, otma, oton, udum, umid, utton, utitan, undalma, unut.*

3. Қыйидаги гапларни кирилл алифбосидан янги алифбога ўтириб, дафтариңизга кўчириб ёзинг.


Амаким даладан аллаким билан келди. Конибодомда олма, нок, бодом мўл бўлади. Дуккакли экин кўкламда экиласди. Олим одам оламни мукаммал билади. Малика Комиладан мамнун бўлди. Абдуманон бу муаммони билмади. Мўмин одам имонли, муомалали бўлади. Лондондан икки муаллим келди. Бу мол-мулк кимники? Мен икки кун дам олдим. Бола муаллимдан доимо мадад олади. Лалми дала кўкламда кўм-кўк бўлади. Бу моддадан мум олинади. Камолиддин бол билан лиммо-лим мўндини олиб келди. Бу одам бемалол намуна бўла олади. Камола Мўмин бобо билан келади. Дамиш доим „икки“ олади. Мадамин бу далани молалади. Омон мабодо Бобобекни алдамадими?

4. Ўтилган ҳарфлар иштироқида янги сўзлар топинг ва гаплар тузинг.

## 8- МАШФУЛОТ

### Gg[ge], Rr[re] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Gg“ ҳарфи. Бу ҳарф яқин тил орқа, портловчи, жарандылди ундош товушни ифодалайди. Бу ҳарфнинг босма шакли қирилл алифбосидаги ҳарфларга ўхшамайди, ёзма шакти оса кичик „д“ ҳарфига ўхшашидир. Ҳар иккала — катта ва кичик шакллари кейинги ҳарфга ўрта қисмидан туташтирилади.



**Топшириқ.** 1. „G“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини ёзиб машқ қилинг.

2. Кўйида берилган сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиши қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтaringизга кўчириб ёзинг.

Gul, go'l, gal, gala, gil, badgumon, begona, begumon, belgi, biolog, bugun, dugona, ega, egik, egalik, gado, gilam, gimn, gina, gulband, gulob, gulobi, gum, gumdon, gument, go'dak, ignaband, igna, ilgak, kelgindi, kulgi, lagan, mangu, nega, agama, begonalik, biogen, biologik, bugungidek, gadolik, galma-gal, gamak, genial, angina, geolog, gulbon, gulgur, guldon, gulli, gumenta, gunogun, magma, go'mma, dogma, Namangan, Gulandom, Gulbadanbegim, Gullola, Gulbodom.

3. Гапларни янги алифбога ўгириб кўчиринг.

Умида билан Гулбодом олдиндан дугона эди. Малика Гулбондан бугунгидек мамнун бўлмаган эди. Амаким билан дадам Намангандан бугун келади. Бугун бу икки аллома кимлигини билдиқ. Унинг комил одам эканлигига аминман. Унинг бегоналиги бугун билиндими? Бу билими билан улкан олим очсанлиги сумон, ўлкам, мангу обод бўл! Гуландом бу гулни кўклам келеандо дўкони олдига экади. Бўладиган бола ўздақлидан билинади. Намангандан гулга кон ўлка. Бу далага пок билан олма экдик.

„Rr“ ҳарфи. Бу ҳарф тил олди, титроқ, жарангли ундош товушни ифодалаш учун хизмат қиласи. Унинг ёзма шакли кирилл алифбосидаги я ҳарфининг тескари кўринишига ва ч ҳарфининг кичик ёзма шаклларига ўшайди. Каттаси ҳам, кичиги ҳам пастки тугалланиш қисмидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Rr									
҆	҆	҆	҆	҆	҆	҆	҆	҆	҆
ʐ	ʐ	ʐ	ʐ	ʐ	ʐ	ʐ	ʐ	ʐ	ʐ

**Топшириқ.** 1. „R“ ҳарфининг катта, кичик, босма ва ёзма шаклларини ёзишни машқ қилинг.

2. Қийида берилган сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Adir, amr, amir, anbar, anor, arbob, ari, ark, armon, arra, badkor, baobro', baraka, barala, barbod, bardam, barg, bargak, barno, barkamol, barra, beburd, bedarak, bedor, bekor, belkurak, bemor, berk, billur, birlik, biror, burgan, bo'r, bo'ri, bo'ron, bo'rikalla, darbadar, darmon, daromad, doira, durbin, durra, erk, erkin, ermak, idora, idrok, ilgari, irim, iroda, karam, karkidon, kekirdak, kurak, kibr, kirdikor, kerak, kurka, kurmak, ko'krak, ko'knor, ko'rak, ko'rkam, mard, mardikor, marmar, mirob, muborak, mudir, mukarram, murabbo, murod, mo'ri, nonko'rlik, nordon, norin, nur, obro', or, orol, orom, rad, randa, rubob, ro'mol, umr, umrbod, o'r, ur, er, o'ra, o'ram, o'rda, o'dak, o'rik, o'tin, o'mon, o'mak, ko'mir.*

3. Қийидаги гапларни янги алифбога ўгириб кўчиринг.

*Дурадгор буларни арралаб, ранда билан оро берди. Идора олдидаги бодом, ўрик, нок, олма, анорлар гуллади. Бугун Ирода билан Мукаррама Нурободга боради. Бу обод ўлкага кўркам, баланд бинолар керак. Бу дўконлар нега берк? Эркин ака болаларини кулдирди. Олдинда кўм-кўк кўл билан биринкан орол кўринди. Оролдаги мармар кони бинокорларга бир умрлик даромад манбаи бўлади. Малика Комилага кўк гулли рўмолини берди. Бу гўдаклар икки дугонага эрмак бўлди. Анор олмадан кура пордон бўлади. Мадиналарникуига бобом билан бирга бордик. Украинада улкан кўмир конлари бор. Гулнора билан Дурдана гулларни оралаб борди. Акрамнинг мураббо билан нон олиб келгани болаларга мадад бўлди.*

4. Янги сўзлар иштирокида гаплар тузинг.

## 9- МАШФУЛОТ

### И[ағ], Ss[es] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„F“ ҳарфи. Бу ҳарф лаб-тиш, сирғалувчи, жарангсиз ундош товушини ёзувда ифодалаш учун кўлланилиб, бошқа тиллардан ўлашган сўзларда учрайди. Шунинг учун ҳам оғизи нутқда бу товуш **и** ундошига мойил талаффуз этилади. Катта босма ва ёзма шакллари кирилл алифбосидаги „F“ ҳарфиги ўхшашиб бўлса-да, кичиги фарқ қиласди. Катта шакли пастки қисмидан, кичик шакли эса ўрта қисмидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Ff  
*F F F F F F F F F F F F*  
f f f f f f f f f f f f

**Топширик.** 1. „F“ ҳарфининг катта, кичик босма ва ёзма шаклларини чиройли ёзишни ўрганинг.

2. Кўйида берилган сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Asandi, farmon, amr-u farmon, dafina, dafn, falak, falon, san, sol, folbin, fido, fidokorona, fikr, fil, firib, faol, ifoda, kafan, kasangado, kafil, kufr, kofir, mafkura, naf, nafar, ofarim, maorif, urf, dorilfunun, faner, fabrika, bufer, kofe, kafe, kefir, arfa, alfa, sonar, kafel, kafedra, grif, graf, galife, formula, folklor, ferma, filolog, film, feodal, fon, final, fond, furgon, forma, formal, formalin.*

3. Гапларни ифодали ўқинг ва кўчириб ёзинг.

*Dildora bilan Nigina Faridani ko'rgani fabrikaga boradi. Men bu alifboga doir manbalarni o'rgandim. Odobli bola doim o'rnak bo'ladi. Bu kabi farmonlar bilan o'lkalar obod bo'lur. Ikrom bilan Nodir dorilfununga boradigan bo'ldi. Ukam bu alifboni o'n kunda o'rganib oldi. Bugun bu filmni o'n ikki ming nafar odam ko'rdi. Bu formulaga binoan olimlar olamni mukammal o'rganadilar. Farmonbibi bu gal fikrini bildirmadi.*

4. Янги сўзлар топинг ва улар иштирокида гаплар тузинг.

„Ss“ ундош ҳарфи. Бу ҳарф тил олди, сиргалувчи, жарангсиз ундош товушни ифодалайди. У кирилл алиф-босидаги ҳарфларга мутлақо ўхшамайди. Ҳар иккала — катта ва кичик шакллари пастки қисмидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Ss  
ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ  
ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ ſ

**Топширик.** 1. „S“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини ёзиб ўрганинг, сўзлар таркибида ҳарфлар билан туташтириб ёзишни машқ қилинг.

2. Қўйида берилган сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтaringизга кўчириб ёзинг.

*Assalom, afsona, afsus, aks, asab, asal, asalari, asar, asbob, uskuna, asil, asl, aslo, asos, asir, asrandi, asror, basir, bois, eski, eson, falsafa, fasl, fasod, fason, globus, iblis, gulduros, gulkosa, iflos, iskana, islom, ism, isnod, isrof, kasb, inson, kasal, kasod, kasr, keksa, kelgusi, kosa, kursi, ko'sa, las, madrasa, mansab, mansub, masal, masala, masalan, maskan, maslak, masofa, masrur, miskin, misol, misra, moslama, muassasa, mufassal, musallas, musodara, musofir, musulmon, nafas, nafis, nafs, nasiba, nasim, nasl, nasr, nokas, nosir, osmon, oson, osuda, rais, rassom, rasm-rusum, rosa, sabab, sabo, sabil, sadaf, sado, safar, saf, samo, sakson, salla, saman, samara, sandal, sana, sandon, sara, carbon, sardor, sarob, sarosima, sel, sergak, serka, serob, sirka, sodda, sof, sofdil, sokin, somon, somsa, sulola, sumak, sumalak, sunbul, sunbula, sura, surgun, surur, so'fi, so'gal, so'lak, so'lim, so'm, so'na, so'ri, ulus, unsur, uslub, o'simlik, o'sma, o'smir, askar, bo'sa.*

3. Гапларни ифодали ўқинг ва кўчириб ёзинг.

*Afandi kirib kelgan askarlarga salom berdi. Ko'rınmas odam — bu bir afsona. Akamning kelmaganiga birdan afsuslandim. Boburning „Boburnoma“sini bilmagan boror kimsa bormikan? Bolalar, nonni asrang, u bekorga isrof bo'lmasin! Serka birdan sergaklanib sekingina sakradi. Asror so'rini osongina surib, kosalarни olib berdi. Lo'li folbin Aldarko'sani kuf-suf bilan bari bir aldadi. Asalari boli bilan minglab insonlarni kasalliklardan asrab keladi. Akmal*

*Islomobodga ikki bor borib keldi. Salima mollarga somon bilan siloq berdi. Senga berilgan masala oson ekan. Musofir bo'lmasdan musulmon bo'lmash. Olim bo'lsang, olam seniki. Abu Ali ibn Sino o'nlab madrasalarda ilm o'rgangan. Islom dini insonlarni ilm-u imonga undar. Nasriddin afandi bir umr odamlarni kuldirib kelgan.*

4. Ўтилган **а**, **о**, **у**, **о'**, **и**, **е**, **б**, **н**, **д**, **л**, **к**, **м**, **г**, **р**, **ф**, **с** ҳарфлари иштирокида янги сўзлар топинг ва улар иштирокида гаплар тузинг. Масалан: *mis, sim, mos*.

Namuna. *Misdan nodir sim olinadi. Dugonalarning fikrlari birligiga mos keldi.*

## 10- МАШФУЛОТ

### Рр[ре], Тт[те] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Рр“ ҳарфи. „Р“ ҳарфи лаб-лаб, портловчи жарангиз ундош товушни ифодалайди. Бу ҳарф кирилл алифбосидаги „р“ ҳарфига босма ва ёзма шаклда ўхшашиб. Фақат ёзма кичик шаклининг ўзидан кейинги ҳарфга туташтирилувчи қисмида фарқ бор. Катта Р ҳарф шакли пастки қисмидан, кичик шакли эса ўрта қисмидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Pp									
Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р
Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р	Р

**Тошириқ.** 1. „Р“ ҳарфининг катта ва кичик босма ва ёзма шаклларини ёзуб машқ қилинг, ҳарфлар билан ўзаро туташтириб ёзишни ўрганинг.

2. Мазкур машгулотгача ўрганилган **а, о, у, о', и, е, б, н, д, л, к, м, г, р, ф, с** ҳарфларининг катта ва кичик ёзма шаклларини алифбога қарамасдан, тез ёзуб такорланг.

3. Куйидаги сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Alp, barpo, parda, bepara, bepul, dilpora, diplom, do'ppi, erkin, erli, gap, gapdon, gripp, ip, ipak, kapa, kapalak, kapkir, karpon, kapsan, kepak, kupon, ko'p, ko'pdan, ko'pik, ko'ppak, ko'prik, ko'rpalik, ko'rpalik, lapar, lappak, lippa, lupa, lo'ppi, popuk, opa, opa-uka, opera, padar, pakana, pakki, palak, palapon, palid, palla, palma, polos, pona, pand, papka, par, parafin, pari, pariro',*

*parma, parrak, parranda, pilik, pilla, pinak, pir, piramida, poda, pisanda, pisand, pirpirak, pok, poki, pokdil, pana, pora, poshon, pud, pufak, pukka, pul, po'kak, po'la, po'panak, po'rim, rapida, sep, sepkil, sop, sergap, sopol, supa, supurgi, supurindi, upa-elik, o'rka.*

4. Қўйида берилган гапларни янги алифбога ўтириб, дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Парнининг онаси ола сигирга беда солди. Сепкилли бола сергап экан. Аслиддин сопол косани Насибага берди. Асрор косага рассомлардек расм солади. Карима мадраса супасини супурди. Ислом муаллимлик дипломини бугун олади. Сардор бу муассасага кўплаб асбоб-ускуналар олиб келган. Искандар карам капалагининг сир-асрорини билмас экан. Осмонда эгри кўпrik мисоли камалак кўринди. Асабларни асранг, одамлар! Умидা молларига бир лаган кепак берди. Фил мингандар сарбонни саросима босадими? Бу асар муаллифи бугун дорилфунунга келади. Саман мингандар Насриддин афандига Алдаркўса салом берди. Исомиддин акага бу гап малол келди. Кўм-кўк беда орасида икки нафар каклик кўринди. Эркин дўпписини акасига берди. Болалар биргаликда кинога бордилар.*

**„Tt“ ҳарфи.** „T“ ҳарфи тил олди, портловчи, жарангсиз ундош товушни ифодалаш учун хизмат қиласи. Босма катта шакли кирилл алифбосидаги т ҳарфидан фарқ қилмайди. Ёзма катта шакли кирилл алифбосидаги г ҳарфининг катта ёзма шаклига ўхшайди. Кичик шакллари ўзига хос кўринишга эга бўлиб, ўхшаши йўқ. Катта ва кичик шакллари пастки қисмидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Tt  
Тт  
t t t t t t t t t t t

**Топширик.** 1. „T“ ҳарфининг катта, кичик босма ва ёзма кўринишларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Қўйидаги сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтарингизга кўчиринг.

*Ota, asta, astar, atala, atigi, atir, atirgul, atir-upa, atlas, atrof, attor, batafsil, batamom, batartib, battar, battol, bekat, betaraf,*

*bettixol, bettim, betob, blsot, bit, bitik, bitim, bitta, bolta, botir, bulut, buia, bukul, bo'ta, bo'tana, daftar, dasta, dastlab, dastur, elat, eria, ertak, fitr, futur, istara, it, et, etak, etik, fitna, istak, istibdod, istisno, itburun, ltoat, kalta, kaltabin, kaltak, katak, katta, kemitk, kast, kift, kurtak, latofat, lutf, maftun, malomat, marta, manfaat.*

### 3. Куйидаги сүзларни янги алифбога үгериб күчиринг.

*Martaba, mast, matlab, matin, mato, matonam, millat, mitta, minnat, mitti, motam, mubtalo, muddat, mufti, mutse, muttolaa, myrt, muttasil, notob, nusrat, omonat, ostona, otalik, otar, otim, patak, patir, patnis, patta, pista, pustak, pylat, satin, sabr, sirt, sitam, sirtlon, sum, sus, tabarruk, basnakor, tabassum, taassuf, tabiat, tabrik, tadbir, taka, takalluf, taklif, takror, talaba, tamaki, tanbur, tarona, tekin, tekue, temtak, tilla, oltin, taom, til, uthin, uthkip, tutuui, tyn, tuy, ton, tyn, tan.*

### 4. Куйидаги гапларни дафтaringизга күчириб ёзинг.

*Tantanalar tugagandan so'ng tilla patnislarda taomlar tortildi. Otam ko'p ertaklar bilar edi. Tepalik pastidagi pista, bodom, do'lana, itburunlar rosa gullagan edi. Maftuna bu nafis ipak matodan o'n metr sotib oldi. Ko'klamda butun tabiat ko'rkan bo'ladi. Latofat stol ustidagi bir dasta daftarni Matlubaga ko'rsatdi. Bulutlar asta-sekin pastlab, oftobni butkul to'sdi. Amir Temur adolatli sulton, matonatl sarkarda edi. Past tomlardagi mo'rillardan tutun buralib ko'kka o'rmalardi. Po'lat tulking terisidan telpak tikirdi. Lolaning akasi kapitan bo'ldi. Kalta dastali bolta bilan to'nkani kesib bo'ladi? Oltin olma, duo ol, duo oltin emassi? Turrob akaga Peterburgdan telegramma keldi. Urgutda asosan tamaki ekiladi. Nusrat ammasini ko'rgani Nurato tumaniga ketdi. Oltin o'tda bilinadi. Inson olam sirlarini tafakkur bilan o'rganadi. Kanop tolasidan sanoatbop ip olinadi. Kitob asrlardan beri bilim manbai bo'lib kelgan. Kit bolasi sut emib katta bo'ladi. Bo'ladiqan el bolasini botirim der.*

### 5. Яшни сўзлар топинг ва улар иштирокида мустақил ташлар туништ.

## 11- МАШФУЛОТ

### Нһ[he], Jj[je] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Нһ“ ҳарфи. Бу ҳарф бўғиз, сиргалувчи, жарангсиз ундош товушни ёзувда ифодалайди. Бундай товушли сўзлар асосан араб, форс-тожик тилларидан ўзлашганлиги туфайли [хе] ва [хе] товушларини фарқламасдан қўллаш ҳоллари нутқимизда кўплаб учраб туради. Бизнингча, лотин ёзуви асосидаги алифбога ўтилгач, бу икки ҳарф орасидаги шаклий ўхашалик йўқолади ҳамда уларни алмаштириш барҳам топади. „Н“ ҳарфининг катта босма ва ёзма шакллари кирилл алифбосидаги „н“ ҳарфига ўхшайди. Кичик шакллари эса фарқ қиласди. Ёзма катта ва кичик шакллари пастки тугалланма қисмидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Hh Hh Hh Hh Hh Hh Hh Hh Hh  
Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ Ҳ  
h h h h h h h h h h

**Топшириқ.** 1. „Н“ ҳарфининг катта, кичик босма ва ёзма шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Алифбога қарамасдан ўтилган барча ҳарфларнинг катта ва кичик ёзма шаклларини тез ёзиб такрорланг.

3. Қуйидаги сўзларни янги алифбога ўгириб кўчиринг.

Аҳбоб, аҳд, аҳил, аҳил, аҳоли, андуҳ, баҳо, баҳодир, баҳона, баҳор, баҳр, баҳра, баҳри дил, баҳс, беҳад, беҳис, беҳол, беҳуда, беҳурмат, бемаҳал, даҳо, эҳром, эҳсон, эҳтимол, эҳтиром, эҳтирос, фаҳм, гумроҳ, гуноҳ, гуруҳ, ҳабиб, ҳадик, ҳадис, ҳафсала, ҳафта, ҳакам, ҳал, ҳакалак, ҳаким, ҳакка, ҳалак, ҳали, ҳалим, ҳалитдан, ҳалок, ҳалол, ҳам, ҳамд, ҳамдам, ҳамдард, ҳамфикр, ҳамгап, ҳамкор, ҳамла, ҳамма, ҳаммол, ҳаммом, ҳамнафас, ҳамон, ҳамроҳ, андалак, ҳандаса, ҳаракат, ҳарам, ҳарф, ҳарир, ҳарна, ҳаром, ҳарорат, ҳасад, ҳасанот, ҳасрат, ҳасса, ҳассос, ҳатто, ҳид, ҳилол, ҳиммат, ҳирс, ҳисоб, ҳисобот, ҳодиса, ҳоким, ҳомила, ҳосил.

4. Қуйидаги сўзларни тўғри ва тез ўқиб кўринг.

*Hudud, hukm, hukmdor, hukmron, hukumat, humo, hulkar, hunarmand, hurfikr, hurmat, husn, ihota, ilhom, imtihon, istihola,*

*tistrohat, ko'hlilik, ko'hna, lahad, lahim, lahm, maddoh, madh, mahalla, mahbub, mahbus, mahkam, mahkama, mahkum, mahmadona, mahol, mahorat, mahr, mahram, mahrum, mahsi, mahsulot, malham, marhabo, marhamat, marhum, mehmon, mehr, mehnat, mehribon, mehrob, muhabbat, muhandis, muharrir, muharram, muhim, muhit, muhlat, muhokama, muhr, muhtaram, nahr, nahs, nahor, nihon, nihol, ohak, ohista, ohu, olloh, pinhon, rahmat, rahmdil, rahnamo, rohat, sahar, sahifa, sahna, sahoba, sahro, sehr, sihat, sohil, suhbat, tahlil, tahorat, tahsil, tuhfa, tuhmat, maslahat, nasihat.*

### 5. Күйидаги гапларни дафтaringизга күчириб ёзинг.

*Mehnat bilan topilgan daromad ona sutidek halol bo'ladi. Hakim bobo hassasini bolalarga berib, ohista so'riga ko'tarildi. Harir pardalardan pastdag'i hamma narsa bemalol ko'rinish turar edi. Habibullo bugun ona tilidan „to'rt“ baho oldi. Nodirabegim asarlarida katta hassoslik, o'tkir falsafa, ulkan ehtiros hamda muhabbat ahliga hamdardlik bor. Hamma rahbarlar, hokimlar el oldida hisobot beradi. Kimning hunari bor bo'lsa, doim el hurmatida bo'ladi. Bahodir akasiga hadislar to'plamini tuhfa etdi. Abu Ali ibn Sinodek tabiblari bo'lgan mamlakatni butun olam tan oladi. Husn bir kunga kerak bo'lsa, muhabbat bir umr kerak bo'ladi. Mahkam aka rus, ukrain, nemis, ispan, portugal tillarini bilar edi. Matematika fakulteti talabalariga ertaga pedagogikadan imtihon bo'ladi. Mahallada bo'ladiqan bu tadbirga ko'p odam taklif etildi.*

*Mehnat bilan bir burda non topgan har odam,*

*El-ulusning hurmatida bo'ladi mudom.*

**„Jj“ ҳарфи.** Бу ҳарф тилимизда мавжуд бўлган икки ундош товушни ёзувода ифодалаш учун хизмат қиласи. Улардан бири — араб, форс-тожик, рус тилларидан ўзлашган сўзларда учрайдиган тил олди, сирфалувчи, жарангли ундош товуш бўлса, иккинчиси, тил олди, қоришиқ, портловчи, жарангли ундош товушдир. Кирилл алифбосида бу ҳарфга ўхшashi йўқ. Катта ва кичик шакллари ўрта қисмидан кейинги ҳарфга туаштирилади.

Jj Jj

Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж Ж

ЈЈ ЈЈ

**Топшириқ.** 1. „J“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Күйидаги сұзларни янги алифбога ўтириб күчиринг, талаффузига әътибор беринг.

Ажаб, ажал, аждар, аждаргул, аждод, ажин, анжир, анжом, анжуман, бажону дил, бежириим, бежо, бемалол, дажджол, фалаже, фожиа, гажак, гажир, ганж, ҳамжинс, ҳижко, ҳижрат, ҳижрон, ҳужжат, ҳужра, ҳужум, ҳожи, ижара, ижобат, иксод, ижро, илтижко, инжил, инжу, жабха, жабр, жадал, жадид, жафо, жаҳд, жаҳл, жаҳолат, жаҳон, жаҗәжи, жала, жаллоб, жаллод, жамалак, жамоа, жамол, жанда, жанжал, жаннат, жарима, жароҳат, жарроҳ, жасад, жасорат, жасур, жигар, жилд, жимжит, жин, жинс, жисп, жирафа, жоду, жодугар, жоҳил, жонажон, жонона, жосус, жудо, жуфт, жуфтак, жума, жулдур, жўра, келажак, ланж, илож, мажбур, мажхул, мажлис, мажмуа, мажнун, мажнунтол, мажол, мажруҳ, музғон, музассам, музеда, музмал, мўлжал, најсот, пажмурда, ражаб, ранж, режа, сажда, соҳибжамол, таажжуб, тажриба, таржима, ўжар, ўлжа, мунахжисим, таржимон.

3. Күйида берилган гапларни дафтариңизга күчириб ёзинг.

*Dorilfununda talabalar anjumani bo 'lib o 'tdi. Usmon Nosir mohir tarjimon edi. Jahon tillari dorilfununida tajribali domlalar dars beradi. Majnuntol-u teraklar ekilgan anhor ortidan baland minoralar ko 'rindi. Eski tegirmon ham bugunga kelib odamlar joniga oro kirdi. Ijara pulini to 'lamagan muassasalarga katta hajmda jarima solinadi. Do 'kondan anjir murabbo sotib oldik. Bir pasda stol usti jigar kabob, jo 'ja kabob, tandir kaboblarga to 'lib ketdi. Kim nafsga bek bo 'Isa, joni rohatda bo 'ladi. Jahongir Namangan dorilfununi talabalari anjumanidan taklifnomat oldi. Jasur bilan Bahodir janub tomonni mo 'jallab jo 'nadi.*

4. „J“ ҳарфи мавжуд сұзлар иштирокида мустақил гаплар тузинг.

## 12- МАШФУЛОТ

### Qq[qa], Xx[xa] ҮНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

**„Qq“ ҳарфи.** Бу ҳарф чуқур тил орқа, портловчи, жарангсиз ундош товушни ифодалайди. Катта босма ва ёзма шакли кирил ва янги алифбодаги „o“ ҳарфига ўхшаса-да,

настки қисмидаги илмоғи билан фарқ қилади. Катта шакли настки қисмидаги илмоғи орқали, кичик шакли эса ўрта қисмидан кеййинги ҳарфга туташтирилади.

Qq  
Q Q Q Q Q Q Q Q Q Q Q  
q q q q q q q q q q q

**Топшириқ.** 1. „Q“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Олдинги дарсларда ўрганилган ҳарфларнинг катта ва кичик ёзма шаклларини тез ёзиб тақрорланг.

3. Қуидаги сўзларни кирилл алифбосидан янги алифбога ўгириб кўчиринг.

*Akel, aқida, aрақ, ариқ, арқон, балиқ, бақа, бақироқ, бақлајсон, баққол, барқарор, бефарқ, биқин, битбилдиқ, бодроқ, болдоқ, боқиманда, бармоқ, бироқ, булоқ, буқа, буқоқ, бутоқ, бўлиқ, дақиқа, дехқон, диққат, дўқ, фарқ, фироқ, фирмқа, фақат, фосиқ, фурқат, фуқаро, ҳақ-ҳуқуқ, ҳақиқат, ҳақорат, ҳурлиқо, илҳақ, илмоқ, илиқ, илонбалиқ, иноқ, инқилоб, интиқом, иқбол, иқлим, иқрор, иқтидор, иқтисод, истиқол, истиқбол, исмалоқ, иссиқ, истиқомат, итбалиқ, лақаб, лақма, лаққа, лоақал, мақбара, мақол, мақола, мақсад, муқаддима, муқаррар, нақорат, ниқоб, ноқобил, нотиқ, оқ, оқибат, оқим, оқнадар, оқсил, оқсоқол, қабила, қабр, қадаҳ, қадам, қафас, қалам, қалампир, қалбаки, қалпоқ, қалқон, қамал, қандил, қанор, қармоқ, қасам, қасос, қассоб, қатлама, қилтириқ, қиммат, қисмат, қитмир, қобон, қонун, қонқоқ, қора, қудрат, қулф, қум, қурт, қурбақа, қўмита, қўриқ, қўрқоқ, рақиб, раққоса, сариқ, синиқ, тариқ, тақа, тақиқ, тиниқ, томоқ, уқ, ўқ, оқ, ўқимоқ, қул, қўл.*

4. Қуида берилган гапларни дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Aqlni ahmoqdan o'rgan, degan maqol bor. Dehqonlar mehnatidan faqat odamlar emas, balki tabiatdagи qurt-u qumursqalar, parranda-darrandalar ham to'q bo'ladi. Haqiqat egilar, ammo sinmas. Qambarali bilan Abduqodir ko'ldan baliq tutgani ketdi. Samarqandda baqqollik do'konlari ko'p. Amir Temur maqbarasi Samarqanddagi eng mahobatli binolardandir. Jahongir*

*va Bahodir Hulkarga ertaklar o'qib beradi. Mahalla oqsoqollari bu haqda tuman hokimiga murojaat qildilar. Billur qandillarni qalbaki hujjatlar bilan olgan qalloblar qo'lga olindi. Qurbon qassob jigarni qimmat sotadi. Qonun oldida hamma barobar. Namangan atrofidagi adirlardan ko'plab neft buloqlari topildi. Furqat asarlari jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilingan. Hovlini ismaloq somsaning hidi tutib ketdi. Sodiq musiqa fakultetining sirtqi bo'limini tugatgan. Dalalarни oppoq qor qopladi. Ertalabdan beri qarmoq bilan to'rtta laqqa tutdik. O'qigan odam oq-qoraning farqiga boradi.*

5. „Q“ ҳарфи мавжуд сўзлар иштирокида мустақил гаплар тузинг.

Masalan: *qalam, taqa, qafas. Namuna: Qalam ijodkoring qadrdon do 'sti. Taqa faqat otga qoqiladimi? Qalbni qafasda saqlab bo'ladimi?*

„Xx“ ҳарфи. Бу ҳарф чуқур тил орқа, сиргалувчи, жарангиз ундош товушни ифодалайди. „X“ ҳарфи кирилл ва лотин ёзувига асосланган алифболарда бир хил шаклга эга. Катта ва кичик шакллари пастки туталланиш қисми орқали ўзидан кейинги ҳарфга туташтирилади.

Xx  
 X X X X X X X X X X X X  
 x x x x x x x x x x x

**Топширик.** 1. „X“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик қўринишларини тўғри ва чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Куйидаги сўзларни янги алифбога ўтириб ёзинг.

*Aхир, ахлоқ, ахборот, бахил, бахмал, бахт, бехабар, дарахт, фахр, ихлос, ихтилоф, махлуқ, махсус, мих, охир, охур, пахса, пахта, пухта, рухсат, рухсор, сих, сохта, тахир, тахмин, тахта, тухум, хабар, хафа, хирмон, хислат, ходим, хотанда, хотима, хотин, хотира, худо, хулоса, хунук, хуржун, хурма, хурмо, хуррак, хурсанд, хусумат, хўжса, хўжалик, хуранди, хўтиқ, хариқ, харидор, харита, хароба, хартум, хас, хасис, хиста, хат, хатар, хилма-хил, хина, хира, хони, хола, хонатни, хоним, хотихта, хориж, хотиржам, худбин, худди, хуллас, хуррам, таҳт, дорихона.*

3. Нұқтадар үрнігі „h“ ёки „x“ ҳарфларидан мосини күчирип.

A...lat, a...tarmoq, an...or, alo...ida, a...moq, ba...ona, ba...amfi...at, ba...s, be...i, boj...ona, dil...iroj, dir...am, be...uda, duo...on, de...qon, e...tiros, e...son, fat..., fa...r, foti...a, fotomu...bir, go...ta, gumro..., guru..., go'la..., ...adik, ...ammom, ...arakat, ...asad, ...ximat, dori...ona, ...usni...at, i...ota, i...tisoslik, ja...on, ma...st, mas...ara, mad..., malo...at, ma...luq, me...nat, no'...at, o...u, o...brat.

4. Күйіда берилған тапларни дафтариңизга күчириб өзинг.

*Muallim bolalarga axloq-odob haqida gapirdi. Abduxoliq, kundalik axborotlardan bexabar qolmang. Hamma daraxtlarning barglari to'kilib bo'ldi. Dehqonlar paxtadan har galgidek mo'l hosil oldilar. Tuxum eng ko'p oqsil manbayidir. Tilning ham, tarixning ham ijodkori xalqdir. Hunari bor xor bo'lmas. Maslahat bilan qilingan tadbirda xato bo'lmas. Samarcand bilan Buxoroda ko'plab qadimgi obidalar saqlanib qolgan. Fil xartumi bilan, katta-katta daraxtlarni qo'pora oladi. U xilma-xil matolar orasidan bir jo'ra xonatlasni tanladi. Bu tadbirdan xaridorlarning hammasi ham xursand bo'lmadi. Men do'stlarimdan bir dasta xat va taklifnomalar oldim.*



5. Күйидеги сұзларда „x“ ёки „h“ ҳарфининг нотұғри күлланған ҳолатларини анықланғ, тузатыб күчириң.

Xo'randa, xakka, xadik, xo'tik, xalokat, xamon, ho'rak, ho'jalik, hurofot, xandalak, xaqiqat, xarom, homtok, honaqox, homtama, hoin, xarorat, xasad, xijrat, ximmat, xisobot, hontahta, hodimgar, honanda, xukmdor, xuquq, xujra, xudud, xurmoq, xo'plamoq, hoxlamoq, hokisor, hilma-hil, hat-habar, hatar, hamsa, hamir, halta, haloskor, imtixon, taxorat, moxir.

### 13- МАШФУЛОТ

#### Vv[ve] Zz[ze] ҮНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА ҰЛЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ҲАРФЛАР

„Vv“ ҳарфи. Бу ҳарф лаб-лаб, сиргалувчи, жарангли дағын (Үзлашған сұзларда) лаб-тиш, портловчи үндош товушни әзуіда ифодалайды. Лаб-тиш, портловчи [ve] товуши vln, vagon, vino, vaxta, valent каби үзлашма сұзларда учрайди. Бу ҳарфининг катаси пастки қисмидан, кичиги эса юқори

қисми орқали ўзидан кейинги ҳарфга туташтирилади. Шакл жиҳатдан кирилл алифбосидаги ҳарфларга ўхшамайди.

Vv Vv Vv Vv Vv Vv Vv Vv Vv  
Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ  
Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ Ӵ

**Топшириқ.** 1. „V“ ҳарфининг катта, кичик босма ва ёзма шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Куйидаги сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда кўчириб ёзинг.

*Avval, avvalambor, beva, bevafo, bevaqt, bevosita, davlat, davo, davom, davomat, davra, dev, devon, devona, devor, devqomat, evara, fatvo, favvora, gavda, gavhar, gavjum, guvoh, havas, havaskorlik, havo, holva, hovli, hovliqmoq, javdar, javob, javon, juvon, kovak, lavha, lavlagi, mavjud, mavlono, mavqe, mavsum, meva, navbahor, navbat, navkar, navo, navqiron, nevara, novda, novvot.*

3. Куйидаги сўзларни янги алифбога ўгириб кўчиринг.

*Ов, овлоқ, овора, овқат, овсар, овсин, овул, қават, қавс, қовун, қовурдоқ, қув, қувноқ, қувур, қувват, расво, равон, сават, савдо, савлат, савоб, савод, савол, севги, совлиқ, соврин, совун, совуқ, сув, сувоқ, суврат, сувратхона, тасвири, тавба, тавсиғ, товоқ, товус, товуқ, тувак, увол, вабо, вафо, вакил, вақт, вариқ, ватан, вергул, вижедон, висол, волида, воқеа, ворис, вулқон, хавф, хавотир, хилват, тован, томув, тавсиғ, тавоб, таваккал, таваллуд, совурмоқ.*

4. Куйида берилган гапларни дафтариңизга кўчириб ёзинг.

*Umr bevafo, mol-mulk bebaqo, deganlar. Bilim va odob havodek kerak. Muxbir o'tirganlarga ikkitadan savol berdi. Davraga savlatidan ot hurkadigan bir odam xotini bilan kirib keldi. Savatni olma, anor, anjir kabi mevalarga to'ldirib, ikkovlon kasal ko'rgani bordik. Amir Temur maqbarasi atrofida o'nlab favvoralar ko'kka otilib turadi. Devonxona mudiri bir qo'lting hujjatga muhr bostirib oldi. Katta xona devorlariga gulgor gilamlar, har xil suratlar osilgan edi. Hovli o'rtaсидаги serbutoq gujum qarqunoqlar makoni ekan. Lavlagidan eng sara navli qand olinadi. Ertalabdan havo sovuq bo'lib, ko'm-ko'k osmonni bir pasda qop-qora bulutlar o'rab oldi. Kitobxonlar bugungi kunda ham Farhod, Majnun, Tohirlarning*

soyl qissalarini maroq bilan o'qimoqdalar. Javlon bugun ham dardu javob bera olmadi. Ipak matolarga, dur-u gavharlarga o'rallgan bilan oysarning kimligi gapidan bilinib turadi. Havaskorlar ansambl iyrusida berilgan raqslar hammaning havasini keltirdi. Vah bobo nevuraslyga toyuslarni ko'rsatdi. Suvon quvurga latta itqib, buloq suvlini ovul tomonga burdi. Odamlarning quvnoq qahqahast butun mahallaga taraldi.

„Zz“ ҳарфи. Бу ҳарф тил олди, сиржалувчи, жарангли унлои товушни ифодалаш учун хизмат қиласи. Кирилл алифбосида бу ҳарфнинг ўхшаши йўқ. Ҳар иккала — катта ва кичик шакли пастки тугалланиш қисми орқали кейинги ҳарф билан туташтирилади.

Zz										
Z	Z	Z	Z	Z	Z	Z	Z	Z	Z	Z
z	z	z	z	z	z	z	z	z	z	z

**Топшириқ.** 1. „Z“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Куйидаги сўзларни янги алифбога ўгириб кўчиринг.

азамат, аза, азиз, азоб, базм, базўр, без, безарар, безбет, бозак, безовта, биз, бозор, бузоқ, бузук, бўза, девзира, дўзах, эзу, эзма, фазилат, фазо, фозил, газак, газанда, газлама, газмол, газниқоб, гузар, ҳазар, ҳазил, ҳазин, ҳазм, ҳазрат, ҳозир, ҳозиржавоб, ҳузур, имзо, из, изн, изоҳ, изқувар, иззат, жазо, жез, жиззга, куз, кўза, лазги, лаззат, лозим, маза, мазах, мазмун, мезон, мезбон, муз, музокара, назорат, низо, низом, нозик, орзу, озод, озода, пазанда, қази, қизамиқ.

3. Куйидаги сўзларни дафтарингизга кўчириб ёзинг.

Ro'za, sabzi, sazovor, siz, so'z, soz, so'zana, qizil, qiziq, qoziq, qozon, qo'zi, qo'ziqorin, tezak, tizza, tuzdon, to'zon, uzr, uzuk, uzum, uzin, uzuq, vazifa, vazir, xazina, xazon, zafar, ovoz, zahar, zamon, zarar, zargar, zarur, zehn, ziqna, zirak, zolim, zovur, zumrad, to'rayon, o'zbek, o'zak, o'zga, o'zmoq, o'zgarmoq, o'zbilarmon, o'zan, o'zaro, zararkunanda, zambarak, zaharxanda, zarbulmasal, zindon, zillila, zebigardon, zardevor, zarbdor, zanjir, zimiston.

4. Куйидаги берилган гапларни янги алифбога ўгириб ёзинг.

Мустақилликни қўлга киритган Ўзбекистон Республикаси бутун жаҳондаси мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини

мустаҳкамламоқда. Ҳар ким ўз вазифасини сидқидилдан бажарса, мамлакатимиз обод, дастурхонимиз доим тўкин бўлади. Олимнинг меҳнати заргарнинг заҳматийдан кам эмас. ўзбек халқи қадимдан олиму уламолар, фозилу фузалолар қадрини баланд тутган. Озода қизларга „Зумрад ва қиммат“, эртагининг мазмунини сўзлаб берди. Замира опасига қизил кўзли қимматбаҳо узук түхфа қилди. Сабзавотлар кузда совуққа қолдирилмасдан териб олинади. Кўзиқорин қовурганда қизил қалампир ҳам солинса, жizzали кабобдек мазали бўлади. Хоразм қадимдан лаззатли қовун-тарвузлар макони бўлиб келган.

### 5. Куйида берилган гапларни ифодали ўқинг.

*Iqtidorli talabalar musataqil mamlakatimizning kelajagidirlar. Movarounnahrdan umidini uzgan Zahiriddin Muhammad Boburning sodiq askarlari Hindistonda katta zafar qozondilar. Zahar solmoq erur kasbi ilonning. Haromdan hazar qilmagan odamlar bolalar haqini qo'rqmasdan o'maraveradi. Hazil qilganda uning ostida zili bo'lmasligi kerak. Avaz O'tar o'z zamonasining hozirjavob ijodkorlaridan biri edi. O'zbek adiblari tajribali izquvarlar haqida ham asarlar bitmoqdalar. Ko'za kunda emas, kunida sinadi. Hamma zamonlarda ham olimlar, ijod ahli el-ulus ko'zgusi sanalgan. „Afandi“ gazetasida qiziqarli latifalar beriladi. Talabalar Amir Temurning „Temur tuzuklari“ kitobini qiziqib o'qimoqdalar.*

## 14- МАШГУЛОТ

### Ch[che], G‘g'[g‘e] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЁЗУВДАГИ ИФОДАСИ

„Chch“ ҳарфлар бирикмаси. Бу ҳарфлар бирикмаси тил олди, қоришиқ, портловчи, жарангсиз ундош товушни ифодалаш учун хизмат қиласди. Ҳарфлар бирикмасининг биринчи ҳарфи янги алифбога мустақил ҳолда киритилмаган. Гап бошида ёки атоқли отларни ёзганда биринчи ҳарфи катта шаклда берилади. Катта ёки кичик шаклда ёзилганда ҳам кейинги ҳарф орқали пастки қисмидан туташтирилади.

Chch							
<i>Ch</i>							
<i>ch</i>							

**Топшириқ.** 1. „Ch“ ҳарфлар бирикмасининг катта, кичик босма ва ёзма шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Утилган ҳарфларнинг катта ва кичик ёзма шаклларини матни ҳамда алифбога қарамасдан тез ёзишни машқ қилинг.

3. Куйидаги сўзларни дафтарингизга кўчириб ёзинг ҳамда уларни тез ўқишини машқ қилинг.

Achitqi, achchiq, achchiq-chuchuk, bachkana, bechiqim, bechora, bichiqchi, burchak, davlatchilik, davolovchi, debocha, duch, egachi, echkemar, echki, govmichcha, guruch, harchand, hech, hovuch, hijjatchilik, ijarachi, ijrochi, ichimlik, ichkari, ichmoq, kemiruvchi, kecha, kechinma, kechqurun, kichik, kichiri, korchalon, kuldirgich, kunchiqar, kuch, kuchuk, ko'cha, ko'ch, ko'cha, ko'chat, ko'chki, ko'chmanchi, luchchak, meva-cheva, mullavachcha, muchal, naslchilik, ocharchilik, ochiq, ochqich, ochko'z, ochofot, pachava, pachaq, pechak, pichan, pichoq, pochcha, ruch, ro'choq.

4. Куйидаги сўзларни янги алифбога ўтириб ёзинг.

Синчалак, соқчи, сочиқ, қўчкор, қувонч, қулоқчин, қичқирмоқ, қасқичбақа, қилич, қанча, тикувчи, учувчи, учқун, ҳачир, ўркач, ўқувчи, тўқувчи, чакка, чечак, чигиртка, чинни, чишин, читтак, чизик, чодир, чумчук, чучук, чўл, чол, чўлоқ, ҷўмич, ҷўттак, ҷўпон, ҷўпчак, ҷўққи, ҷўшимоқ, ҷўчқа, ҷўри, ҷора, ҷучвара, чироқ, чипор, сичқон, чақалоқ, чанқов, чинчалоқ.

5. Куйида берилган гапларни тез ва ифодали ўқинг, сўнгра дафтарингизга кўчириб ёзинг.

*Farzandlar ota-onan va Vatan oldidagi burchlarini bir daqiqa ham unutmasliklari lozim. Davolovchi vrach kirib kelgach, hamma birdan jim bo'lib qoldi. Tabiblar ko'p kasalliklarni echki suti va qimiz bilan davolab kelganlar. Echkemar kemiruvchi zararkunandalarga qiron keltiradi. Kechqurun to'satdan havo o'zgarib, qor uchqunladi. Qamchisidan qon tomadigan zolim odamlarning zamoni o'tib ketgan. O'zbekiston suv havzalarida qizil tusli qisqichbaqalar ko'p bo'ladi. Chotqol atroflarida kech kuz va erta bahorda chaqmoq chaqib, tez-tez jala bo'lib turadi. O'zbekistonda dehqonchilik hamda chorvachilik qadimgi davrlardan rivojlangan serdaromad sohalardan hisoblanadi. Gulchehra o'tkir pichoq bilan tarvuzni karchladi. Navbatchi o'quvchi sinif tozaligi hamda tartib-intizom uchun javob beradi. Ko'chaning har ikki chetiga terak ko'chatlari ekildi. Saratonda chanqovbosti ichimliklar bozori chaqqon bo'ladi. Chalasavod mulladan savodsi dehqon afzal.*

**„G‘g“ ҳарфи.** Бу ҳарф ёзувда тил орқа, сирғалувчи, жарангли ундош товушни ифодалайди. У юқори қисмига ўтиш белгиси қўйилиши билан **g** ҳарфидан фарқ қиласди. Ўтиш белгиси босма шаклининг юқори ўнг томонига тескари вергул тарзида, ёзма кўринишининг устки қисмига чизиқча қўйиш билан ифодаланади. Катта ва кичик шакллари кейинги ҳарфга ўрга қисмидан туташтирилади.

Gg											
Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ
Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ	Ҹ

**Топширик.** 1. „G‘g“ ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Куйидаги сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда кўчириб ёзинг.

*Bag‘ir, bog‘, bog‘ich, bo‘g‘in, darg‘a, darg‘azab, dag‘al, dog‘, dog‘uli, fig‘on, gulbog‘, isirg‘a, ig‘vo, jag‘, jag‘jag‘, jig‘ildon, kambag‘al, lag‘mon, mag‘iz, mag‘lub, mag‘rur, mag‘zava, mijg‘ov, mubolag‘a, mug‘ambir, mo‘g‘il, nag‘ma, nog‘ora, zo‘rg‘a, qirqbo‘g‘in, qirg‘in, qirg‘oq, qirg‘ovul, qizg‘anchiq, qog‘oz, qo‘rg‘on, qo‘zg‘olon, bo‘g‘irsoq, ro‘zg‘or, sovg‘a, sog‘inch, sog‘lom, sog‘moq, sog‘liq, sug‘urta, targ‘ib, targ‘il, tag‘in, tig‘, tug‘, tillaqo‘ng‘iz, tog‘a, tog‘olcha, tog‘ora, to‘g‘nag‘ich, to‘g‘on, to‘g‘ri, ulug‘, zog‘izg‘on, zog‘ora, zig‘ir, o‘g‘it, zo‘g‘ota, o‘g‘il, o‘g‘ri, g‘aflat, g‘alaba, g‘alla, g‘amgin, g‘amxo‘r, g‘arb, g‘azal, g‘ijjak, g‘ilof, g‘irrom, g‘unajin, g‘uncha, g‘urra, g‘o‘ra, g‘o‘za, g‘anim, g‘ildirak, g‘assol, charog‘on, chig‘anoq, g‘oz, g‘azab, g‘o‘Idiramoq, g‘ijirlamoq.*

3. Куйида берилган гапларни аввал ифодали ўқинг, сўнгра дафтарингизга кўчиринг.

*Ulug‘ sarkarda sohibqiron Amir Temur o‘rta asr rus davlatini mo‘g‘illar zulmidan ozod qildi. Jizzax qo‘zg‘oloni xalqimiz tarixida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston qo‘riqxonalarida qirg‘ovul, kaklik kabi o‘nlab parrandalar davlat muhofazasiga olingan. „Tafakkur“ jurnalida „Sog‘lom avlod uchun“ ordeni sohiblari haqida katta maqola bosildi. G‘o‘za biti va ko‘sak qurtidan biologik usul bilan qutulsa bo‘ladi. Tozining olg‘irligi ko‘zidan bilinadi. O‘g‘lim daftarkitob, qog‘oz-qalamini ko‘tarib, o‘rtog‘inikiga ketdi. Ichkilik har qanaqa mag‘rur odamni ham mag‘lub eta oladi. Farg‘ona*

*ko'chalari kechalarlari ham charog'on bo'ladi. Kattaqo 'rg'on tumanida baliqchilik xo'jaligi tuzildi. Chumchuq semirib botmon bo'lmas, g'ot patidan sirmon bo'lmas. Oltovlon ola bo'lsa og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, umtaganin undirar. Urgut tog'larida dorivor o'simliklar ko'p. Samarcand har tomonidan mevazor bog'lar, ulug'vor tog'lar, g'allazor dalalar bilan o'rالgan.*

4. Куйнида берилган сўзларнинг маъносини изоҳланг.

*Gafir, g'ajir, garov, g'arov, guldirlamoq, g'uldirlamoq, guv, g'uv, go'r, g'o'r, qirg'in, kirgin, quvg'in, tug, tug', tugma, tug'ma, to'zg'in, to'zgin, gard, g'art, garchi, g'arch, gazla, g'azna, gujum, g'ujum, gjij-gij, g'ij-g'ij, gung, g'ing, gurung, g'iring, gir-gjr, g'ir-g'ir, gurra, g'urra, o'git, o'g'it, gul, gjija, g'ijak.*

## 15- МАШФУЛОТ

### Ngng[nge], Shsh[she] УНДОШ ТОВУШЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЁЗУВДАГИ ИФОДАСИ

„Ngng“ ҳарфлар бирикмаси. Бу ҳарфлар бирикмаси яқин тил орқа, портловчи, жарангли ундош товушни ифодалаш учун хизмат қилади. Кирилл алифбосида бу товушни ифодаловчи ҳарф ёки ҳарфлар бирикмаси қабул қилинмаган эди. Имло қоидаларида шундай товуш борлиги ҳисобга олинар эди, холос. Янги алифбода иккита мустакил ундош товушни ифодаловчи ҳарфлар бирикма ҳолда яна/бир ундош товушни ёзувда ифодалаши белгилаб қўйилди. „nge“ ундош товуши сўз бошида учрамайди. Бу ҳарфлар бирикмаси кейинги ҳарфга „g“ орқали ўрта қисмидан туташтирилади. „nge“ ундош товуши мавжуд сўз бўғинларга ажратилганда мазкур ҳарфлар бирикмаси бир-биридан ажратилиб, сатрдан сатрга кўчирилмайди, куйидагича бўғинларга ажратилади: *си-nгил, кў-nгил, ҳа-nго-ма, жи-nгир-ла-моқ, ба-nги-де-во-на, танг-ри, ми-nгин-чи* каби.

Ng Ng Ng Ng Ng Ng Ng Ng Ng

*Ng Ng Ng Ng Ng Ng Ng Ng Ng*  
*ng ng ng ng ng ng ng ng ng*

Топшириқ. 1. „Ng“ ҳарфлар бирикмасининг катта, кичик босми ва ёзма шаклларини чиройли қилиб ёзишни машқ қилинг.

2. Ўтилган барча унли ва ундош ҳарфларнинг ёзма катта ва кичик шаклларини алифбога қарамасдан, тез ёзib такрорланг.

3. Куйидаги сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиши ҳамда чиройли ёзилишига эътибор бериб кўчиринг.

*Rang, keng, bodring, dong, do'ng, ming, teng, tong, tang, miting, jiring, tung, jang, ohang, lang, zang, ong, chang, arang, tarang, garang, bang, o'ng, rang-barang, bong, ding, durang, eng, attang, farang, gang, gung, go'ng, gurung, nahang, so'ng, hang-mang, piching, dang-dang, ko'ndalang, lapang, tajang, alang-jalang.*

4. Куйидаги сўзларни янги алифбога ўгириб, бўғинларга ажратиб кўчиринг.

*Англамоқ, тенглик, тангли, кенглик, сингган, дўнглик, дингилламоқ, сўнгги, кўнгил, енгил, танга, банди, бандилик, ҳанграмоқ, дангаса, донгдор, денгиз, ингичка, гангимоқ, рангпар, ҳангома, ҳанги, ҳўнграмоқ, инграмоқ, ингаламоқ, жангари, жанггоҳ, жангир-жунгур, жангнома, жингалак, жингир-жингир, жингирламоқ, узанги, бандевона, тингламоқ, енгак, кўнгилчан, кўнгилочар, лапангламоқ, лунги, мингинчи, мингевона, тангри.*

5. Куйида берилган гапларни дафтарингизга кўчириб ёзинг. Ушбу гапларни китобдан ва дафтардан тез ва ифодали ўқишни машқ қилинг.

*Bu olam sir-sinoatlarini to'g'ri anglamoq uchun ko'p kitoblarining mazmunidan voqif bo'lmoq lozim. O'zbekistonida barcha xalqlar teng huquqlidir. Telefonning qattiq jingiri hammaning diqqatini bo'ldi. Asablar tarangligini qadrdon do'stlarning gurungigina tarqata oladi. Xo'ja Nasriddinning qora hangisi bekordan bekorga hangramas edi. Paxta terib olingan dalalarga turli o'g'itlar, chirindi va go'ng sochiladi. Ichkaridan chaqaloqning inga-ingasi quloqqa chalindi. Og'riqning zo'ridan uning ko'ngli behuzur bo'ldi. O'zini kulgidan zo'rg'a to'xtatgan Mahmud o'ng va so'liga bir qarab olib, so'ng Anvarga gap qotdi. Xalqimizning minglab farzandlari o'zlarining samarali mehnat va ijodi bilan dong taratgan. Bu gal ham uning sikrlarini hech kim tinglamadi.*

**„Shsh“ ҳарфлар бирикмаси.** „Sh“ ҳарфлар бирикмаси тил олди, сиргаливчи, жарантсиз ундош товушни ифодалайди. Бу товуш кирилл алифбосида бир ҳарф билан берилар эди.

Бу ҳарфлар алоҳида ҳолда „se“ ва „he“ товушларини ҳам ифодалайди. Бу товушлар сўз ичида ёнма-ён келиб, икки тонушни ифодалайдиган бўлса, улар орасига тутук белгиси (‘) кўйилади: *Is 'hoq, as 'hab, mas 'har* каби. Гап бошида ёки атоқли отлар бошида келганда биринчи ҳарф катта, қолтанилари кичик ёзилади. Бош ҳарфлардан иборат қисқартмалар таркибида ҳар иккаласи ҳам катта шаклда ёзилади (масалан, AQSH), „Sh“ ҳарфлар бирикмаси „h“ ҳарфи орқали пастки тутулданима қисмидан кейинги ҳарф билан туташтирилади. „Sh“ ҳарфлар бирикмаси ҳам „ch“ ва „ng“ ҳарфлар бирикмалари каби сўз таркибида алоҳида-алоҳида бўғинга ажратилмайди ёки ажратиб сатрдан сатрга кўчирилмайди.

Sh									
<i>sh</i>									
<i>sh</i>									

**Топшириқ.** 1. „Sh“ ҳарфлар бирикмасининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни машқ қилинг.

2. Кўйида берилган сўзларни лотин алифбосига ўгириб кўчиринг.

*Шабада, шаффоф, шакар, шаҳло, шаҳар, шалола, шароб, шавла, шер, шимол, шиқур, шиша, шовқин, шоҳ, шоҳ, шудгор, шубҳа, шӯҳ, шуҳрат, шодон, шолғом, мушт, мушук, нашр, нашвати, нишолда, нишон, ош, оташқалб, ошиқ, ошкора, ошна, оштичоқ, ошқовоқ, ошқозон, пашиша, пешана, пешин, подшо, қашқа, қашшоқ, қўшин, қўшиқ, қошиқ, қўшини, рашиқ, ташаббус, ташкилот, ташна, ташвиш, тешик, тишламоқ, тош, ушоқ, хушомад, хушхабар, хушхўр, хушвақт, хушхулқ, ушишоқ.*

3. Кўйидаги сўзларни ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда кўчириб ёзинг.

*Ashula, bashar, bashara, bashorat, besh, beshik, beshotar, bosh, boshqa, boshoq, bo'sh, bo'shliq, dasht, dushanba, dushman, eshak, eshik, eshkak, fosh, eshon, go'sht, hashar, hasharot, hushtak, ishbilarmon, ishkom, ishonch, ishq, ishora, ishqiboz, ishtaha, ishchi, lshxona, ishg'ol, jo'shqin, kashta, kishan, kishi, kishmish, koshin, koshona, lashkarboshi, mashaqqat, mashhur, mashshoq, mesh, moshkichiri, mushkul, mushoir, kengash, kengashmoq, mingashmoq, mingboshi, bashang, lapashang, shudring, ishchan, kurashchan, Toshkent, Bishkek.*

#### 4. Гапларни ифодали ўқинг ва кўчириб ёзинг.

*Rashk Otelloning ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilib, mudhish qotillikka undadi. Kechqurunlari dilrabo qo'shiqlar tinglab, go'zal raqlar tomosha qilamiz. Mohir lashkarboshi Jaloliddin Manguberdi mo'g'il qo'shiniga kutilmaganda qaqshatqich zarbalar berar edi. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar. Ishbilarmon kishilar shahrimizning obod bo'lishiga katta hissa qo'shmoqdalar. Ishlagan tishlar, ishlagagan kishnar. Otilmagan sopqon ham boshga, ham tovonga tegar. Dehqon bo'lsang shudgor qil, mulla bo'lsang takror qil. Ishning ko'zini biladigan kishini boshliqlar ham boshlariga ko'tarishadi. Bolalarning o'zidan katta kishilar bilan qo'l berib ko'rishishlari odobdan emas. Nonning o'zi ham non, ushog'i ham non. Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar va istiqbol rejali haqidagi kitoblari ko'p tillarda nashr etilmoqda.*

### 16- МАШФУЛОТ

#### Үу[ye] ҮНДОШ ТОВУШИ ВА УНИНГ ЁЗУВДАГИ ИФОДАСИ

„Yy“ ҳарфи. „Y“ ҳарфи тил ўрта, сиргалувчи, жарангли ундош товушни ёзувда ифодалайди. Унинг кичик босма, катта ва кичик ёзма шакллари кирилл алифбосидаги „у“ ҳарфига ўхшашдир. Каттаси ҳам, кичиги ҳам кейинги ҳарфга ўрта қисмидан тулаштирилади. Бу ҳарф кирилл алифбосида мавжуд бўлган „е“, „ё“, „ю“, „я“ ҳарфлари ифодалаган товуш бирикмаларини ҳарф бирикмалари шақлида — „уе“, „уо“, „уи“, „уа“ каби кўринишларда ифодалаш учун ҳам қўлланади. Маълумки, кирилл ёзувидаги „э“ ва „е“ ҳарфлари билан ёзиладиган сўзлар имлосида чалкашликлар мавжуд эди. Янги алифбода „е“ ҳарфи сўз бошида ҳам, сўз ўртасида ҳам, сўз охирида ҳам „э“ товушини ифодалайди. Чунончи: *erkin, poema, karate, alifbe, mavze, kire, men, ber, deraza, elak, echki*.

Кирилл алифбосидаги „е“ ҳарфи сўз бошида ҳам, сўз ўртасида ҳам, сўз охирида ҳам „уе“ ҳарфлар бирикмаси билан берилади. Masalan: *yel, yelim, yelin, yelkan, yelpig'ich, yelvizak, yet, yetak, yemoq, yer, yerto'la, yetakchi, yetarli, yetim, yetishmoq, yetnish, yetti, yetuk, yechmoq, Boltayev, Mamarizayev, pyesa, uyezd, razyezd, atelye, televideniye, zoye, syezd, podyezd*.

Кирилл алифбосидаги „я“ ҳарфи сўз бошида ҳам, сўз ўртасида ҳам, сўз охирида ҳам янги алифбо бўйича „уа“

тарнда берилади. Masalan: *yagana, yagona, yakson, yaktak, yakun, yalang'och, yalla, yalpiz, yalqov, yamoq, yana, yantoq, yaproq, yaqin, yara, yaramas, yarim, yarog', yasama, yasovul, yassi, yaxshi, yaylov, yayov, yag'ir, yag'rin, yashil, yashin, yashirin, ayanç, boyagi, hayajon, iyak, jiyan, jo'yak, xosiyat, hadya, biya, tarbiya, hajviya, loviya, raddiya, adliya, moliya, miya, eshakmiya*.

Аммо рус тилидан ва у орқали фарб тилларидан ўзлашган аккумулятор, вентелятор, изолятор, калькулятор каби сўзларда „я“ ўрнида „а“ ҳарфи қўлланилади: *akkumulator, ventilator, izolator, kalkulator*.

Кирилл алифбосидаги „ю“ билан ёзиладиган сўзлар янги алифбода „yu“ ҳарфлар бирикмаси билан берилади. Masalan: *yuqan, yugurdak, yuk, yuklama, yuksak, yulduz, yulmoq, yutalamoq, yutmoq, yutmush, yung, yupon, yuratmoq, yurqa, yurpin, uaq, uaqori, uaqumli, yurak, yurmoq, yurt, yut, yurtboshi, yutqazmoq, yutiq, yuvintoq, yuvmoq, yuvosh, yuvundixo'r, yuz, yuzaki, buyuk, buuq, suyuq, quyuq, bordi-uy* каби.

Бироқ фарб тилларидан ўзлашган *этюд, люкс, костюм, салют* каби сўзларда „ю“ ўрнига „и“ ҳарфининг ўзи ишлатилади: *etud, luks, kastum, salut*.

Кирилл алифбосида „ё“ ҳарфи билан ёзилиб келинган сўзларнинг бошида, ўртасида ва охирида „yo“ ҳарфлар бирикмаси қўлланади. Masalan: *yod, yodgor, yoki, yollanma, yolg'iz, yolg'on, yomon, yomg'ir, yon, yonbosh, yondosh, yonilg'i, yong'in, yopiq, yoqa, yoqimli, yoqlamoq, yoqit, yordam, yoriq, yorliq, yormoq, yorqin, yorug', yostiq, yotmoq, yov, yovuz, yovvoyi, yoz, yozuvchi, yog', yog'och, yosh, ayol, ayon, ayoz, ayyom, ayyor, bayon, daryo, go'yo, hayo, hayot, hushyor, ixtiyor, oyoq, sayyora, sayyoh, tayoq, tayyor, ziyo, avliyo, mahliyo, surayyo, tihayyo, dunyo, ashyo*.

Лекин дирижёр, ликёр, суфлёр, дублёр каби ўзлашма сўзларда „ё“ ўрнида биргина „о“ ҳарфининг ўзи қўлланилади: *dirijor, likor, suflor, dublor*. Ўзлашма сўзларда „уа“—„а“, „уи—и“, „уо“—„о“ каби икки хил ёзиладиган сўзлар имлосини „Имло лугати“ орқали ўрганиш лозим бўлади.

Yy Yy Yy Yy Yy Yy Yy Yy Yy  
Ү Ү Ү Ү Ү Ү Ү Ү Ү Ү  
Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ Ӯ

**Топшириқ. I.** „Y“ ундош ҳарфининг босма, ёзма катта ва кичик шаклларини чиройли ёзишни ўрганинг.

2. Ой номларини янги алифбога ўгериб қўчиринг.

*Январь, февраль, март, апрель, май, июнь, июль, август, сентябрь, октябрь, ноябрь, декабрь.*

3. Нуқталар ўрнига е ҳарфи ёки уе ҳарфлар биримасидан мосини қўйиб сўзларни қўчиринг.

*...tishtirmoq, ...kin, ...tarli, ...gov, ...tim, ...chmoq, ...lak, ...lin, ...llik, ...bto 'ymas, ...ika, ...lvizak, ...lat, ...taklamoq, ...ndi, ...rimoq, ...rtok, ...rtak, ...slatma, ...vropa, ...chintirmoq, ...rkak, ...gizak, ...shik, ...chkemar, ...tik, ...nsa, n...vara, qa...r, voq...a, karat..., mavq..., mut... .*

4. Қуидаги сўзларни ҳарфларнинг ўзаро туташтирилиш қоидаларига риоя қилган ҳолда дафтaringизга қўчириб ёзинг.

*Aya, ayb, ayil, ayiq, ayirmoq, aylanmoq, aymoq, aynan, yo 'l, yo 'bars, yo 'boshchi, yo 'lovchi, yo 'lto 'sar, yo 'ntoq, yo 'q, yo 'tal, yo 'g'on, yo 'dosh, yigit, yil, yilnoma, yilqi, yirik, yiring, yiroq, yirtiq, yig'i, yig'im, yig'in, yig'ma, yirtqich, yiqitmoq, yiltiroq, yildan yilga, aynimoq, ayniqsa, ayri, ayron, ayvon, ayg'ir, tuya, boyvuchcha, boyo 'g'li, boychechak, buyruq, hayfsan, haykal, hayvon, jayra, jiyda, jiyron, kayf, kiyik, laylak, maytun, mayna, maysa, mo 'ylov, mo 'ysafid, oybolta, pauroq, poyabzal, qayish, qaynana, qaynata, qaytim, quyruq, ro 'uxat, saylov, anbiyo, tumiyo, kimyo, soniya, qariya, nasiya, tavsiya, marsiya, hoshiya, himoya, kinoya, tuyuq, kuyuk, suyuk, yutqazmoq, iuyur, buyur, quyun, iuyut, yutut.*

5. Қуида берилган гапларни янги алифбога ўгериб қўчиринг.

*Бўлингани бўри er, айрилганни айик. Er шари 24 соат ичида ўз ўқи атрофида, бир йил давомида қуёши атрофида бир марта айланиб чиқади. Жаннат оналар оёғи остидадир, дейилган ҳадисда. Мустақиллик байрами муносабати билан вилоятимиздан кўплаб меҳнаткашлар тақдирланди. Истикъол шарофати билан халқимизнинг бир қанча қадимиий ва диний байрамлари тикланди. Абу Райхон Беруний замонасишинг барча дунёй ва диний шамларини мукаммал эгаллаган қомусий фанлисуғ олимдор. Марғионда буюк олим Аҳмад ал-Фарғонийга маҳобатли ҳайкал ўрнатилиган. Айрим одамлар айёрликда тулқидаш ҳам утади. Аскарларимиз ватанимиз чегараларини хушерлик билан қурғилемоқдалар. Кимки адолатни оёқ ости қиша, вақти келиб унинг ҳолида маймуналар йиглади.*

## 6. Куйидаги тапларни ифодали ўқинг.

Bir balos bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur. Samarcand poyabzal fabrikasida rauproq to'qish ham yo'lga qo'yildi. Jiydaning gult xushbo'y, bargi esa mayin bo'ldi. Choy dunyoda eng ko'p ichitladigan va eng foydali ichimlikdir. Noshud odamlar o'zlar qilgan gunohlarini doim shaytonning bo'yniga qo'yadilar. Kuz oylari daryo yoqalarli va to'qayga yaqin ekilgan polizlarni jayralar payhon qiladi. Baxmalliklar biya sutidan qimiz, tuya sutidan qimron, sigir sutidan ayronni juda yaxshi tayyorlaydilar. Kelgusi haftada O'zbekiston Xalq aralisti Buxtiyor Ixtiyorovning ijodiy faoliyati haqida ko'rsatuv beriladi. Yuzing qiyishiq bo'lsa, oynadan o'pkalamaga. Asal aynimas, sartiyog' sasimas. Bu yilgi mavsumda paxtakorchilar birorta ham o'yinda yutqazishmadidi. O'quvchilar məktəb yonida quyonchilik fermasi tashkil etishdi. Mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosi ,el'm deb, yurtim deb, yonib yashashi kerak".

## 17- МАШГУЛОТ

### [tse] ҚОРИШИҚ УНДОШ ТОВУШИННИНГ ЁЗУВДАГИ ИФОДАСИ ҲАМДА ТҮТУҚ ( ' ) БЕЛГИСИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Янги алифбода „tse“ қоришиқ ундош товушининг ифодаланиши. Кирилл алифбосида „tse“ қоришиқ ундош товушини ифодаловчи „ц“ ҳарфи мавжуд эди. Ўзбек тилида бу ҳарф фақат русча-байналмилал сўзлардагина қўлланади. Шунга кўра бу қоришиқ ундош товушни ифодаловчи ҳарф ҳам янги алифбога киритилмади. Ўзбек тилига ўзлашган шундай товушли сўзлар тилимиз талаффуз меъёrlарига мослаштирилиб, янги алифбода мавжуд бўлган „s“ ҳарфи ва „ts“ ҳарфлар бирикмаси билан бериладиган бўлди. „tse“ қоришиқ ундош товушли сўзлар янги ўзбек имлосида қўйидагича берилади. 1. Сўз ичida икки унли товуш орасида келган ҳолларда „ts“ ҳарфлар бирикмаси билан ифодаланади: *politsiya, delegatsiya, aviatsiya, ofitser, dotsent, dotsatsiya, militsiya* каби. 2. Сўз бошида, охирида ҳамда сўз ичida ундош товуш билан ёнма-ён келган ҳолларда „s“ ҳарфи билан ифодаланиши: *sirkul, sex, sirk, sement, siklon, sitrus, kvars, esmines, korees, nenes, shpris, aksent, aksiya, dixsiya, fransuz, kansler, konsern, konser, fraksiya, marganes* каби.

Топшириқ. 1. Куйида берилган сўзларни янги алифбога ўтириб қўширинг.

*Адабтация, аффиксация, акцент, акция, аннотация, ацетилен, ассоциация, аттестация, авиаация, биомицин, дефолляция, деклорация, декорация, делегация, дезинфекция, дирекция, диссертация, дотация, экспедиция, эвакуация, эволюция, фармацевтика, федерация, фракция, гидроэлектростанция, инфекция, инкубация, инквизиция, интервенция, инерция, инекция, ирригация, кассация, киносценарий, коллекция, комбинация, коммуникация, композиция, концентрация, концепция, лицей, мелиорация, модернизация, облигация, мультиплексия, официант, оккупация, операция, принципиал, авианосец.*

2. „tse“ ундош товуши иштирок этган ўнта сўз танланг ва улар иштирокида гаплар тузинг.

**Тутуқ (‘) белгисининг қўлланиши.** Кирилл алифбосига ҳарфлар билан бир қаторда иккита белги — айириш (ъ) ва юмшатиш (ь) белгилари ҳам киритилган эди. Бу белгилар нутқ товушини ифодаламайди. Бундан ташқари, юмшатиш белгисини қўллаш ўзбек тили табиатига тўғри келмайди. Шулар ҳисобга олиниб, бу иккала белги ҳам янги алифбога киритилмади. Айириш белгиси қўлланадиган сўзлар учун тутуқ (‘) белгиси вергул шаклида танланиб, бу белги имло қоидаларида бериладиган бўлди. Янги алифбода товуш ифодалайдиган ҳарфлар ҳамда ҳарф бирикмаларигина акс этган. Тутуқ белгиси босма ёзувда ҳам, қўлёзмада ҳам бош ҳарф баландлигида қўйилади. Тутуқ белгиси қўйилганда унинг икки томонидан ҳарфлар ўзаро туташтирилмайди, бир ҳарф катталигида очиқ қолдирилади.

„Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари“даги 32- қоида тутуқ белгисининг қўлланиши ҳақида бўлиб, қуйидаги икки банддан иборат: 1) *a'lo, ba'zan, ta'yus, ta'zim; ra'y, ta'b, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l, Nu'mon, shu'la* каби ўзлашма сўзларда унлидан кейин шу унли товушнинг чўзиқроқ айтилишини ифодалаш учун қўйилади; *mo'jiza, mo'adil, mo'tabar* каби сўзларда „о“ унлиси чўзиқроқ айтилса ҳам, тутуқ белгиси қўйилмайди; 2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* каби ўзлашма сўзларда унлидан олдин шу унли олдинги ундош товушдан ажратиб айтилишини ифодалаш учун қўйилади.

**Топшириқ.** 1. Қўйидаги сўзларни янги алифбога ўгиринг ва тутуқ белгисини қўйиб қўчиринг.

*Ашбор, аён, аззо, аззойи байдан, авлам, азвам, азволик, аяло, аымол, вадда, ваддалашибоқ, вазз, вазз-насиҳат,*

баъзхонлик, баъд, баъдаз, баъзи, баъзи бир, гулраъно, даъват, даъво, даъвогар, заъфарон, инъикос, инъом-эжсон, инъом, лаъл, лавши, лаънат, каъба, каъбатулло, масъул, масъулият, маъдан, маъзур, маълум, маълумот.

2. Тутуқ белгиси қўйиладиган қўйидаги сўзларни ёдда тутинг.

*Ma'mur, ma'nan, ma'naviyat, ma'murlik, ma'no, ma'raka, ma'ramoq, ma'rifat, ma'ruf, ma'ruza, ma'tal, ma'rifatparvar, ma'sum, ma'shuq, ma'shuqa, mash'al, mash'um, ma'yus, ma'qul, me'da, me'yor, me'mor, na'ra, nash'a, na'matak, ne'mat, ra'no, san'at, sur'at, ta'b, ta'bir, ta'zim, ta'zir, ta'ziya, ta'kid, ta'lim, ta'limot, ta'mir, ta'min, ta'minot, ta'na, ta'rif, ta'sir, ta'sis, ta'qib, fe'l, she'r, e'lon, e'tibor, e'tiroz, e'zoz, e'tirof, e'tiqod, ya'ni, qal'a, qat'iyy, qat'i nazar, qat'iyan, qat'iyat, qit'a, qur'on.*

3. Тутуқ белгиси қўйилиши билан маъноси ўзгарган сўзларни изоҳланг.

*Ayon—a'yon, alam—a'lam, bad—ba'd, davo—da'vo, zafaron—za'faron, matal—ma'tal, nasha—nash'a, sanat—san'at, surat—sur'at, eti bor—e'tibor, tana—ta'na, tarif—ta'rif, tasirtusur—ta'sir, taqib—ta'qib, sher—she'r, sava—sa'va, qala—qal'a, davosiz—da'vosiz, shuba—shu'ba, qada—qa'da.*

4. Кўйидаги гапларни янги алифбога ўгириб кўчиринг.

*Ҳар йили вилоятимиздан минглаб мусулмонлар Макка ва Мадинани зиёрат қилиб, Каъбатуллода ҳожишик амалларини бажариб қайтмоқдалар. Маънавий-маърифий жиҳатдан етук инсон бўлиш учун фақат китоб ўқишининг ўзи камлик қиласи. Бекорчидан бемаъни фикр чиқади. Навъматакнинг гули ҳам, меваси ҳам доривор ҳисобланади. Санъатсиз ҳаёт — ваҳшийлик, меҳнатсиз ҳаёт — ўғирлик эканлигини ҳамма билади. Улуғбекнинг осмон ёриткичлари ҳақидаги таълимоти ўрта асрларда коинот сари ташланган улкан қадам эди. Имом Исмоил ал-Бухорийнинг „Жомеъ ас-саҳих“ номли ҳадислар тўплами қуръондан кейинги муқаддас китобдир. Маъмурий-буйруқбозлик замонларидан қолган баъзи бир иллатлардан тезда қутулиб бўлмайди. Фурқат, Муқимий, Завқий, Аваз ўтарлар ўзбек маърифатпарвар адабиётининг иирик вакилларидир. Реклама ва эълонлар замонавий тијкорат ва савдо-сотиқнинг асосидир.*

5. Тутуқ белгиси құйиладиган қуйидаги атоқли отларни ёдда тутинг.

*A'zam, A'lam, A'loddin, A'lo, Gulra'no, Ma'ruf, San'at, Tal'at, Jur'at, Sur'at, Ma'mura, Sa'dulla, Nu'mon, Ne'mat, Ja'far, La'ixon, Ma'rifat, Ma'suma, Ra'noxon, E'zozxon.*

## 18- MASHG'ULOT

### O'ZAK VA ULARGA QO'SHILADIGAN QO'SHIMCHALAR IMLOSI

So'zning lug'aviy ma'no ifodalovchi qismi o'zak deyiladi. So'zning o'zak qismiga turli qo'shimchalar qo'shilib, uning ma'nosi o'zgartirilishi, shakli o'zgartirilishi yoki o'zaro aloqaga kirishi uchun xizmat qilishi mumkin. Shunga ko'ra qo'shimchalar so'z **yasovchi**, **shakl yasovchi hamda so'z o'zgartuvchi** qo'shimchalarga bo'linadi. So'z yasovchi qo'shimchalar so'z o'zagiga qo'shilib, yangi ma'noli so'z yasaydi: *ishla, ishchan, ishxona, ishsiz* kabi. Shakl yasovchi qo'shimchalar so'zning mavjud ma'nosiga qo'shimcha ma'no beradi: *kitobcha, kitoblar, kattaroq, kattagina, o'nta, o'ntacha, o'nlab, o'ninch* kabi. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar esa gapda so'zlarni o'zaro bog'lash, aloqaga kiritish uchun xizmat qiladi: *akamga oldim, sizdan so'radik* kabi. So'z o'zgartuvchilarga: egalik qo'shimchalari (-m, -im, -ng, -ing, -i, -si, -miz, -imiz, -ingiz, -ngiz, -lari), kelishik qo'shimchalari (-ning, -ni, -ga, -ka, -qa, -da, -dan) hamda fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari (-m, -man, -ng, -san, -ti, -k, -miz, -ngiz, -siz, -tilar) kiradi. Ayrim so'zlarga qo'shimchalar qo'shilganda uning o'zagida o'zgarish yuz berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar „O'zbek tili asosiy imlo qoidalari“ning „Asos va qo'shimchalar imlosi“ bo'limida misollar bilan keng izohlab berilgan.

**Topshiriq.** 1. Quyidagi so'zlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shib, ularda yuz bergen o'zgarishlarni tushuntiring, shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Sayla, sina, aya, so'ra, bo'ya, o'yna, sayra, qala, qayna, qatna, o'qi, to'qi, qazi, sovi, qavi, o'yla, og'ri, siyla, terga, hayda, alda, unda, aybla, qishla, oqla, bura, silta, qista, maqta, qicha, o'lcha, qursha, chayqa, chanqa, yig'la, qayra.*

2. „K“ va „Q“ harfi bilan tugagan quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*O'rdak, go'dak, tuvak, engak, kekirdak, chelak, bilak, tilak, haq, zavq, tayoq, oyoq, bo'yoq, tuyuoq, qobiq, qoldiq, o'rindiq,*

*tasdiq, qayiq, qiyiq, baliq, sovliq, qiliq, qalliq, soliq, so'lak, kurmak, damak, choynak, telpak, eshak, to'garak, terak, ko'krak, jo'mrak, erkak, kurak, yurak, kesak, ko'rak, tirsak, katak, yantoq, g'altak, cho'ntak, po'stak, etak, ichak, burchak, kindik, o'rik, beshik, bank, polk, kubok, blok, ocherk, sirk, kurk, tuk, tok, ariq, choriq, qatiq, qitiq, yostiq, qoshiq, xulq, tovoq, dudoq, qovoq, buzoq, taloq, chaqaloq, axloq, yong'oq, paypoq, taroq, tuproq, bo'g'irsoq, toychoq, o'choq, qopqoq, qirgoq, nutq, o'q, tumshuq, quduq, zirak.*

3. Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shib, o'zakda yuz beradigan o'zgarishlarni tushuntiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo, xudo, nido, orzu, bobo, jazo, imlo, siymo, oshno, xato, vafo, insho, alifbe, kupe, ko'zgu, uyqu, qayg'u, bug'u.*

4. Quyidagi so'zlarga **-ga**, **-gacha**, **-gach**, **-guncha**, **-gani**, **-gudek**, **-gan**, **-gin**, **-gina** qo'shimchalaridan birortasini qo'shib ko'ring, o'zakdag'i o'zgarishni izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Tok, yo'lak, to'k, ek, kichik, kechik, zerik, chopiq, qishloq, yoq, chiq, qo'rq, achchiq, barg, pedagog, bug', og', sig', ilgak, yo'rgak, tirmizak, mulk, pinak, tentak, buk, cho'k, tik, tuzuk, chuchuk, tayoq, qiyiq, qayiq, soliq, boshmoq, oq, qirq, tiniq, qattiq, yiq, tiq, uq, sovuq, rang, garang, geolog, metallurg, dramaturg, okrug, sariyog', bog', belbog', dimog', sog', yorug', urug', cho'g'.*

## **19- MASHG'ULOT**

### **QO'SHIB YOZILADIGAN SO'ZLAR IMLOSI**

Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish tashqi manba hisoblanadi. So'zlarga qo'shimchalar qo'shish hamda so'zlarni so'zlarga qo'shish orqali yangi so'zlar yasash ichki manbani tashkil etadi. Qo'shimchalar qo'shilishi bilan o'zakda yuz beradigan o'zgarishlarni avvalgi darsimizda ko'rib chiqdik. O'zbek tilida so'zlarning o'zaro birikivudan juda ko'plab yangi so'zlar hosil bo'lган. Ammo bunday qo'shma so'zlarning bir qismi qo'shib yozilsa, bir qismi ajratib yoziladi. „O'zbek tili asosiy imlo qoidalari“ning „Qo'shib yozish“ bo'limi mana shunday so'zlarni yozma nutqda farqlashni o'rgatadi.

**Topshiriq.** 1. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan quyidagi so'zlarni yodda tuting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qahvaxona, bosmaxona, ustaxona, pashshaxona, kutubxona, bojxona, dorixona, elchixona, novvoyxona, to'yxona, molxona, mehmonxona, yotoqxona, talabnama, aybnoma, jangnama, arznama, yilnama, ta'birnama, iltimosnama, shahodatnama, ruxsatnama, sayohatnama, shartnama, bedapoya, g'ozapoya, zinapoya, ildizpoya, sholipoya, sahnabop, ko'yakbop, imoratbop, po'stinbop, vinobop, xushbichim, xushbo'y, xushvaqt, xushmanzara, xushovoz, xushsurat, xushta'm, xushfe'l, xushxulq, xushhavo, hamdard, hamkasb, hamkurs, hamtovoq, hamdo'stlik, hamxona, hamshahar, hamyurt, umidbaxsh, murodbaxsh, orombaxsh, shifobaxsh, ilhombaxsh, jonbaxsh, kamgap, kamgo'sht, kamxarj, kamchiqim, kamqon, kamhosil, kamyog'in, umumbashar, umumdavlat, umumjahon, umummillat, umumnazariy, lolarang, suvrang, nimrang, surrang, misrang, jigarrang, sovuqmijoz, issiqmijoz, devsifat, odamsifat, darveshsifat, bodomsifat, jinnisifat, ajinasifat, maymunsifat, suvtalab, shifotalab, savobtalab, farzandtalab.

2. Tarkibidagi ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki „obod“ so'zi bilan yasalgan joy nomlariga misollar toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna : *Nurobod, Nurota, Kattaqo 'rg'on, Oqdaryo, Qoradaryo* kabi.

3. Tarkibidagi ikkinchi qismi atoqli ot bilan yasalgan joy nomlariga misollar toping hamda ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna : *Markaziy Osiyo, Past Darg'om, Kichik Osiyo* kabi.

4. Rus tilidan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish orqali hosil bo'lgan qo'shma so'zlarga misollar toping.

Namuna : *kinoteatr, elektrotexnika, teletomoshabin, suvosti* kabi.

5. Qo'shma so'z bilan ifodalanadigan parranda va jonivorlar nomlariga misollar toping.

Namuna : *qizilishton, olaqarg'a, mingoyoq, suvilon* kabi.

6. Qo'shma so'z bilan, ifodalanadigan o'simliklarning, nomlariga misollar toping.

Namuna : *gultojixo 'roz, qashqargul, nosqovoq, tog'olcha* kabi.

7. Inson faoliyati hamda fazilatlari bilan bog'liq qo'shma so'zlarga misollar toping.

Namuna : *otboqar, devgomat, sheryurak, bodomqovoq* kabi.

**20- MASHG'ULOT**  
**CHIZIQCHA BILAN YOZILADIGAN SO'Z**  
**VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI**

O'zbek tilida juft so'zlar, takror so'zlar, qo'shimcha yuklamalar, arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlar chiziqcha bilan yoziladi. Ba'zan chiziqcha bilan tireni farqlamaslik hollari uchrab turadi. Tire gap tarkibidagi bo'laklar orasida ularni ajratish uchun qo'llanilsa, chiziqcha ikki so'z o'rtasida yoki so'z bilan qo'shimcha yuklamani ajratish maqsadida qo'llaniladi. Shuningdek, tire bilan chiziqcha shakl jihatidan ham farq qiladi. Tire chiziqchaga qaraganda ikki barobar uzunroq bo'ladi.

**Topshiriq.** 1. Vaqtli matbuot sahifalari yoki badiiy asarlardan juft va takror so'zlar qatnashgan gaplarga misollar toping.

N a m u n a : *el-yurt, kiyim-kechak, baland-baland, shirin-shirin* va h.

2. Quyidagi so'zlar ishtirokida belgini kuchaytiruvchi shakllar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Sariq, qora, katta, ko'k, yumaloq, butun, tuzuk, ola, chala, oson, tekis, g'adir, kalta, pakana, tiniq, silliq, yorug'*.

3. **-chi, -a, -ya, -ku, -u, -yu, -da, -e, -ey, -yey** yuklamalari yordamida yuklamali shakllar hosil qiling va gaplar tuzing.

N a m u n a : *Qiliqsizning qilig'i biram yoqimsiz bo'ladi-yey!*

4. Arab raqamlari yordamida tartib sonlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a : *Men 1957- yil 15- iyulda Narpay tumanidagi Ilonli qishlog'da tug'ilganman.*

5. Vaqtli matbuot sahifalaridan rus tilidan o'zlashgan yoki rus tilidan tarjima qilinib, chiziqcha bilan yoziladigan so'zlarga misollar toping.

N a m u n a : *Bir kilovatt-soat ham elekrt quvvati befoyda sarflanmasligi lozim.*

6. Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzung.

Adabiy-tanqidiy, adi-badi, ajoyib-g'aroyib, aldam-qaldam, aloq-chaloq, alg'ov-dalg'ov, ancha-muncha, aslaha-anjom, avrastar, asta-sekin, ag'dar-to'ntar, ashqol-dashqol, achchiq-tizziq, bilib-bilmay, bilinar-bilinmas, birma-bir, bola-baqra, bog'-rog', bosh-oyoq, dag'-dag', dori-darmon, do'st-u dushman, elma-el, enka-tinka, eson-omon.

## 21- MASHG'ULOT

### AJRATIB YOZILADIGAN SO'ZLAR IMLOSI

Tilimizda qo'shma fe'llar, ko'makchi fe'l yoki to'liqsiz fe'l yordamida hosil bo'lgan so'z qo'shilmalari, shuningdek, ko'makchilar, *hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha, to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so'zlar o'zidan oldin yoki keyin keladigan so'zlardan ajratib yoziladi. Masalan: *ta'sir etmoq, sotib olmoq, bayon qilmoq, o'qib ber, o'qib chiq, o'qib ol, o'qib tur, o'qib ko'r, o'qib yur, olgan ekan, olgan edi, olgan emish, shu bilan, kun sayin, borgan sari, bir qadar, yil bo'yi, hamma yoq, har nima, hech qachon, qay vaqt, u joyda, shu zaylda, o'sha tomondan, to'q yashil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och qizil, yildan yilga, kundan kun, dardi bedavo, tarjimayi hol va h.*

**Topshiriq.** 1. Badiiy asarlar yoki vaqtli matbuot sahifalaridan ajratib yozish qoidalariga rioya qilingan yoki qoidaga zid holatlarga misollar toping.

2. Quyida berilgan o'zbek xalq ertaklarining an'anaviy boshlanmasiga xos usulda yozilgan „Ertak-topishmoq“ni ifodali o'qing, so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilish holatlarini izohlang.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan,  
Bir och ekan, bir to'q ekan,  
Bo'ri bakovul ekan,  
Tulki yasovul ekan.  
Qarg'a qaqimchi ekan,  
Chumchuq chaqimchi ekan.  
Qirg'ovul qizil ekan,  
Quyrug'i uzun ekan.  
Toshbaqa tarozibon ekan,  
Qurbaqa undan qarzdor ekan.  
Cho'chqa tumshuqdor ekan,  
Tuya o'rkachdor ekan.  
Otlar tuyoqdar ekan,  
To'ti bo'yoqdar ekan.  
Ilon beoyoq ekan,  
Maymun ko'p sayoq ekan.  
Mushukvoy miyov derkan,  
Kuchuk ko'p tayoq yerkan.  
Echki soqolli ekan,  
Mayna aqli ekan.  
Filda xartum bo'larkan,  
Delfin suvda kulkarkan.

Qo'chqor kalla urarkan,  
Sigir qaymoq berarkan.  
Baliq ko'z yummash ekan,  
Tovuq yuz yuvmas ekan.  
Ayiqvoy maymoq ekan,  
Yo'lbarsga aymoq ekan.  
Quyonvoy qo'rroq ekan,  
Begemot buqoq ekan.  
Qunduzoy bichuvchiykan,  
Kirpiboy tikuvchiykan.  
Laylak karnay chalarkan,  
Bulbul avjin olarkan.  
Burgut tog'da yasharkan,  
Bulutlardan osharkan.  
Sichqon kezib dalani  
O'g'irlarkan g'allani.  
Sanab boq-chi, hoy, Nu'mon,  
Aytildi necha hayvon?  
Nechtasi parrandadir?  
Nechtasi uy hayvoni?  
Ko'p o'ylamay javob ber,  
Tutilmasdan sen, G'ani.  
Nechta tuyoqlisi bor?  
Nechta panja oyoqli?  
To'rt oyoqli hayvonlar  
She'rda qancha bor ekan?  
Hulkarmi, Charos, Nargiz,  
Dilnoza toparmikan?  
Balli, degan sovg'ani  
Kim oldin olar ekan?

(M. Boltayev)

## 22- MASHG'ULOT BOSH HARFLAR IMLOSI

Yozma nutqda gapning birinchi so'zi, kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, ijodkorlarning taxalluslari, geografik joy va hududiy birliliklarning nomlari, yulduz va sayyoralarning nomlari, adabiyot va san'at asarlari nomlari, madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan boshlanadi.

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablar, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Juhon Tinchlik Kengashi*.

Oliy mansabni bildiruvchi boshqa tarkibli nomlar, vazirliklar, idoralar, korxonalar, tashkilotlar, muhim tarixiy sana va bayramlar, mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi: *Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yoshlar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti, „Sog‘lom avlod uchun“ (orden), „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi“ (faxriy unvon), „Matbaa a‘lochisi“ (nishon)*.

Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: „*O‘zbekiston Qahramoni*“ (unvon), „*Oltin Yulduz*“ (medal).

**Topshiriq.** 1. Vaqtli matbuot sahifalaridan bosh harf bilan yozilgan so‘zlarga misollar toping va ularni izohlang.

2. Quyidagi gaplarni ko‘chiring. Bosh harflar bilan yozilgan so‘zlarni izohlang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshqargan Vazirlar Mahkamasidagi yig‘ilishda umumxalq bayrami — Navro‘z shodiyonalariga tayyorgarlik va uni o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar muhokama etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi Raisi Mustafo Kalemlini qabul qildi.

BMTning Afg‘onistonidagi maxsus missiyasi rahbari Norbert Xoll Toshkentga keldi.

Respublika Adliya vazirligining „Adolat“ nashriyoti „O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi“ni o‘zbek va rus tillarida alohida-alohida kitob tarzida nashr etdi.

3. Quyidagi qisqartmalarni so‘z holiga keltiring va yangi alisboda yozing.

*ХХР, МДХ, РФР, ЎзР, СамДУ, СамДТИ, СамДКМИ, СамДКХИ, СамДЧТИ, ЎзМУ, АКШ, ТошДПУ, Ўзавтосаноат, Ўзмевасабзувузумсаноат, ЎзР ИИВ, вилоят ХТБ,*

*Ўзагросаноат, телемарофон, Фарҳод ГЭС, ЎзТВ, СТВ, СТР, РЖТ, ЎзА, ЭҲМ, НУЖ, ЎзХДП МК, Ўздавлатэнергоназорат, МХХ, АЖ, ДАН.*

## 23- MASHG'ULOT КО'ЧИРИШ QOIDALARI

Satr oxiriga sig'may qolgan so'zning bir qismini keyingi satrga ko'chirish so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilish bilan bog'liqdir. Ma'lumki, so'z tarkibida nechta unli tovush mavjud bo'lsa, so'z shuncha bo'g'indan tashkil topgan bo'ladi. Shunga ko'ra bиргина unli tovushning o'zi ham so'z tarkibida alohida bo'g'in sanaladi. Biroq bиргина unli tovushdan tashkil topgan bo'g'in yakka holda satr oxirida qoldirilmaydi yoki keyingi satrga ko'chirilmaydi: *a-badiy, a-dabiy, e-galik, e-shitilmoq, u-mumiylif, mudofa-a, matba-a, mutola-a* kabi. Agar so'z tarkibida tutuq belgisi mavjud bo'lsa, tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *bama'-ni, noma'-qul, san'-at, ma'-ruza, ta'-na* kabi. Shuningdek, bir tovushni ifodalovchi **sh**, **ch**, **ng** harf birikmalari qatnashadigan so'zlar bo'g'lnarga ajratilib, satrdan satrga ko'chirilganda bu harf birikmalari bir-biridan ajratilmaydi, bирgalikda satr oxirida qoldiriladi yoki bирgalikda keyingi satrga ko'chiriladi: *soch-ma, so-chiq, qoch-ma, qo-chirma, posh-na, pe-shana, tosh-loq, tomo-sha, mang-lay, si-ngil, tang-lay, ko'-ngil* kabi.

**Topshiriq.** 1. „O'zbek tili asosiy imlo qoidalari“ning 75—82-bandlarini o'qib o'rganing. Ushbu qoidalarga vaqtli matbuot sahifalaridan misollar toping.

2. Quyidagi matndan ko'p bo'g'inli so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidalari asosida daftaringizga bo'g'inlab ko'chiring.

### KIYIKO'TI

Kiyiko'tining ham bir yillik, ham ko'p yillik turlari bor. O'simlikning bo'yи 60 santimetrgacha borishi mumkin. Barglari mayda, nashtarsimon, tekis, qisqa bandli, tukli yoki kam tukli bo'ladi. O'zbekistonda kiyiko'tining 7 turi uchraydi. Kiyiko'tidan mahalliy aholi ziravor, dorivor omil sifatida foydalananadi.

Kiyiko'ti xalq tabobatchiligidida qadim zamонлардан buyon qo'llanib kelinadi. Kiyiko'ti tomoq og'rig'i, me'da faoliyatining buzilishi, ko'ngil aynishi, yurak sanchig'i, tinchlantiruvchi vosita sifatida tavsija etiladi. Kiyiko'tidan tayyorlangan damlama oqma

maraz, zaxm, ichburug‘, yo‘g‘on ichakning yallig‘lanishida iste‘mol qilinadi. Giyoh tog‘lik xalqlarning tativli oshko‘ki bo‘lishi bilan birga, sabzovotlarni saqlashda, mahsulotlarni konservalashda ham qo‘llaniladi. Kiyiko‘tidan tayyorlangan damlama ishtahani ochib, ovqat hazmini tezlashtirish hamda siyidik haydash xususiyatiga ega. Undan tayyorlangan ichimliklar organizmni mustahkamlaydi.

Shuni esda tutish kerakki, kiyiko‘ti hozirda noyob o‘simlik namunasi safiga kirib qolgan bo‘lib, uni pala-partish yulib, o‘rib olish bu bebafo o‘simlikning yo‘qolib ketishiga olib keldi. Odatda quritib olingan kiyiko‘ti begona o‘simlik qoldiqlaridan tozalanib, maydalangan holda, og‘zi yaxshi bekiladigan idishlarda nam tegmaydigan, salqin joylarda saqlanadi. (*M. Nabihev*)

3. Gazeta va jurnallardan bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga rioya etilmagan holatlarga misollar topping va ularni izohlang.

## 24- MASHG‘ULOT ATOQLI OTLAR IMLOSI

Yozma nutqda atoqli otlarni imlo xatolarisiz, to‘g‘ri yozishga jiddiy e‘tibor bermoq lozim. „O‘zbek tili asosiy imlo qoidalari“ning 66—74- bandlari „Bosh harflar imlosi“ga bag‘ishlangan. Ushbu mashg‘ulotda atoqli otlarning turlari va asosan o‘zbek tilida kishilarga qo‘yiladigan ismlar hamda kishi ismlariga qo‘shiladigan qo‘shimchalarga qisqacha to‘xtalamiz.

Atoqli otlar sirasiga quyidagi guruh nomlarni kiritish mumkin:

1. Kishilarning ismi, otasining ismi va familiyasi.
2. Shoirlar, yozuvchilar, olimlarning taxalluslari, davlat arboblari, tarixiy shaxslar nomi tarkibidagi izoh qismlar.
3. Uy hayvonlariga, qo‘lga o‘rgatilgan yovvoyi hayvonlarga qo‘yilgan nomlar.
4. Osmon jismlari — planetalar, yulduzlar, kometa va hokazolarning nomlari.
5. Geografik-hududiy nomlar: qit‘alar, ummonlar, dengizlar, tog‘lar, orollar, ko‘llar, cho‘llar, daryolar, davlatlar, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, maydonlar, ko‘chalar kabi.
6. Davlatlarning oliy organ va tashkilotlari, mansablari, partiya va harakatlar, oliy unvon, orden, medal, nishon va boshqalarning nomlari.
7. Ilmiy muassasalar, oliy o‘quv yurtlari, vazirliklar, turlituman korxonalarining nomlari.

8. *Gazeta* va jurnallar; adabiyot va san'at asarlari nomlari, sport komandalari va inshootlariga, teatr, kinoteatr va tarixiy obidalarga, sanat va oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yilgan nomlar.

9. Muhim tarixiy sanalar, bayramlar, qonunlar, hujjatlar va boshqalarning nomlari.

Atoqli otlar har doim bosh harf bilan yoziladi.

„Davlat tili haqida“gi qonunning 15- muddasida „O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar“ deyilgan. Bu moddaning kiritilishi bejiz emas. Chunki keyingi yuz yildan ortiqroq davrda ism-shariflarni noto‘g‘ri, buzib yozish hollari keng tus oldi. Oqibatda ism va familiyalarning ma’no-mazmuniga ham putur yetdi: *Xo‘jaqul—Xadjakul, Musulmon—Musurman, Yo‘ldosh—Yuldash, Tohir—Taxir, Qobil—Kabil, Sodiq—Sadik, Ma‘mur—Mamir, Ulug‘ov—Ulukov, Fattohov—Pattayev, Qo‘ziyev—Kaziyev, Qo‘chqorov—Kochkaryov, Tirkashev—Tirkachyov* kabi. Shuningdek, ming yillar davomida shakllangan **-bek, -xo‘ja, -xon, -jon, -poshsha, -oy, -boy** kabi qo‘srimchali nomlar bilan atash taqiqlab ham qo‘yildiki, bu hol farzandlarga nom tanlashda *Marat, Mars, Mels, Kim, Telman, Roman, Rinat, Ernist, Komuna, Tamara, Roza, Klara, Kultura, Luiza, Svetlana* kabi go‘yo zamонавиј ismlarga nisbatan rag‘bat uyg‘otdi. Vaholanki, o‘zbek tilida ismlarga qo‘silib qo‘llanadigan o‘nlab qo‘srimchalar borki, ular asrlar davomida ismlarning milliy-o‘zbekonaligi hamda takrorlanmasligini ta‘minlab kelgan. Bunday qo‘srimchalar qatoriga **-boy, -bek, -bobo, -buva, mir-, -mirza, -oxun, -toy, -xo‘ja, -qul, -bonu, -bika, -begim, -bibish, -bibi, -beka, -buv, -buvi, -buvish, -gul, -oy, -oyim, -poshsha, -xonim, -to‘ti, -moma** kabilarni kiritish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan moddaga asosan familiyalarni, ismlarni yozishdagi chalkashliklarni bartaraf etish uchun bu ismlarning ma’nosini yaxshi bilish hamda ularga qo‘shiladigan qo‘srimchalarini to‘g‘ri qo‘llay bilish lozim. O‘zbek tilida ismlarning qanday tovush bilan tugallanganligiga qarab quyidagi qo‘srimchalar qo‘shiladi va familiyalar hosil qilinadi.

1. Asosi unli tovish bilan tugagan ismlarga **-yev, -yeva** qo‘srimchasidan biri qo‘shiladi: *Boltayev, Qoriyev, Meyliyev, Baqoyev* kabi.

2. Asosi „ye“, „she“, „che“, „je“ tovushlari bilan tugagan ismlarga **-ev, -eva** qo‘srimchasidan zaruri qo‘shiladi: *Tursunboyev,*

*Qoratoyev, Tirkashev, Bektamisheva, To'xtamishev, Qilichev, Yovqochev, Sirojev* kabi.

3. Asosi „ye“, „she“, „che“, „je“ undoshlaridan boshqa undosh tovushlar bilan tugagan ismlarga **-ov**, **-ova** qo'shimchalaridan tegishlisi qo'shiladi: *Rizaqulov, Mardonov, Ro'zimurodov, Rustamova, Asrorova* kabi.

Bundan tashqari, ism va ota ismlari tarixiy an'analar asosida *Hamza Hakimzoda, Maqsud Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, Abdulla Avloniy, Jahongir Mardon o'g'li, Gulnoza Rahmonqul qizi* kabi shakllarda ham rasmiylashtirilishi mumkin.

**Topshiriq.** 1. Gazeta va jurnallardan atoqli otlarga, xususan, ism, familiya va ota ismlarining to'g'ri qo'llanishiga hamda buzib ishlatalishiga misollar toping.

2. Turdosh otdan atoqli otga o'tgan ismlarga misollar toping.

Masalan: *lola — Lola, po'lat — Po'lat, qilich — Qilich* kabi.

3. Shoir Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu she'riy parchani ko'chiring:

Mirzolar — Mishaga aylangan yillar,  
Suvonlar — Sashaga aylangan yillar,  
Alisher — Alikka, Kamol — Kolyaga,  
Muattar — Mashaga aylangan yillar,  
Men sizdan o'kinib yashayman.

Gulchehra ismini „Gulya“ deganlar,  
Zulkumor, Zumradni „Zulya“ deganlar,  
Rostmana nomini aystsang ortingdan,  
„Madaniyatsiz bo'lmay o'l-e“ deganlar,  
Men sizdan o'kinib yashayman.

„Borya“ yozganlardan Bobur xafadir,  
„Tolya“ yozganlardan Temur xafadir,  
„Fedya“ yozganlardan Farhod ko'ngli g'ash,  
Qolganidan yana kimdir xafadir,  
Men sizdan o'kinib yashayman.

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

### O'ZBEKISTON

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. U 447,4 ming kv. km. maydonni egallaydi. O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahri bo'lib, davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston 1991- yil 1- sentabrdan mustaqil respublika deb e'lon qilindi. O'zbekistonning o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, pul birligi, qurolli kuchlari bor. 1992- yil 8- dekabrda mustaqil davlatimizning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda O'zbekistonda yashovchi xalqlarning o'qish, mehnat qilish, dam olish va boshqa huquqlari kafolatlangan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasini dunyoning barcha davlatlari tan oldi va ularning elchixonalari ochilib, mustahkam aloqalar o'rnatilmoqda.

O'zbekiston yoshlari yangi ochilgan universitetlar, institutlar, kollej, litsey va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim olmoqdalar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellarga borib kelmoqdalar.

Respublikamizda o'zbeklar bilan bir qatorda qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, qirg'izlar, tatarlar, tojiklar, ruslar, yahudiylar va boshqa millat vakillari bir oila farzandlaridek yashaydilar. Shuningdek, o'zbeklar ham yaqin qo'shni davlatlardan tashqari, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy, Suriya, Jordaniya, Eron, Iraq, Birlashgan Arab Amirligi, Misr, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Italiya, Angliya, AQSH, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda ham yashaydilar.

O'zbekiston qadimiy va boy tarixga ega. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarni ziyorat qilish uchun ko'plab sayyoohlар kelishadi. Bu yurtdan qancha-qancha qomusiy olimlar, mutafakkir shoirlar, yozuvchilar, mashhur sarkardalar va davlat arboblari yetishib chiqqan.

Respublikamizda 12 viloyat, bir suveren respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo'rg'on va qishloqlar mavjud. Uning tabiatiga go'zal, tuprog'i bebahoh konlarga boy. Vatanimiz tuprog'idan neft, gaz, ko'mir, oltingugurt, ozokerit, osh tuzi, rux, qo'rg'oshin, mis, volfram, oltin va boshqa yer osti boyliklari qazib olinadi.

O'zbekistonning asosiy ekini paxta va g'alladir. Shuningdek, makkajo'xori, sabzavot ekinlari, poliz mahsulotlari, meva va uzum, tamaki, kanop ham ko'plab yetishtiriladi. Keng yaylovlarda zotdor qo'y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya kabi chorva mollari boqiladi. Pillachilik va sholichilik ham rivojlangan sohalardir.

O'zbekiston sanoati rivojlangan mamlakatga aylanmoqda. Elektr quvvati ishlab chiqarish, paxta tozalash, ip va ipak gazlamalar tayyorlash, meva, sabzavotlarni qayta ishlash, yog'-moy kombinatlari, madaniy o'g'itlar ishlab chiqarish, turli xil traktorlar, mashinalar, samolyot, mebel, neftni qayta ishlash, ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

O'zbekiston kelajagi buyuk mamlakatdir.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

*Abdulla Oripov so'zi,  
Mutal Burhonov musiqasi.*

Serquyosh, hur o'ljam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

### NAQAROT:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamон,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona-yurt, mangu bo'l obod!

### NAQAROT:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamон,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqda aks etgan moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mang'u osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu — yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang — muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsollari.

3. Yashil rang — tabiatning yangilanishi ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liqidir. Ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida „Nujum ilmi“ taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi xalqimizning ko'p asrlik milliy davlatchilik tajribasi asosida yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi gullagan vodiylar uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o'ng tomonida bug'doy boshoqlari, so'l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir.

Gerbning yuqori qismida Respublika ji psligining ramzi sifatida ~~sakkiz~~ qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir.

Gerb markazida himmat, olижаноблик ва fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, osoyishtalik, yaxshilik, baxtsaodat, eson-omonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandida „O‘zbekiston“ so‘zi bitilgan.

„Gerb“ so‘zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot:

„Gerb“ so‘zi nemischa „Erbo“ so‘zidan olingen bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-nasnga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500- yil muqaddam Erondan Oltoya qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O‘g‘uzxon davrida ham turkcha „Tamg‘a“ so‘zi aynan shu ma’noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy „Tanlangan tarixlar“ nomli kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mol-mulkini o‘g‘illariga ulus sifatida kichik davatlarga bo‘lib, in’om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edilar. Ko‘rinib turibdiki, „Tamg‘a“ so‘zining ma’nosini nemischa „Erbo“ so‘zining ma’nosiga to‘la mos keladi.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### DAVLAT TILI HAQIDA

(yangi tahrirda)

**1- modda.** O‘zbekiston Respublikasining davlat tili O‘zbek tilidir.

**2- modda.** O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3- modda.** O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

**4- modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul oshiriladi.

**5- modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlari zinch yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

**6- modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tillida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va olyi ma'lumot olishni ta'minlaydi.

**7- modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioxva etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

**8- modda.** O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruvin organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruvin organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruvin organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladl.

**9- modda.** Davlat hokimiyati va boshqaruvin organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarining o'zlarini tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

**10- modda.** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya

hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**11- modda.** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagи ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so‘zlash huquqi ta’milnadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

**12- modda.** O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo‘lgan taqdirda — boshqa maqbul tilda beriladi.

**13- modda.** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

**14- modda.** O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’milnadi.

**15- modda.** O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

**16- modda.** Televide niye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

**17- modda.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18- modda.** Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra — boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

**19- modda.** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalar muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

**20- modda.** Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

**21- modda.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

**22- modda.** Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23- modda.** O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahslashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

**24- modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchil shaxslar qonun hujjaligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Toshkent shahri, 1995- yil 21- dekabr.

## ALP ER TUNGA

Alp Er Tunganing miloddan oldingi VII asrda yashab o'tgan g'oyat jasoratlari, g'ayrat-shijoatli, vatanparvar turk hukmdori bo'lganligi haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Forslar Alp Er Tungani Afrosiyob deb ataganlar. Afrosiyob va Alp Er Tunganing aslida bir kishi ekanligidan Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“, Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“ asarlari ham guvohlik beradi. Alp Er Tunga haqida xalq orasida doston ham yaratilgan bo'lib, bizgacha to'liq holda yetib kelmaygan. Ayrim parchalar „Devonu lug'otit turk“ asarida misol tariqasida keltirilgan. Unda tasvirlanishicha, Alp Er Tunga turk beklari orasida nomi mashhuri, baxt-saodatlisi, katta bilim, ko'p hunar egasi bo'lgan hukmdordir.

Alp Er Tunganing ismi va qahramonliklari haqida turli tarixiy manbalar, badiiy asarlarda har xil fikrlar yuritilgan. Ammo bu manbalar Alp Er Tunganing shaxsi, hukmronlik qilgan davlati, yuritgan siyosati to'g'risida yetarlicha ma'lumot bera olmaydi.

Samarqandda Afrosiyob nomi bilan bog'liq shahar xarobalari saqlanib qolgan. Bu xarobalar Samarqandning miloddan oldingi VI asrdan melodiy XIII asrgacha bo'lgan hududi hamda o'sha davr

hayotidan darak beradi. Afrosiyob xarobalaridan uy-joy qoldiqlari, turli-tuman ro'zg'or buyumlari, zargarlik bezaklari topilgan. Ayniqsa, Samarqand hukmdori saroyining xarobalari, uning devorlariga ishlangan ajoyib suratlar diqqatga sazovordir.

Alp Er Tunga vafoti haqida xalq orasida mashhur bo'lgan marsiyadan olingen quyidagi parchalar ham uning buyuk hukmdor bo'lganligidan dalolatdir:

Alp Er Tunga hoqon o'ldimi,  
Yovuz ochun ortda qoldimi.  
Falak undan o'chin oldimi,  
Endi g'amgin yurak yonadir!

Zamon qurg'ur fursat poplaydi,  
Unga maxfiy tuzoq shaylaydi.  
Beklar begin yerga joystacki,  
Qochib qaydan imkon topadir?

Endi putur ketdi zamondan,  
Ellar azob chekar yomondan.  
Mehr-u shafqat kutma nodondan,  
Jahongir Er o'tar olamdan.

## SPITAMEN

Spitamen O'rta Osiyo xalqlari tarixida Aleksandr Makedonskiyga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni boshchisi sifatida nom qoldirgan. Qo'rqmas xalq qasoskori boshchiligidagi qo'zg'olonchilar makedoniyaliklarni ko'plab marta janglarda mag'lub etganlar.

Grek va Rim tarixchilari asarlarida Spitamenning qaysi shahar yoki qishloqdan ekanligi aniq yozilmagan. Ammo u asosan Politamet (Zarafshon) daryosi bo'yalarida, Maroqand (Samarqand) shahri atroflarida kechgan voqealar tasvirida ko'plab tilga olinadi.

Aleksandr qo'shinlari qancha-qancha shaharlarni, yurtlarni osongina bosib olgan, ammo Sug'diyonani egallash ularga oson bo'lmaydi. Ular bu yerda xalqning qattiq qarshiligiga uchrab, ko'pdan-ko'p talofat ko'radilar. Spitamen boshchiligidagi jangchilar hech kutilmagan paytda va joylarda paydo bo'lishar, dushmanga qaqshatqich zarba berishar va yana tutqich' bermay, qutulib ketishar edi. Spitamen jasur, farosatli, tadbirkor, ayni choqda juda hushyor va ziyrak edi. Uning qo'shinida O'rta Osiyoning

mahalliy aholisi bo'lgan massagetlar, skiflar, daklar, saklar, sug'dlar o'zaro birikib, harakat qilar edilar. Ular Spitamenni o'zlarining haqiqiy xaloskorini deb bilardilar.

Spitamen boylikka qiziqmas, qo'lga tushgan o'ljalarni jangchilarga bo'lib berar edi. U nafaqat dushmanlarni, balki sotqinlik qilgan yurtdoshlarini ham ayamas edi. Spitamen Aleksandrga O'rta Osyo qabilalarining nimalarga qodirligini amalda ko'rsatdi. Vatanini, xalqini sevishni, o'z qishlog'ini, shahrini, yurtini ardoqlashni o'rta osiyoliklardan o'rganish kerakligini isbotladi.

Spitamening o'limi haqida ham turli xil rivoyatlar mavjud. Ba'zi rivoyatlarda u o'z xotini tomonidan o'ldirilgan deyilsa, ayrimlarida sotqin qabiladoshilari tomonidan qatl etilgan deyiladi. Sharqning jasur, yengilmas, vatanparvar, mard o'g'loni Spitamennenning nomi, uning dushmaniga qarshi ko'rsatgan qahramonliklari necha asrlardan beri tildan-tilga, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

## TO'MARIS

Eng qadimgi zamonlarda Araks (Amudaryo) yoqalarida boshqa qabilalar qatori massagetlar ham yashar edilar. Ularga marhum podshoning bevasi — malika To'maris boshchilik qilar edi. Tabiatiga go'zal bu yurtga va uning xalqiga egalik qilmoqchi bo'lgan Eron shohi Kir malika To'marisga uylanmoqchi bo'ladi. To'maris uning asl maqsadini fahmlab, taklifni rad etadi. Kir esa massagetlar yurtiga qo'shin tortib keladi. Malika To'maris uni mudhish niyatidan qaytarishga urinadi. Kirning o'z fikridan qaytmasligini bilgan To'maris uning o'z qo'shinlari bilan daryodan massagetlar yurtiga o'tishiga imkon beradi. To'maris o'z yurtdoshlari bilan daryodan uch kunlik yo'lga borib turadi. Kirning qo'shini massagetlar yurtiga o'tib olgach, urush tadbirlarini ko'radi. Kir hiyla ishlatib, To'marisning o'g'li Sparganisni yigitlari bilan asir qilib oladi. Hiyla bilan asir tushganligini fahmlagan Sparganis uyatdan o'limni afzal ko'rib, o'zini o'ldiradi. Bu voqeadan xabar topgan To'maris Kirning qo'shini bilan urushga chiqadi.

Malika To'maris bosqinchisi Kirga qarshi: „Sening qonga tashnaligingni qondiraman“, deb ont ichadi.

Malika To'maris qo'shini bilan Kir jangchilari o'rtasida dahshatli to'qnashuv bo'ladi. Jangda o'z yurti, o'z ozodligi uchun o'limdan ham qaytmaydigan massagetlar g'olib chiqadi. Eron shohi Kir o'ldiriladi. Uning jangchilari qurol-aslahalarini tashlab qochadilar. O'z qazamiga sodiq malika To'maris esa ayovsiz jangda o'ldirilgan bosqinchisi Kirning boshini kestirib, qon bilan to'ldirilgan meshga soldiradi.

O'z yurtini, xalqini sevgan, uning ozodligi uchun erkaklar kabi janglarda qatnashgan malika To'marisdek mard xotin-qizlar bu yurtda ko'plab o'tishgan. Shuning uchun ham xalq ularning qahramonliklari haqida qo'shiqlar, dostonlar, rivoyatlar to'qigan.

## SHIROQ

O'rta Osiyoning xalqlari qadim-qadim zamonlardan o'zlari tug'ilib o'sgan yurtni tashqi dushmanlardan mardonavor himoya qilganlar. Bu janglarda qo'shni qabilalar — skiflar, massagetlar, sug'dlar, saklarning qo'rquv nima bilmas yigitlari beqiyos mardlik va jasorat ko'rsatganlar. Tarixda ba'zan bir kishining butun bir qo'shinga bas kelgan hollari ham bo'lgan. Bunga oddiy cho'pon yigit Shiroqning ko'rsatgan qahramonligi misoldir.

Doro qo'shini bilan saklar o'rtasida qaqshatqich urush borar edi. Sak podachilaridan Shiroq o'z podsholari Sakesfor Omarg huzuriga kelib, Eron qo'shinini bir o'zi hiyla bilan halok etajagini aytadi. Buning evaziga podsholardan o'zining oilasi, bolalari, avlodiga g'amxo'rlik qilish to'g'risidagi va'dalarini oladi. Shundan so'ng Shiroq ular oldida o'zining quloq, burunlarini kesib, butun a'zoyi badaniga ozor yetkazadi. O'zini rosa qiy nab, azoblangan holatga keltirgach, Eron qo'shini joylashgan tomonga ketadi.

Hamma yog'i qonga belangan Shiroq Eron shohi Doroga arz qilib, uni qabiladoshlari shunday ahvolga solganliklarini aytadi. U saklardan o'ch olish maqsadida Doro qo'shinini saklar yashiringan joyga boshlab borishga ahd qilganligini ma'lum qiladi. Unga ishongan Doro qo'shini bir haftalik oziq-ovqat, suv olib, yo'lga tushadi. Uzoq yo'l yurgach, Doro qo'shinining oziq-ovqatlari, suv va otlarga beradigan yemishlari tugaydi. Atrof esa suvsiz quruq qum va hech narsa o'smag'an sahro edi. Shunda Doro jangchilari jasur cho'pon yigit Shiroqning hiylasidan voqif bo'ladilar. G'azablangan dushman jangchilari uni qatl etadilar.

Shunday qilib, cho'pon Shiroqning bir o'zi vatandoshlarini saqlab qoladi va bosqinchchi Eron qo'shinining ochlik, suvsizlikdan qirilib ketishiga sabab bo'ladi.

## O'RUXUN-ENASOY BITIKLARI

O'zbeklar ham mansub bo'lgan turkiy xalqlarning tarixi juda qadimiydir. Turkiy xalqlar eng qadimgi davrlarda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha, Xitoydan Sibirgacha bo'lgan katta hududda yashaganlar. Buni hozirgi davrda turklar, o'zbeklar, qozog'lar, turkmanklar, qirg'izlar, tatarlar (qrim, qozon, boshqird,

cho'lim), chuvashlar, ozarbayjonlar, gagauzlar, yoqutlar, uyg'ular, qoraqalpoqlar kabi millatlar yashayotgan uzoq-yaqin hududlar ham tasdiqlaydi.

Turkiy xalqlarning qadimgi adabiy tili to'g'risida ma'lumotlar beruvchi ko'pgina nodir odibalar bizgacha yetib kelgan. Bu obidalar turli davrlarda hamda turli xil yozuvlarda bitilgan. Shunday obidalarning eng qadimiylari sirasiga qadimgi turk-run bitikalri kiradi. Ular asosan O'rxun (Mo'g'iliston) va Enasoy (Rossiya) daryolari bo'ylaridan topilganligi uchun O'rxun-Enasoy bitiklari deb yuritiladi. Ular turk hukmdorlari, ularning qarindoshlari qabrligiga qo'yilgan toshlar, yog'och buyumlar va qoyalarga yozib qoldirilgan xatlardan iborat. Bunday yodgorliklar boshqa joylardan ham topilgan.

Turk xoqonligi tarixi haqida, turkiy adabiy til to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beruvchi To'nyuquq, Bilga hoqon, Kul tigin, Ungin, Kuli chur, Moyin chur bitiktoshlarining ahamiyati juda katta. Ularda qahramonlik, vatanparvarlik, turkiylarning dushman qabilalar bilan kurashi, turk hoqonlarining o'z xalqi oldidagi xizmatlari, ularning donoligi, tadbirkorligi, jasurligi, harbiy yurishlari, muvaffaqiyat va mag'lubiyatlari, hokimiyatni mustahkamlash, qabila va urug'larni birlashtirish, o'zaro urushlarni tugatish uchun qilgan ishlari, ittifoq bo'lib yashash to'g'risidagi orzu va intilishlari g'oyat ta'sirli hikoya qilingan. Shu bilan bir qatorda, bu bitiklar o'sha davr turkiy tili, yozushi, madaniy hayoti, urf-odatlarini o'rganish uchun ham muhim manba vazifasini o'taydi. Turkiy xalqlarning mazkur qadimiy yozushi VIII asrgacha amalda qo'llangan. Tarixiy manbalarda bu yozuv „Dulbarjin“ yozushi nomi bilan ham qayd etilgan. Bu yozuvda 41 ta harf bo'lib, 5 tasi unli, qolganlari undosh harflardir. U yuqorida pastga yoki o'ngdan chapga qarab yozilgan hamda o'qilgan.

## MUSO AL-XORAZMIY

Abu Abdullo Muhammad ibn al-Xorazmiy 783- yili Xorazmda tug'ilgan. U dastlabki ma'lumotni ona yurtida olib, ilmiy kuzatishlarini o'sha davr ilm markazi bo'lgan Bag'dodda davom ettirgan. Bag'dodda O'rta Osiyodan borgan o'nlab mashhur olimlar faoliyat ko'rsatar edi. Tabiiy fanlarni chuqur o'rgangan Muso Xorazmiy o'zining ilmiy salohiyati bilan tez orada bu olimlarning nazariga tushadi, nodir asarlari bilan peshqadam, yo'lboshchisiga aylanadi.

Qomusiy olim yaratgan o'nlab asarlardan bizgacha faqat o'ntasigina yetib kelgan. Xorazmiy dunyo faniga ulkan hissa qo'shgan

olimdir. U algebra fanining asoschisi hisoblanadi. „Algebra“ so‘zi uning „Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala“ nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozitsiyon hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga asos bo‘lgan. Olimning „al-Xorazmiy“ nomi esa „algoritm“ shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o‘nlab geografik asarlarning yaratilishiga asos bo‘ldi. Xorazmiyning „Zij“i Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi.

Buyuk qomusiy olim Xorazmiy Xalifa al-Ma’mun asos solgan ilmiy markaz „Bayt ul-hikma“ning mudiri sifatida ulkan ilmiy kuzatishlarga rahbarlik qildi. Bu ilmiy markazda Suriya, Iroq, Eron va boshqa joylardan kelgan olimlar ham faoliyat ko‘rsatishgan bo‘lsa-da, O‘rta Osiyodan borgan olimlar ko‘pchilikni tashkil etgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning „Zij“idir. Asar 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Unda Quyosh, Oy va besh sayyora-ning harakati, tezligi, geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari, matematik geografiya, trigonometriya, munajjimlik va boshqa shu kabi o‘ta dolzarb muammolar ilmiy asoslab berilgan. Olimning bu asariga al-Farg‘oniy, al-Hoshimiyl, al-Beruniylar juda yuksak baho berishgan.

Xorazmiyning geografiyaga oid „Kitob surat-ul-arz“ asarida shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatalari keltiriladi. Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to‘la riosa etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qilib bergen. U yerning insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Uning geografik risolasi o‘rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Olimning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda geografiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Biroq bu asar shu paytgacha hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan edi. 1983- yili olimning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan O‘zbekistonda bu asarning o‘zbekcha tarjimasi uning „Tanlangan asarlar“i tarkibida nashr etildi.

O‘zining qomusiy bilimi va yaratgan nodir asarlari bilan o‘z davri olimlarining cheksiz hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan Muso al-Xorazmiy 850- yili Bag‘dodda vafot etgan.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g‘arb va sharq tillariga tarjima etilgan. U o‘z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o‘z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug‘i,

o‘z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi. Uning nomiga Eron, Turkmaniston, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarda mukofotlar, medallar ta’sis etilgan, muassasalar, korxonalar va ko‘chalarga nomi qo‘yilgan.

### AHMAD AL-FARG‘ONIY

To‘liq nomi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan olimlar ichida mashhurlaridan biri bo‘lib, taxminan 797- yili tavallud topgan. Uning hayoti va ijodiy-ilmiy faoliyati haqida juda kam ma’lumotlar yetib kelgan.

Hozirgacha al-Farg‘oniyning sakkiz asari ma’lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiya ilmiga bag‘ishlangan va birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilingan. Uning asosiy astronomik asari „Samoviy harakatlar va umumiyligi ilmi nujum kitobi“ XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinganidan so‘ng, uning nomi „Alfraganus“ shaklida G‘arbda keng tarqalib, katta shuhrat tutadi. Uning kitobi Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘taydi.

Yevropa uyg‘onish davrining namoyandalaridan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ruzalarini al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Qomusiy olimning nomi Dante va Shiller asarlarida ham hurmat bilan tilga olinadi.

Ahmad al-Farg‘oniyning vafot etgan yili ham aniq emas. O‘scha davrda yaratilgan asarlarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, taxminan 865- yilda vafot etgan degan xulosaga keltingan.

Ahmad al-Farg‘oniyning „Samoviy harakatlar va umumiyligi ilmi nujum“ (bu kitobni „Astronomiya asoslari haqida kitob“ deb ham yuritganlar) asari astronomiyadan eng sodda darslik bo‘lib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlang‘ich ma’lumotlarni o‘zlashtirishni ancha osonlashtirgan. Shuning uchun ham Regiomontan universitetlardagi ma’ruzalari uchun asosiy manba sifatida shu kitobni tanlagandir.

Ahmad al-Farg‘oniyning mazkur asari Yevropa Uyg‘onish davrida va undan keyingi davrlardagi madaniyat, ilm rivojida alohida o‘ringa ega bo‘ldi. Ayniqsa, asarning iqlimlar nazariyasiga ko‘ra bayon qilingan geografik bo‘limi diqqatga sazovordir. Unda yetti iqlimning hammasi, ulardagi mamlakatlar, viloyatlar, shaharlar

batafsil bayon etiladi. Iqlimlarning al- Farg‘oniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiynikidan farq qiladi. Uning mufassal tavsifi orqali VIII asrda mavjud bo‘lgan mamlakatlar, shaharlar va yerning tabiiy sharoitini o‘rganishimiz mumkin.

Ahmad al-Farg‘oniyning nomi al-Xorazmiy kabi butun Sharq va G‘arbda mashhurdir. O‘rtalarda, tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo‘shtan qomusiy olim sifatida ilmiy-tarixiy manbalarda, so‘nggi g‘arb va sharq olimlari asarlarida, O‘zbekistonda zo‘r g‘urur va iftixon bilan tilga olinadi, asarlari o‘rganiladi. Uning nomini abadiylashtirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

### HADISCHI VATANDOSHLARIMIZ

Hadis — islom dini ta’limoti bo‘yicha Qur’ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Unda Muhammad payg‘ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek, uning diniy va axloqiy ko‘rsatmalari bayon etiladi. Mana shunday ko‘rsatmalar to‘g‘risidagi rivoyatlarga **hadis** deyiladi.

Hadis ilmining olti yirik targ‘ibotchilaridan uchta eng mashhuri vatanimizdan yetishib chiqqan olimlardir. Bular — Dorimiy as-Samarqandiy (797—868), Ismoil al-Buxoriy (810—870), Imom at-Termiziy (824—892).

Muhammad payg‘ambarning hayoti, faoliyati, uning diniy va axloqiy qarashlari bayon etilgan hadislarni og‘zaki an‘analardan kitob holiga keltirish VIII asrdan keng avj oladi. Bu davrga kelib islom olamining turli joylaridan hadis ilmining yirik targ‘ibotchilari va mualliflari yetishib chiqadi. Ana shunday mashhur hadischilar ichida vatandoshimiz, favqulodda noyob iste’dod egasi Imom al-Buxoriy eng oldingi o‘rinda turadilar.

**Imom Ismoil al-Buxoriy** 810- yil 20- iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. U 10 yoshidan hadis ilmiga ishtiyoq sezib, eshitgan har bir hadisni yodlab borgan. 16 yoshga yetganida o‘sha davrning eng mashhur hadischi olimlarining hadis to‘plamlarini yod olgan. Imom al-Buxoriy 18 yoshida „Qazoyi as-sahobat vat-tobi”in“ („Sahobatlar va tobi”in masalalari“) va „Tarixi kabir“ („Katta tarix“) kitoblarini Madinada — Muhammad payg‘ambarning maqbarasi yonida yashab turib yozgan. Makka, Madina shaharlaridan tushqari, Shom, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi rivojlangan madaniyat markazlariga boradi, olimlardan ta’lim oladi, toliblarga dan beradi.

Imom al-Buxoriy bir eshitgan darsini bir umr xotirasiga muhurlab olish qobiliyatiga ega edi. U chet el safarlaridan qaytgach,

Buxoro ulamolari undan tahsil ola boshlaydilar. Ammo Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhayl bilan orasi buzilib, Samarqandning Xartang qishlog‘idagi qarindoshlarinikiga ko‘chib keladi. Ulug‘ hadischi olim Imom Ismoil al-Buxoriy 870- yil 10- sentabrda 62 yoshda vafot etadi. Uning yashab vafot etgan joyi — Samarqand viloyati Chelak tumanida Xo‘ja Ismoil nomi bilan mashhur ziyyaratgoh bor. Uni ziyyarat etish uchun dunyoning barcha musulmon mamlakatlaridan har yili minglab ziyyoratchilar kelib turishadi. Imom Buxoriydan axloq-odob, din va madaniyatga oid o‘nlab qimmatli asarlar meros qoldi. Uning „Al-Jomi‘ as-sahih“ („Ishonarli to‘plam“) nomli 4 jilddan iborat hadislar to‘plami islam olamidagi boshqa mualliflar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va eng mukammalidir. Unga mavjud 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli hadislar kiritilgan.

**Imom at-Termiziy** 824- yili Termiz shahrida tug‘ilgan. Yoshlik chog‘laridan ilmga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qaraydi. Samarqand, Buxoro, Marv, Termiz va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi mashhur ulamo va hadischi olimlarining asarlarini qunt bilan o‘rganadi. U hadis o‘rganish maqsadida islam dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qiladi. Hijoz, Iraq, Xuroson va boshqa joylarda mashhur hadischi, ulamolar bilan muloqotda bo‘ladi, ulardan ta’lim oladi. Imom at-Termiziy ham umri davomida ko‘plab asarlar yozib, islam dini haqida, payg‘ambar Muhammad alayhissalom to‘g‘risida ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning asarlari ham Muhammad alayhissalom to‘g‘risida mukammal ma’lumot beruvchi eng muhim qo’llanmalardandir.

Hadislar faqat diniy xarakterga ega bo‘lib qolmasdan, ularda tarbiya, axloq, odob, o‘zaro do’stona munosabatlar, qarindoshlar, ota-onalar va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibatlari, halollik, poklik, adolat, insof-diyonatni targ‘ib qilish, razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg‘onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan. Hadischi vatan-doshlarimizning amalga oshirgan ishlari musulmon olami uchun ulkan ahamiyatga ega.

### RASULULLOH ALAYHISSALOM AYTADILAR:

Chaqirilgan joygagina boring.

Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir.

Dunyodan o‘tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar.

Nonni e’zozlanglar.

Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir.

Beshta narsadan oldin beshta narsani: o'limdan oldin tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin bo'sh vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni g'animat biling.

Avvalo onangga, yana onangga, va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil.

Ayollarga erkaklar o'z tug'ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo'lishlari kerak.

Taomning barakasi — undan oldin va keyin qo'l yuvishdir.

Barcha balo tildandir.

Mo'minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so'rasa berish, aksa ursa javob aytish, kasal bo'lsa borib ko'rish, o'lsa borib dafinida qatnashish.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do'zaxga mahkumdir.

Pashsha kallasichalik narsa berib bo'lsa-da, gadoyni quruq qaytarmanglar.

Qabristonni ziyyarat qilib turinglar, zero u sizlarga oxiratni eslatadi.

O'lib ketganlarni haqorat qiluvchi odamlar o'zi halokatga yaqindir.

Uyiga mehmon qo'nmaydiganlar yomon odamlardir.

So'zda sehr bor, she'rda hikmat bor.

O'lim dahshatli hodisadir. Qachonki tobutni ko'rsalaringiz darhol (hurmat yuzasidan) o'rinalaringizdan turing.

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o'rtalaringda mehr-u muhabbat uyg'onur.

Qur'oni o'qib, unga amal qilinglar. Undan uzoqlashib ham ketmanglar, uning ma'nosiga chuqur ma'no berarman deb xato va mubolag'aga berilib ham ketmanglar. Uni tirikchilik vositasi qilib olib, mol-u dunyo orttirishga ham o'tmanglar.

Rashk imondandir. Rashksizlik munofiqlik alomatidir.

Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

Hunni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir.

Kimki otasining vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istan, uning yor'u birodarları bilan aloqani uzmasin.

Ko'rgan-bilgani haqida guyohlik berishdan bosh tortgan odam yole'on juvohlik bergan bilan barobardir.

## FOROBIY

Abu Nasr al-Forobiy 873- yili Shosh (Toshkent) shahriga yaqin qishloqda harbiy turkiy oilada tug'ildi. U boshlang'ich ta'llimni Shosh va Buxoro shaharlarida olib, boshqa shaharlarda mashhur olimlardan tahsil olishni davom ettirdi. U Bag'dodda falsafiy ilmlarni, ayniqsa yunon olimlarining falsafiy merosini, ko'plab boshqa fanlarni chuqur egalladi. Forobiy ko'p yillar Damashqda yashab, ilm bilan shug'ullanadi va 950- yili shu yerda vafot etadi.

Forobiy matematika, tibbiyat, astronomiya, kimyo, mantiq, musiqashunoslik, falsafa va boshqa fanlarga doir 160 dan ortiq ilmiy meros qoldirgan. Ammo ularning atigi qirqqa yaqini bizgacha yetib kelgan.

Forobiy asarlarida ijtimoiy masalalar — jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, davlatni boshqarish usullari, san'at, musiqa, etika, siyosat, psixologiya, tabiatshunoslik hamda falsafaga doir nodir ilmiy qarashlar keng yoritilgan. Forobiy tarixda Aristoteldan so'ng „ikkinchi muallim“ deb tan olingan olimdir. Uning asarları XII asrdan boshlab qadimgi yahudiy va lotin tiliga, keyinroq ingliz, fransuz, nemis, fors, turk, rus, urdu, o'zbek, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Forobiy arab mamlakatlarda mashhur arab mutafakkiri sifatida e'zozlansa, Turkiyada mashhur turkiy olim sifatida yuksak qadrlanib kelingan. Forobiy til o'rganishdan, kitob mutolaa qilishdan hech charchamagan. Ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilda erkin so'zlashgan. Bir asarni tushunib yetmagunicha yuz marta o'qishdan ham zerikmagan.

Forobiy Aristotelning barcha falsafiy, tibbiy, ilmiy-nazariy asarlariga, Ptolomeyning osmon jismi harakati, Aleksandr Afrodiziyaning ruh va psixologiyaga oid, Evkledning geometriyaga, Galenning tibbiyotga, Platon va Gippokratning asarlariga ilmiy talqinlar yaratgan. XII—XIII asrlarning yirik tarixchisi Boyhaqiy: „Abu Nasr o'z ta'llomi evaziga „ikkinchi muallim“ deb nom olgan. Islomda unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas“, deb yozgan edi.

1970—71- yillarda Forobiyning ona yurti — O'rta Osiyoda uning 1100 yillik qutlug' sanasi nishonlandi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar o'tkazilib, ko'plab ilmiy ishlar, kitoblar nashr etildi. Hozirgi paytda uning ilmiy merosi oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida chuqur o'rganilmoqda.

## ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973- yili Xorazmda tug‘ildi. Beruniy yashagan davr Xorazmning va butun O‘rta Osiyoning arablar hukmdorligidan ozod bo‘lgan paytiga to‘g‘ri keladi. U dastlabki chuqur va keng qamrovli ma’lumotni Xorazmning yirik madaniyat hamda savdo markazi Urganch shahrida oladi. Beruniy arab, sug‘diy, fors va qadimgi yahudiy tillarini yaxshi bilgan. U buxorolik buyuk olim Abu Ali ibn Sino bilan yaqin do‘sit bo‘lib, ilmiy aloqada bo‘lgan. Beruniy 18 yoshidan boshlab Xorazm rasadxonasida ilmiy kuzatishlar olib borgan. 19 yoshida esa „Ajdodlarimiz xotirasi“ nomli birinchi asarini yozgan. Shohlarning o‘zaro urushlari iste’dodli olimning bir joyda yashab, ilmiy ishlari bilan shug‘ullanishiga to‘sinqinlik qilgan. U o‘z yurtidan uzoqlarda — Bag‘dodda, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yashab, dunyo ilm ahlini hayratda qoldirgan ilmiy asarlarini yaratgan.

Beruniy barcha ko‘rgan narsalari va kuzatgan hodisalari, olib borgan ilmiy ishlari asosida 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ularda matematika, astronomiya, fizika, geografiya, kartografiya, umumiy geologiya, mineralogiya, botanika, farmakologiya, tibbiyot, iqlimshunoslik, etnografiya, tarix, falsafa, filologiya kabi ko‘plab fanlarga oid qimmatli ilmiy xulosalar yoritilgan.

Beruniy birinchi bo‘lib Yerning Quyosh atrofida aylanishini aytgan. Yer aylanasining uzunligini aniqlab bergen. Uning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ nomli asarida ko‘pgina xalqlarning islom dinigacha bo‘lgan tarixi, madaniyati, kalendarlari haqida ajoyib ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning „Hindiston“ asari Hindistonning ilk o‘rta asrlar tarixiga doir muhim manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048- yili 75 yoshda vafot etdi. Beruniy o‘zining o‘lmas asarlari bilan jahonning eng buyuk olimlari safidan o‘rin oldi. U sharqda birinchi bo‘lib Yerning shar shaklida ekanligini aniqladi, eni 5 metr keladigan globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi. Oy va Quyoshning tutulishi sabablarini izohladi, dunyoning querida qanday boyliklar borligini aytib berdi. Uning asarlari dunyoning ko‘pgunu tillariga tarjima qilingan hamda ko‘plab mosalarda nashri etilgandir. Buyuk olimning tug‘ilganiga ming yil to‘lini butun jahon foni va madaniyati tarixidagi katta voqealari sifatida keling nihonlandi.

## ABU ALI IBN SINO

Abu Ali ibn Sino 980- yili Buxoro shahri yaqinidagi Afshona (hozirgi Peshku tumani) qishlog‘ida tug‘ildi. Uning bolalik va o‘smirlik yillari Buxoro shahrida o‘tdi. U yoshligidanoq o‘z davrining buyuk olimlari asarlarini o‘qib-o‘rgangan. 16 yoshida ilm-fanning ko‘pgina sohalarini egallab iste’dodli tabib sifatida taniladi. Og‘ir dardga chalingan Buxoro shohi Mansurni davolab, buning evaziga shohning boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yosh tabib bu yerda o‘z bilimini yanada boyitadi.

Ibn Sino Buxoroda uzoq yashamadi. Zamonning notinchligi tufayli u Urganch, Nishapur, Hamadon, Ray, Isfahan kabi shaharlarda yashashga majbur bo‘lgan. Ibn Sino zamonasining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy bilan tanishadi va ular orasida do‘stlik hamda ilmiy aloqa bog‘lanadi.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matemetik, faylasuf va shoir sifatida dunyoga mashhur olimdir. U umri davomida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Uning asarlari tibbiyot, yulduzlar ilmi, matematika, kimyo, geografiya, musiqa, falsafa, mantiq, psixologiya va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangandir. Ibn Sinoni mashhur qilgan asari „Tib qonunlari“dir.

Ibn Sinoning 5 qismdan iborat „Tib qonunlari“ kitobi ko‘p asrlar davomida Yevropa va qator Sharq mamlakatlarda tibbiyotdan asosiy darslik bo‘lib keldi. Bu asar juda ko‘p tillarga tarjima qilinib, ming-minglab nusxalarda nashr etilgan. Faqatgina lotin tilida 30 martacha nashr etilganligi ma’lum.

Butun kuch-g‘ayratini ilmgaga bag‘ishlagan, xalq xizmati yo‘lida o‘z sog‘ligini o‘ylamagan buyuk mutafakkir olim 1037- yil 18-iyun kuni olamdan o‘tdi. 1980- yil butun insoniyat qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning 1000 yillik qutlug‘ sanasini keng nishonladi. Uning asarlari qayta-qayta nashr etilib, xalqqa yetkazilmoqda. Ibn Sinoning muborak nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi.

## IBN SINO SHE’RLARIDAN NAMUNALAR

Otalik xizmati nimadir bilsang:  
Bor-yo‘g‘in farzandga bermak beminnat.  
Lek otadan o‘pka qilmasin farzand,  
Zamona keltirsa boshiga kulfat.

Qaro yer qa’ridan to avji Zuhal —  
Koinot mushkulun barin qildim hal.

Ko‘p mushkul tugunni angladim, yechdim,  
Yechilmay qolgani birgina ajal.

Olamning sayriga qo‘ydimki qadam,  
Qarshimda namoyon bo‘ldi har ne bor.  
Hayratimda qo‘lim tutgan soqoldan  
Boshqa biror narsa bo‘lmadi oshkor.

May mastga dushman-u hushyorga yordir,  
Ozi taryok, ko‘pi bir zahri mordir.  
Ko‘p bo‘lsa zarari oz emas uning,  
Oz bo‘lsa undan ko‘p manfaat bordir.

### MAHMUD KOSHG‘ARIY

Turkiy tillarni o‘rganishga asos solgan mashhur olim Mahmud ibn Muhammad Koshg‘ariy XI asr boshlarida Balasog‘unda dunyoga keldi. Uning bobosi asli qoshg‘arlik bo‘lib, Balasog‘unga ko‘chib kelgan edi. Mahmud Koshg‘ariy yoshligidanoq ilmga qiziqdi. U til va adabiyot ilmiga alohida muhabbat bilan qarardi. Dastlab Qoshg‘ar, keyin Samarcand, Buxoro, Nishapur, Marv va Bag‘dodda tahsil oladi. U turli ilmlar bilan shug‘ullanadi. Mahmud Koshg‘ariy fan olamiga tilshunos olim sifatida kirib keldi. Davrining eng iste‘dodli olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarga bag‘ishlab ikki nodir asar yozib qoldirgan. Uning „Turkiy tillarning sintaksis durdonalari, qoidalari“ nomli asari hozirgacha topilgani yo‘q. Unjing nomini olamga tanitgan „Devonu lug‘otit turk“ nomli ikkinchi asari 1914- yili Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.

„Devonu lug‘otit turk“ asari 1076—77- yillarda yozib tugal-langan. Olim yashagan davrda ilmiy asarlarni arab tilida yozish an‘anaga aylangan edi. Shunga ko‘ra bu asar turkiy tillar haqida bo‘lishiga qaramay, arab tilida yozilgandir. Asar muqaddima va lug‘at qismlaridan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sabablari, ish usuli, lug‘atning tuzilishi, turkiy qabilalar haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Lug‘at qismida esa olti mingdan ziyod turkiy so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolari arab tilida izohlangan. Undagi so‘zlar va grammatik xususiyatlar boshqa turkiy tillar qatori o‘zbek tiliga ham aloqadordir. Bu asar faqat tilshunoslар uchun muhim manba bo‘lib qolmasdan, turkiy tillar tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jihatli, urf odati, geografiyasi, tabiiy sharoiti, etnografiyasi, og‘zaki ijodi to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar beradi.

Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va ilmiy merosi haqida juda kam ma‘lumotlar yetib kelgan. Uning „Devonu lug‘otit turk“

asari nemis, turk va o‘zbek tillarida uch tomlik kitob holida nashr etilgan. Respublikamizda katta tilshunoslik instituti, korxonalar, maktablar va bir qancha ko‘chalar buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy nomi bilan ataladi.

### „DEVONU LUG‘OTIT TURK“ ASARIDAN NAMUNALAR

Bordi qadim donolar,  
Tog‘day yuksak bilimda.  
Eslab o‘gitlarini  
Quvonch ortar dilimda.

Buzildi bu zamonlar,  
Avj oldi ko‘p yomonlar.  
Kamayib bilimdonlar,  
Ilm-u hikmat yo‘qoldi.

Kelsa birov yo‘qlashib,  
Bergil yaxshi ozuq, non.  
Qarg‘ab ketar mehmonlar,  
Kutar bo‘lsang gar yomon.

Boqmas jahon sovuq so‘z,  
Shilqim, yuzsiz baxilga.  
Yoqimli bo‘l, xushxulq bo‘l,  
Qolsin noming ko‘p yilga.

### YUSUF XOS HOJIB VA AHMAD YUGNAKIY

Yusuf Xos Hojib XI asrning 20- yillarida Balasog‘unda (Qirg‘izistonning hozirgi To‘qmoq shahri yaqinida) tug‘ilgan. U yoshligidan boshlab fors-tojik, arab’tillarini, badiiy adabiyotlarni, astronomiya, geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya kabi fanlarni qunt bilan o‘rgandi. Yusuf Xos Hojib turkiy qabila va xalqlarning tilini chuqr o‘rgandi. U adabiy til uchun, turkiy tilning madaniy hayotda yanada kengroq o‘rin olishi uchun kurashdi. Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotning tajriba hamda an’analardan ilhomlanib, mashhur „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga yo‘llovchi bilim“) dostonini yaratdi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risida hozirgacha „Qutadg‘u bilig“dan boshqa biror tarixiy manbada ma’lumot yo‘q. „Qutadg‘u bilig“ turkiy tilda yaratilgan qadimiy

katta hajmli badiiy asardir. Doston o‘z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar deb baholangan va turkiy „Shohnoma“ deb yuritilgan. Doston 6500 bayt — 13000 misradan iborat bo‘lib, 73 bobga bo‘lingan. Uning mavzulari rang-barang. Asarda oddiy xalq, mehnatkash insonlar, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar katta hurmat bilan tasvirlangan.

„Qutadg‘u bilig“ jahoning ko‘plab xalqlari tillariga tarjima qilingan. Asar O‘zbekistonda 1971- yilda to‘liq holda nashr etilgan. Bu asar XI asrda O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan turkiy xalqlar hamda qabilalar tilining muhim yodgorligi sifatida katta ahamiyatga egadir.

Turkiy tilda yaratilgan qadimiy yirik didaktik asar „Hibatul-haqoyiq“ („Haqiqatlar armug‘oni“)ning muallifi Ahmad Yughnakiyning hayoti va faoliyati haqida oz ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ahmad Yughnakiy iste’dodli shoir va donishmand murabbiy bo‘lgan. U o‘z dostonida ilm-fanni yoqlaydi, olimlar va fozillarni ulug‘laydi, ma’rifatparvarlikni targ‘ib qiladi, kishilarni ilmli, ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi, johillikka qarshi kurashadi. „Hibatul-haqoyiq“ dostoni 235 baytdan iborat bo‘lib, 11 bobni tashkil etadi. Asarning badiiy tilini „Qutadg‘u bilig“ bilan qiyoslab o‘rganish orqali uni XII asrda yaratilgan deb taxmin qilish mumkin. „Hibatul-haqoyiq“ dostoni ham qadimgi turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorliklaridan hisoblanadi.

## SAVDOGAR—NOMINGNI ELGA YETKAZAR

(„Qutadg‘u bilig“dan)

Bundan bo‘lak guruh qoldi — savdogar,  
Savdo bilan tinmay olar foydalar,  
Ularda bo‘lar bu olam orzusi,  
El-yurt go‘zalligi, sara, ezzusi.  
Tug‘ardan Botarga yetkazib qadam,  
Tilagan tilaging yetkazar bekam.  
Turli-tuman noyob, olam tansig‘i  
Bularda bo‘lar, ey bilimdon, saxiy.  
Bo‘limganda edi bu el barisi,  
Qaydan kelar edi suvsar terisi.  
Xitoy karvoni tug‘ tikmasa agar,  
Qaydan yetar edi ipak-shohilar.

## MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075- yil 19- martda Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog‘ida dunyoga keldi. Otasi savodli taqvodor, diyonatli kishi bo‘lib, qishlog‘idagi masjidda imomlik qilgan. Mahmud dastlabki bilimini otasidan oladi. U og‘ir illat tufayli yoshligidanoq bir oyoq bo‘lib qolaqi va yog‘ochdan yasalgan oyoq bilan yuradi. O‘g‘lidagi ilmgaga bo‘lgan zo‘r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi. Madrasani tugatib, bilimini yanada boyitish uchun Buxoroda o‘qishni davom ettiradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo‘r iste’dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o‘qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallaydi. Xattotlik san’atini mukammal o‘rganadi.

Mahmud Zamaxshariy 1118- yili og‘ir dardga chalinadi. Bu kasallikdan tuzalgach, hukmdorlar xizmati-yu mansab va mol-dunyo tamasidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilmfanga bag‘ishlaydi. Xattotlik san’atini mukammal o‘rganadi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishapur, Shom, Bag‘dod, Hijoz va ikki marta Makkada bo‘ladi. Bu yerlarda dunyo ilmining ulug‘ bilimdonlaridan turli fan sirlarini o‘rganadi, ilmiy ishlarini davom ettiradi, arab tili grammatikasi, lug‘ati, mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o‘rganadi, geografiyaga doir ma’limotlarni to‘plash bilan shug‘ullanadi. Olim ko‘p asarlarini Makkadaligida yaratgan. Shu bois u Jorulloh („Ollohnning qo‘schnisi“) degan sharaflı nomga tuyassar bo‘ladi. U uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o‘stirishdan a’lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va 1144- yil 14- aprelda vafot etadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunosligi, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Uning „Al-Mufassal“ asari arab tili morfologiysi va sintaksisini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham katta shuhrat topgan asarlaridan hisoblanadi. O‘sha davrning o‘zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozondi va arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqaldi.

Az-Zamaxshariy o‘zining „Muqaddimat ul-adab“ asarida ham o‘sha davr arab tilining iste’ molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e’tibor qilgan. Bu asar fors, o‘zbek, mo‘g‘il, turk, fransuz, nemis tillariga tarjima etilgan. S. Ayniy 1921- yili „Mehnatkashlar tovushi“ gazetasiga yozgan maqolasida „Az-Zamaxshariyning „Muqaddimat ul-adab“ asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobaradir“, deb yozgan edi.

Az-Zamaxshariy „Tog‘lar, joylar va suvlar haqida kitob“ asarida geografik joylar, tog‘lar, dengizlar haqida ma’lumot beradi, „Notiqlik asoslari“da lug‘atshunoslik, arab tilining fasohati, mukammalligi haqida, so‘z va frazeologik birikmalari haqida, „Ezgular bahori va yaxshilar bayoni“da adabiyot, tarix va boshqa fanlarga doir hikoyolar, latifalar, suhbatlarni keltiradi, „Aruzda o‘lchov“, „Nihoyasiga yetgan masalalar“, „Maqomlar“, „Nozik iboralar“ asarlarida adabiyotshunoslik, lug‘atshunoslikka oid muammolar haqida fikr yuritadi. „Qur‘on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish“ asari Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan. Qohiradagi butun dunyoga mashhur al-Azhar diniy universitetining talabalari hozir ham az-Zamaxshariyning mana shu asari asosida Qur‘onni o‘rganadilar.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va ilm-fanning turli sohalariga oid o‘lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan „Ustoz ul-arab va-l-ajam“ („Arablar va g‘ayri arablar ustozi“) „Faxru Xvarazm“ („Xorazm faxri“) kabi sharaflı nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar munozaralarida uning fikri inobatga olingan.

## BAHOVUDDIN NAQSHBAND

Naqshbandiya tasavvufiy tariqatining asoschisi Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshband 1318- yilda Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduyon qishlog‘ida tug‘iladi. Keyinchalik bu qishloq uning sharofati bilan Qasri Orifon deb atala boshlaydi. Mutasavvuf olim Xoja Muhammad Boboi Samosiy bu qishloqda Bahovuddin Naqshbandning tug‘ilishini oldindan bashorat qiladi. U tug‘ilgach esa o‘ziga o‘g‘il qilib oladi va tarbiyalaydi. Vafoti oldidan ishончли shogirdi Sayyid Mir Kulolga topshiradi.

Naqshband ta’limotining asosida ixtiyoriy ravishda faqirlik yotadi. Shunga binoan Bahovuddin Naqshband umri bo‘yi o‘z hunari — dehqonchilik bilan kun kechirgan. O‘ziga tegishli katta bo‘Imagan

yeriga bug'doy va mosh ekan. Uyida ham hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Uyida xizmatkor ham saqlamagan. Hazrati Naqshband butun umrini o'z xohishi bilan faqirlik va yo'qsillikda o'tkazgan. U o'zining „Dil ba yor-u, dast ba kor“ — ya'ni „Ko'ngling ollohdha bo'lsin, qo'ling esa mehnatda“ degan aqidasiga qat'iy amal qilgan. Shuning uchun ham o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini yetim yesirlarga, beva-bechoralarga tarqatgan. Hukmdorlardan doimo o'zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon tamagirlik qilmagan. Bahovuddin Naqshband 1389- yili vafot etgan bo'lsa-da, uning tariqati musulmon mamlakatlari bo'ylab keng tarqala bordi.

XIV asrda O'rtta Osiyoda paydo bo'lgan Naqshbandiya ta'limoti Afg'oniston orqali Hindistonga va boshqa mamlakatlarga tez tarqaldi. Naqshbandiya ta'limoti Amir Temuring mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashida, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishida, temuriylar davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etdi.

XV asrning ko'p olim-fozillari, davlat arboblari, san'atkorlari Naqshbandiya ta'limotidan keng foydalandilar, unga o'ta ijobiy munosabatda bo'ldilar. Zahiriddin Muhammad Bobur davrida, undan keyingi XVI—XVII asrlarda bu jarayon ancha tezlashdi. Bu ta'limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo'rlikni, ijtimoiy zulm, istibdodni qat'iyan qoralaydi. Bu ta'limot tarafdorlari tarkidunyochilikka, boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi bo'lganlar, faqat o'z qo'l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun o'tkazishga chaqirganlar. Naqshbandiyalar savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilmma'rifat, xattotlik, naqqoshlik, miniatyurasozlik, quruvchilik kabi foydali va xayrli yumushlar bilan shug'ullanishga da'vat etganlar. Shuning uchun ham o'z davridagi ilm-ma'rifatning, adabiyotning yirik namoyandalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxtumquli Firog'iy singari yuzlab ulkan taraqqiyatparvar, insonparvar shoir va mutafakkirlar Naqshbandiya yo'lini tanlaganlar, hayotni va insonni avji baland pardalarda kuylab, ijod etganlar.

Xoja Bahovuddin Naqshbandni O'rtta Osiyo xalqlari juda yuksak qadrlaydilar. Xalqimiz ul hazratga baland e'tiqod qo'yib, „Bahovuddin—balogardon“, deb uni behad e'zozlaydi. 1993- yilda O'zbekistonda Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi zo'r tantanalar bilan o'tkazildi, unga bag'ishlab qator asarlar nashr etildi, xalqaro ilmiy anjumanlar bo'lib o'tdi. Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklar qaytadan tiklandi.

## SOHIBQIRON AMIR TEMUR

Sohibqiron (baxtli bo‘lib tug‘ilgan, yulduzi charaqlagan) Amir Temur ibn Tarag‘ay Muhammad Bahodir 1336- yil 9-aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahrida barlos urug‘ining nufuzli begi oilasida tug‘ilgan. U amaldor oilasida tug‘ilganligi tufayli dastlab maktabda, so‘ng madrasada o‘qib, o‘z davrining barcha ilmlaridan bahramand bo‘lgan. Ayniqsa, Qur‘on-u hadislarni, fiqh, falakiyot, handasa, riyoziyot, tarix va jug‘rofiya ilmlaridan chuqur xabardor bo‘lgan. She’riyat va shatranjni sevgan. Amir Temurni harbiy ta’lim ko‘proq qiziqtirgan. O‘rta Osiyoda mo‘g‘illar zulmiga barham bergen Amir Temur 1370- yili Movarounnahr amiri deb e’lon qilinadi va Samarqand shahri u tuzgan yangi davlatning poytaxti bo‘lib qoladi.

Amir Temur feodal tarqoqlikka barham berib, o‘rta asrlarning eng yirik davlatini barpo etdi. Uning ulkan davlati sarhadiga Turon, Eron, Rum(Onado‘li), Mag‘rib, Suriya, Misr, Iroqi Arab, Iroqi Ajam, Mozandaron, Seylon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Buyuk Tatariston, Xorazm, Xo‘tan, Qobuliston, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Oq O‘rda, Gurjiston, Armaniston, Oltin O‘rda — jami 27 mamlakat kirar edi.

Amir Temur o‘z davlatini adolat bilan boshqardi. U sultanat ishlarini olib borishda 5 asosiy manbaga tayanadi: mashvarat, shariat, to‘ra-tuzuk, diplomatiya va qattiqqo‘llik. Mojar olimi Herman Vamberi o‘zining „Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi“ kitobida „...Temurni Chingiz ila bir safga qo‘yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir“, — deb haqiqatni yozgan edi. Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiy jihatdan kuchaydi, fan va madaniyat rivojlandi. Xalq hayoti uchun zarur qurilishlar, madrasa ta’limi uning e’tiborida bo‘ldi. U o‘zi zabit etgan mamlakatlarning podsholarini yana taxtga o‘tqazgan yoki surriyotidan podsho tayinlagan. Saltanatning tashqi va ichki siyosatida noiblar, beklar, umuman amaldorlar ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatgan.

Sohibqiron Amir Temurning davlat va qo‘sinni boshqarishga bag‘ishlangan „Temur tuzuklari“ nomli kitobi dunyoga mashhur. Tuzuklar Amir Temurning o‘z davri uchun davlat Konstitutsiyasi edi. Bu asar ko‘pgina sarkarda va davlat arboblari uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘tab kelgan.

Amir Temurning to‘rt o‘g‘li va ikki qizi bo‘lgan: G‘iyosiddin Jahongir, Umarshayx, Jaloliddin Mironshoh, Shohruh, Og‘a begin, Sulton Baxt begin. Amir Temur avlodlaridan ulug‘ davlat arboblari, mashhur olimlar, iste’dodli shoirlar yetishib chiqqan.

Sohibqiron Amir Temur hayotining so'nggi kunlari qabuliga shahzodalar, amur-u ulamolarni chaqirib shunday vasiyat qiladi: „O'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tadbiq eting. Millatning dardiga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. „Adolat va Ozodlik“ dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin ...“

Amir Temur 1405- yil 18- fevral kuni O'tror shahrida shamollashdan vafot etadi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi sohibqiron Amir Temur o'z poytaxti Samarqand shahrida qurilgan Go'ri Amir maqbarasiga, ustozи Mir Sayid Barakaning oyoq uchiga dafn etilgan.

Sohibqiron Amir Temur haqida chet ellarda ham, mamlakatimizda ham yuzlab badiiy va ilmiy asarlar, filmlar yaratilgan, haykallar o'rnatilib, muzeylar tashkil etilgan. Uning tug'ilganiga 660 yil to'lishi munosabati bilan 1996- yil O'zbekistonda „Amir Temur yili“ deb e'lon qilindi. Toshkent va Samarqandda, tug'ilgan yurti Sahrisabzda unga mahobatli haykallar o'rnatilib, muborak qadamjolari, maqbara va machitlari ta'mirlandi, ziyoratgoh joylari ko'paytirildi.

### „TEMUR TUZUKLARI“ DAN

„Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim“.

„Hech kimdan o'ch olish maqomida bo'lmadim. Tuzimni totib menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Ish ko'rgan, shijoatl er-yigitlarni qoshimda tutdim. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko'ngli buzuq qo'r quoqlarni majlisimdan quvib yubordim“.

„Kimniki huzurimga kiritgan bo'lsalar va ko'zim unga tushgan bo'lsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg'a-in'omlar bilan kuzatsinlar. Har qanday odam mening adolat devonimda panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham kechirsinlar. Ikkinci, uchinchi yana gunoh qilgudek bo'lsa, u chog'da gunohiga yarasha jazolasinlar“.

„Qaysi bir sipohiy tuz haqqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o'z sohibidan yuz o'girib, mening oldimga kelgan bo'lsa, unday odamlarni o'zimga eng yomon dushman deb bildim“.

„Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholar adolat o'rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo'qotish

niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatining sharofati bilan mamlakatni zolimning qo‘lidan tortib olib, odil podshoga topshiradi“.

„Yana amr qildimki, g‘anim tomondan bizning qo‘limizga har qanday si pohiy asir bo‘lib tushsa, uni o‘ldirmasınlar, unga ixtiyor bersinlar. Agar navkarlikni qabul qilsa, navkar qilsinlar, yo‘qsa uni ozod etsinlar. Bunga misol men (Qaysar bilan urushda) to‘rt ming rumlik askarni ozod qildim“.

## LUTFIY

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda „Malik ul-kalom“ — „So‘z podshosi“ hisoblangan Lutfulloh Lutfiy 1366- yilda tug‘ilgan. Manbalarda uning 99 yil umr ko‘rganligi qayd etilgan.

Mavlono Lutfiy XIV—XV asrlardagi o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandası bo‘lib, o‘zining o‘zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so‘z san‘atkoridir.

Lutfiy boshlang‘ich tahsildan keyin madrasalarda o‘z davrining dunyoviy bilimlarini chuqr egallaydi. Shohobiddin Xiyoboniydan tasavvuf tariqatlarini ham o‘zlashtirdi. Lutfiy yoshlidan adabiyotga qiziqqan. U turkiy tildagi asarlar bilan bir qatorda, fors va arab tillaridagi adabiyotlarni ham qunt bilan o‘rganadi. O‘zi ham she’rlar bita boshlaydi. Uning she’rlari sodda so‘zlar yordamida yuqori badiiy bo‘yoqlarda jaranglashi bilan ajralib turadi.

Lutfiyning ona tilidagi lirik asarlardan iborat devoni o‘z davridayoq Xuroson va Movarounnahrdan tashqarida yashovchi turkiy tilda so‘zlashadigan ko‘pgina o‘lkalarga ham tarqalgan. Uning devoni Sharq she’riyatining yetakchi janrlaridan bo‘lgan g‘azal, ruboiiy, tuyuq, qit‘a va fardlarni o‘z ichiga oladi.

Lutfiy devonidan o‘rin olgan lirik asarlarning yetakchi mavzusi — ishqdir. Shu ishq insonning zohiriyligi va botiniy olamini oyna bo‘lib aks ettiradi. Bu asarlarda ishqning dunyoviy talqinlari yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan. Shoир lirikasida ancha keng o‘rin tutgan dunyoviy mavzular diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil etadi.

Hassos shoир lirikasida hayot zavqlari, tabiat go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish, shodlik va tarona ohanglari bilan bir qatorda inson qadriyati va uning orzu umidlarini oyoq osti qiluvchi kuchlardan ozurdahollik kayfiyatları ham seziladi. Lutfiy g‘azallari uruzning rang-barang bahrlarida yozilgan bo‘lib, hajm jihatidan

judi ixchamdir. Shoir g'azallarida aruzning xalq qo'shiqlariga yaqin turgan ohangdor, o'ynoqi o'Ichovlarini tanlaydi. Xalqning jonli so'zlashuv tilidagi erkalash, yupatish, qarg'ish, istehzo, qochiriq iboralaridan mahorat bilan foydalanadi.

Lutfiyning ruboiy, qit'a, tuyuq va fardlarida kishi ruhiy ola-mining rang-barang lahzalari, axloq-odob mavzularining talqinlari asosiy o'rinni tutadi. Lutfiy ijodi faqat o'zbek adabiyotining keyingi rivojiga katta ta'sir etib qolmasdan, qo'shni mamlakatlarning ham adabiyoti rivojida alohida o'rinni tutgan.

Lutfiy 1465- yilda Dehikanorda vafot etgan.

## MIRZO ULUG'BEK

Sohibqiron Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh mirzo-ning to'ng'ich farzandi Muhammad Tarag'ay 1394- yil 22- mart kuni Sultoniya shahrida dunyoga keladi. Amir Temur nevarasi Muhammad Tarag'ayni g'oyat ziyrak, zehnli bo'lganligi hamda unga otasining ismi qo'yilganligi uchun uni Ulug'bek, ya'ni beklarning ulug'i, kattasi deb ataydi.

Ulug'bek 1411- yil oktabrda Movarounnahr va Turkiston sultoni bo'lib, o'ttiz to'qqiz yil hukmronlik qildi. Otasi vafotidan so'ng temuriylar sulolasining boshlig'i bo'lib qoldi.

Ulug'bek yoshligidan ilmga qiziqadi, ko'p vaqtini saroy kutubxonasida o'tkazadi, tarix va she'riyat bilan shug'ullanadi. Astronomiya uning eng yaxshi ko'rgan fani edi.

Ulug'bek harbiy yurishlarni unchalik yoqtirmaydi. Uning harbiy yurishlari yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarni bartaraf etishga qaratilgan edi. U ko'p vaqt ilm-fan bilan shug'ullangan, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, machit-u madrasalar qurish bilan band bo'lgan. O'z hukmronlik yillarda zamonasining ko'pgina mashhur olimlari, shoirlarini Samarqandga to'playdi. Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda o'sha davrning oliy o'quv yurtlari — madrasalar qurdirdi. „Bibixonim“ masjidi, „Go'ri Amir“ maqbarasi, „Shohizinda“ ansamblari ham Ulug'bek zamonasida nihoyasiga yetdi. 1420—1429- yillari butun dunyoga mashhur rasadxona qurdirdi. O'sha davrda va hatto undan keyin ham Ulug'bek qurdirgan rasadxonadek ilm maskani dunyoda bo'lmagan. Ulug'bek bu yerda birinchi o'zbek akademiyasini tashkil etib, uning nomini butun dunyoga mashhur qilgan „Ziji Ulug'bek“ („Ulug'bek jadvali“)ni yaratdi. Ulug'bek bir guruham olimlar bilan birgalikda o'zidan avvalgi astronomlarning ishlarini qayta tekshirib, ularga katta aniqliklar kiritdi. Ulug'bek „Ziji“ning

astronomiya tarixi uchun ahamiyati beqiyos va bebahodir. Sayyoralar, Quyosh, Oy harakatlari to‘g‘risidagi yulduzlar jadvali va qo‘llanilgan matematik usullarga ko‘ra bu kitob o‘rta asrlarda yozilgan astronomik asarlarning eng mukammalidir. Ulug‘bek jadvali g‘oyat aniqligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda astronomiyaning nazariy asoslari bilan bir qatorda, 1019 yulduzning holati ham ifodalangan.

Ulug‘bekning bu asari eng avvalo musulmon mamlakatlarida astronomiyaning rivojlanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. XVII asrdan boshlab Yevropa olimlari o‘z tadqiqotlari darajasi aniqligini unga solishtirib bilganlar. Bu asar o‘rta asrlar astronomiyasininggina emas, balki matematikasining ham yuqori cho‘qqisi edi.

Ulug‘bek „Zij“dan tashqari „Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola“, „Risolai Ulug‘bek“, „To‘rt ulus tarixi“ kabi nodir ilmiy asarlar ham yozib qoldirgan. Ular ham hozirgi zamon fanlari uchun katta ahamiyatga egadir.

Buyuk olim, davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek 1449- yil 25- oktabr kuni 56 yoshda Samarqand yaqinidagi kichik bir qishloqda vahshiyarcha qatl etiladi. Mirzo Ulug‘bek ham Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Muhammad Tarag‘ay — Mirzo Ulug‘bek insoniyat tarixida ulug‘ sulton sifatida o‘chmas iz qoldirmagan bo‘lsa-da, tengsiz astronom va matematik olim sifatida jahoniy shuhrat topdi. Shuning uchun tavalludiga 600 yil to‘lishi munosabati bilan 1994- yil Ozbekistonda Ulug‘bek yili deb e’lon qilindi.

Ulug‘ mutafakkir shoир Alisher Navoiy Mirzo Ulug‘bekni quyidagicha madh etgan:

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,  
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.  
Oning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,  
Ki davr ahli biridan aylamas yod.  
Valek ul ilm sori topdi chun dast,  
Ko‘zi olinda bo‘ldi osmon past.  
Rasadkin bog‘lamish zebi jahondir,  
Jahon ichra yana bir osmondir.  
Bilib bu nav ilmi osmoniy,  
Ki ondin yozdi „Ziji Ko‘ragoniy“. .  
Qiyomatga deguncha ahli ayyom,  
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

## ALISHER NAVOIY

Eski o'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda Hirot (Hozirgi Afg'onistonda) shahrida tug'ildi. Uning otasi G'iyo'siddin Kichkina zamonasining ziyyoli kishilaridan bo'lgan. Alisher ziyrak va favqulodda qobiliyat egasi bo'lganligidan o'qishga barvaqt havas qo'ydi. Shuning uchun otasi uni to'rt yosh-u to'rt oyligida maktabga berdi. U adabiyot va musiqani sevganligidan tez orada 50 ming baytdan ortiq she'rni yod oladi. Alisher 10—12 yoshidan boshlab g'azallar yoza boshladi. Shayx Sa'diyning „Guliston“ va „Bo'ston“, Farididdin Attorning „Mantiqut-tayr“ asarlarini sevib o'qigan va hatto to'liq yodlab olgan. Yosh shoir turkiy, fors-tojik va arab tillaridagi asarlarni chuqur o'rgangan.

Turkiy adabiyotning mashhur namoyandasasi, mavlono Lutfiy yosh shoirning birgina g'azaliga o'zining butun ijodini almashtirishga tayyorligini aytib, Alisherning kelgusida ulkan shoir bo'lib yetishishini bashorat etgan edi. Alisher Navoiy o'z ona tili bilan bir qatorda, fors-tojik tilida „Foniy“ taxallusi bilan asarlar yozdi. Mutafakkir shoir 40 dan ortiq badiiy, ilmiy, falsafiy, tarixiy asarlar yozib qoldirdi. Uning „Xamsa“si 51230 misradan, „Xazoyinul-maoniy“ asari 50 ming misradan iboratdir. Alisher Navoiy o'zining „Muhokamatul-lug'atayn“, „Majolisun-nafois“, „Mahbubul-qulub“, „Mezonul-avzon“, „Lisonut-tayr“, „Xamsa“, „Xazoyinul-maoniy“ kabi bebahohi asarlar bilan o'zbek adabiy tilini nazariy jihatdan asoslاب, amaliy jihatdan isbotladi, o'zbek adabiyotini ko'klarga ko'tardi. Mamlakatda fors va arab tillari yuqori mavqega ega bo'lgan paytda o'z ona tilining qimmatini ko'tardi, uning fors va arab tillaridan qolishmasligini isbotlab berdi.

Alisher Navoiy muttasil ijod etish bilan birga, yoshlikda birga o'qigan do'sti sulton Husayn Boyqaro saroyida davlat ishlarini ham vijdonan olib bordi. Muhrdor, so'ngra bosh vazir, hokim bo'lganida mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga ahamiyat berdi, yangi ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, kutubxonalar, hammom-u machitlar qurdirdi.

Alisher Navoiy o'zining rang-barang g'azallari, ruboiylari, qit'a, tuyuq, muxammas, muammo, fard, chiston kabi janrlar-dagi sermazmun asarlarida hayot go'zalligini, nozik insoniy tuyg'ularni, tabiatni kuylaydi. Uning ko'p g'azallari qo'shiqqa aylangan, ular har kuni radio va televizorda yangrab turadi. Shoirning badiiy va ilmiy asarlari dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilingan.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1504- yil 3- yanvarda vafot etgan. Shoirning qabri Hirot shahridadir. 1991- yil O'zbekistonda Alisher Navoiy yili deb e'lon qilindi va uning 550 yillik to'yi keng nishonlandi. Uning 20 tomli mukammal asarlari to'plami nashr etilmoqda.

Alisher Navoiyning nomi abadiylashtirilgan. Hozirgi paytda respublikamizda katta bir shahar, Samarqand davlat universiteti, Toshkent Adabiyot muzeyi, katta opera va balet teatri, ko'pgina kutubxonalar, jamoa va davlat xo'jaliklari, ko'chalar Alisher Navoiyning muborak nomi bilan ataladi.

## KAMOLIDDIN BEHZOD

Ulug' rassom Kamoliddin Behzod 1455- yilda Hirotda hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onadan yosh yetim qolgan Kamoliddinni Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) o'z tarbiyasiga oladi. Mirak Naqqosh oilasida har tomonlama ilmli, odobli bo'lib tarbiyalangan Kamoliddin naqqoshlik va miniyatyrasozlik san'atini ham egallaydi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh va miniyatyrasoz bo'lib yetishishida muhim omillaridan biri — mutafakkir shoir Alisher Navoiyning nazariga tushib, uning homiyligidan bahramand bo'lganligidir. Behzod tez orada Hirotda mashhur musavvir bo'lib taniladi. Husayn Boyqaro Behzodni o'z saroyiga jalb qiladi, ijodiy ishlar bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. 1483- yildan Behzod Sulton Husayn Boyqaroning farmoni bilan saltanat kutubxonasiga boshliq qilib tayinlanadi.

1507- yilda Shayboniyxon Hirot taxtini egallaydi. Kamoliddin Behzod uch yilcha Hirotda Shayboniyxon sultanatiga qarashli saroyda ijodiy ish bilan shug'ullanadi. 1512- yilga kelib Hirotni eroniylar — Shoh Ismoil Safaviy o'z tasarrufiga oladi. U Hirotdagi iste'dodli san'atkorlarni Tabrizga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod ham bor edi. Bu vaqtga kelib Behzod va uning Hirotdagi musavvirlik maktabining dovrug'i butun Sharqqa tarqalgan edi. Behzodning san'atini yuksak qadrlagan Shoh Ismoil Safaviy ham unga zarur sharoitlarni yaratib beradi. Behzod Tabrizda Hirotdan keyingi nafis tasviriy san'atning yana bir ulkan maktabini yaratadi.

1512—1522- yillar Behzod hayotida og'ir va musibatlari yillar bo'ldi. Bu yillar orasida u ahyon-ahyonda ona yurti Hirotg'a borib-kelib turgan. 1522- yilda Shoh Ismoil Safaviy maxsus farmon chiqarib, Behzodni Tabrizdagi sultanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi.

Kamoliddin Behzod 1537- yili Hirotda vafot etadi. Hirotdiklar uni chuqr izardirob va motam bilan Kuhi Muxtor tog'i yonbag'riga dafn etadilar.

Kamoliddin Behzod Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“, Abdurahmon Jomiyining „Salomon va Absol“, Amir Xusrav Dehlaviyning „Xamsa“, Sa'diyning „Bo'ston“ va „Guliston“, Nizomiy Ganjaviyning „Xamsa“, Abdulloh Xotifiyining „Temurnoma“siga yuzlab miniatyuralar, Sulton Husayn Boyqaroning 40 dan ortiq majlislari tasviri, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Taxmasp, Shoir Abdulloh Xotifylarning suratlari, „Tuyalar jangi“, „Darvishlar raqsi“, „Samarqandda madrasa qurilishi“ kabi noyob suratlarni chizib qoldirgan.

Behzod o'ta saxiy va mehribon ustoz sifatida juda ko'plab atoqli miniatyurasoz, musavvir va naqqoshchlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi.

Kamoliddin Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirciligi tarixida, balki jahon rasm san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan, o'zining ajoyib va qimmatbaho miniatyura durdonalari bilan butun dunyo madaniyatini tarixida salmoqli o'rinni olgan buyuk va zabardast san'atkordir.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

XIV—XV asrlar o'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri, shoir, olim, yirik markazlashgan davlat podshosi, taniqli sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483- yil 14- fevralda Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx mirzo Amir Temirning avlodidan bo'lib, Farg'ona viloyati hokimi edi. Shuning uchun ham Bobur saroy muhitida tarbiyalanib, zamonasining ilm-ma'rifati, adabiyoti va san'atini chuqr o'rgandi. Otasi bevaqt vafot etgandan so'ng 12 yoshli Bobur Andijon taxtiga o'tirdi. Temuriylar o'rtasida bo'lib turgan urushlar tufayli mamlakat notinch edi. Bobur yurtida tinchlik o'rnatish uchun butun kuchini sarflaydi.

1504- yili Shayboniyxon qo'shinidan yengilgan Bobur oz sonli lashkari bilan Afg'onistonga ketishga majbur bo'ladi. Bobur Afg'onistonda hokimiyatni qo'lga kiritadi va adolatli shoh sifatida shuhrat qozonadi. 1519—1526- yillarda hind imperatori Ibrohim Lo'diy qo'shinini yengib, Hindistonni egallaydi. Bobur Hindistonda ulkan davlatga asos soldi. 1529- yilga kelib Bobur asos solgan davlatga Afg'oniston, Panjob, Gang vodiysi (Bengaliya chegarasigacha) kirar edi. Boburiylar hind yurtida qariyb 300 yil adolat bilan davlatni boshqardilar, ulkan tarixiy obidalar

qurdirdilar. Shulardan Tojmahal (Shoh Jahon va malika Mumtoz Mahal maqbarasi) me'moriy yodgorligi oq marmardan qurulgan bo'lib, 5 gumbaz, 4 minora, balandligi 74 metrdan iborat muhtasham binodir. Atrofi bog' va devorlari rangli toshlar bilan bezatilgan. Bu kabi obidalar hozir ham o'z go'zalligini saqlab qolgan va butun dunyo sayyohlarining eng ko'p ziyorat qiladigan maskanlaridan hisoblanadi.

Bobur katta davlat arbobi, taniqli sarkarda bo'lishi bilan birga, iste'dodli olim, tengsiz shoir ham edi. Bobur o'z atrofiga zamonasining eng mashhur shoirlari, olimlarini jamlab, ularga homiylik qildi. O'zi ham ilmiy, ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. U o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib, ko'plab ilmiy, g'oyat go'zal badiiy asarlar yozib qoldirdi. Bobur garchand vatandan yiroqda umr kechirgan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tilining, o'zbek adabiyoti va she'riyatining rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning g'azal va ruboiylari takrorlanmasligi, mazmundorligi, jarangdorligi hamda tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uning dilrabo g'azallari san'atkorlar tomonidan kuylab kelinadi.

Boburning huquqshunoslikka oid „Mubayyin“, aruz vazni va qofiya haqida „Mufassal“, musiqaga doir „Musiqiy“, harbiy yurishlar haqida „Harb ishi“ kabi asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari orasida „Boburnoma“ nomli memuar asari dunyoga mashhur. Bu asar zamonasining eng mukammal nasriy asari hisoblanib, jahon adabiyotiga qo'shilgan bebahoh durdonadir. Unda xalqimiz tarixiga doir, Sharq xalqlari tarixi, geografiyasi, urchodatlari va boshqa ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Bu asar dunyoning ko'p tillariga tarjima qilinib, katta nusxalarda nashr etilgan.

Boburning ijodiy ishlari farzandlari Gulbadanbegim, Komron mirzo, shuningdek, avlodlari Zebuniso va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 47 yoshida Hindistonning Agra shahrida vafot etdi. O'z vasiyatiga ko'ra keyinchalik uning jasadi Kobulga keltirib dafn etilgan. Shunday qilib, boburiylar sulolasi Hindistonda 1526-yildan 1858-yilgacha davom etdi. Hindistonda hozir ham boburiylar sulolasi vakillari yashaydi. O'zbekiston Pespublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qadimgi aloqalar yana tiklandi.

Bobur haqida ko'plab ilmiy, badiiy asarlar, filmlar yaratilgan. Taniqli o'zbek yozuvchisi Pirimkul Qodirov „Yulduzli tunlar“, „Avlodlar dovon“ romanlarini Bobur va uning avlodlari hayotini yoritishga bag'ishlagan. Yurtimizda uning nomini abadiylashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

## M U N D A R I J A

Kirish .....	3
<b>1- mashg‘ulot.</b> Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish haqidagi qonun .....	5
<b>2- mashg‘ulot.</b> Til va yozuv. O‘zbek xalqi foydalangan yozuvlar .....	9
<b>3- mashg‘ulot.</b> Yangi o‘zbek alifbosidagi harflarning joylashish tartibi va tarkibi .....	13
<b>4- mashg‘ulot.</b> Unli tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi .....	15
<b>5- mashg‘ulot.</b> [be],[en] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	17
<b>6- mashg‘ulot.</b> [de],[el] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	18
<b>7- mashg‘ulot.</b> [ka],[em] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	19
<b>8- mashg‘ulot.</b> [ge],[re] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	22
<b>9- mashg‘ulot.</b> [ef],[es] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	24
<b>10- mashg‘ulot.</b> [pe],[te] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	26
<b>11- mashg‘ulot.</b> [he],[je] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	29
<b>12- mashg‘ulot.</b> [qa],[xa] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	31
<b>13- mashg‘ulot.</b> [ve],[ze] undosh tovushlari va ularni ifodalovchi harflar .....	34
<b>14- mashg‘ulot.</b> [che],[g‘e] undosh tovushlari va ular- ning yozuvdagi ifodasi .....	37
<b>15- mashg‘ulot.</b> [nge],[she] undosh tovushlari va ular- ning yozuvdagi ifodasi .....	40
<b>16- mashg‘ulot.</b> [ye] undosh tovushi va uning yozuvdagi ifodasi .....	43

<b>17- mashg‘ulot.</b> [tsə] qorishiq undosh tovushining yozuvdagi ifodasi hamda tutuq ( ’ ) belgisining qo‘llanishi .....	46
<b>18- mashg‘ulot.</b> O‘zak va ularga qo‘shiladigan qo‘sishim- chalar imlosi .....	49
<b>19- mashg‘ulot.</b> Qo‘shib yoziladigan so‘zlar imlosi .....	50
<b>20- mashg‘ulot.</b> Chiziqcha bilan yoziladigan so‘z va qo‘sishchalar imlosi .....	52
<b>21- mashg‘ulot.</b> Ajratib yoziladigan so‘zlar imlosi .....	53
<b>22- mashg‘ulot.</b> Bosh harflar imlosi .....	54
<b>23- mashg‘ulot.</b> Ko‘chirish qoidalari .....	56
<b>24- mashg‘ulot.</b> Atoqli otlar imlosi .....	57
<b>Mustaqil o‘qish uchun matnlar.....</b>	60

**Болтаев М.**

Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбоси ва имлоси. —Т.: „Ўқитувчи“, 2003. — 96 б.

ББК 81. 2Ўзб—8

MARDONQUL BOLTAYEV

**LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN  
O'ZBEK ALIFBOSI VA IMLOSI**

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun  
o'quv qo'llanma*

Toshkent „О'qituvchi“ 2003

Tahririyat mudiri *Safo Ochil*  
 Muhammarrir *H. Yusupova*  
 Badiiy muhammarrir *Sh. Xo'jayev*  
 Xattot *H. Qutlug'ov*  
 Texn. muhammarrir *S. Tursunova*  
 Kompyuterda sahifalovchi *S. Musajonova*  
 Kichik muhammarrir *M. Hoshimova*

ИБ 8276

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 16.12.2003. Bichimi 60x90/<sub>16</sub>. Kegli 11 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Sharhli b.t. 6,0. Nashr. t. 6,0 1000 nusxada bosildi. Buyurtma N 2036

„О'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
 Sharhnomalar 12—118—03.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 1- bosmaxonasida bosildi  
 Toshkent, Sag'bon ko'chasi, 1- berk ko'cha, 2- uy. 2003.